

**“O‘zenergosotish” AJning 2025-yil uchun
Barqaror rivojlanish hisoboti**

Boshqaruv Raisining murojaati	4
Kompaniya haqida	5
Kompaniya profili.....	5
Rivojlanish tarixi	5
Faoliyatning qisqacha tavsifi	6
Biznes-model.....	7
Bozor sharhi va raqobat muhiti	7
Rivojlanish strategiyasi	7
Biznes-rejaning ijrosi.....	8
Faoliyat tavsifi	9
Elektr energiyasini xarid qilish va sotish	9
Elektr energiyasining importi va eksporti	10
Iqtisodiy natijadorlik	10
Ta'minot zanjirini boshqarish	11
Boshqaruv yondashuvi	11
Korporativ boshqaruv	15
Barqaror rivojlanishni boshqarish	15
BMT Barqaror rivojlanish maqsadlariga qo'shilayotgan hissa	16
Korporativ boshqaruv tuzilmasi	20
Yagona aksiyador	21
Kuzatuv kengashi	21
Kuzatuv kengashi huzuridagi qo'mitalar	23
Kuzatuv kengashi a'zolarini rag'batlantirish	25
Boshqaruv	25
Boshqaruv a'zolarini rag'batlantirish.....	27
Ishbilarmonlik etikasi va korrupsiyaga qarshi kurash.....	28
Mas'uliyatli ishbilarmonlik etikasi	28
Korrupsiyaga qarshi kurash tizimi	30
Ichki audit xizmati	32
Axborot xavfsizligi	34
Manfaatdor tomonlar bilan o'zaro hamkorlik.....	37
Ekologik mas'uliyat.....	42
Energiya menejmenti tizimi.....	43
Resurslardan mas'uliyatli foydalanish.....	47
Ijtimoiy mas'uliyat	50
Xodimlarni boshqarish	50
Xodimlar soni va tarkibi.....	50
Xodimlarni jalb qilish va ularni saqlab qolish siyosati	53
Mehnatga haq to'lash va ijtimoiy kafolatlar.....	54
Ijtimoiy muloqot va kasaba uyushmasi	55
Ta'lim va rivojlanish	57
Xilma-xillik va tenglik.....	59
Inson huquqlariga rioya etilishi	59
Mehnatni muhofaza qilish va texnika xavfsizligi	60
Mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi xavflarini boshqarish	61
Xodimlarning salomatligi va farovonligi	62
Favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik	62
Xavflarni boshqarish.....	64

Boshqaruvga yondashuv	64
Asosiy xavflar.....	65
Ichki nazorat tizimi	66
Ilovalar.....	68
1-ilova. Hisobot haqida.....	68
Muhim mavzularni aniqlash	69
2-ilova. GRI ko'rsatkichlari jadvali	73
3-ilova. Glossariy	79
4-ilova. Kontakt ma'lumotlari	82

Boshqaruv Raisining murojaati

GRI 2-22

Hurmatli hamkasblar, hamkorlar va manfaatdor tomonlar!

Sizlarga “O‘zenergosotish” AJning 2025-yil yakunlari bo‘yicha ilk Barqaror rivojlanish hisobotini taqdim etaman. Kompaniya uchun bu O‘zbekiston Respublikasida elektr energiyasining markaziy xaridori sifatidagi faoliyatning birinchi to‘liq yili bo‘ldi. Mazkur hisobotda erishilgan asosiy natijalarimiz, boshqaruv yondashuvlarimiz hamda energetika bozorining barqaror va shaffof modelini rivojlantirish bo‘yicha keyingi qadamlarimiz aks ettirilgan.

“O‘zenergosotish” AJ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-166-son Farmoni asosida elektroenergetika tarmog‘ini isloh qilishning muhim vositalaridan biri sifatida tashkil etilgan. 2024-yil 1-iyuldan boshlab Kompaniya markaziy xaridor funksiyasini amalga oshirib kelmoqda, 2025-yil 1-yanvardan esa davlat-xususiy sheriklik doirasidagi elektr energiyasini oldi-sotdi qilish shartnomalari hamda xususiy elektr energiyasi ishlab chiqaruvchi kompaniyalar bilan ishlash bo‘yicha operatsiyalarni yuritmoqda. Bizning asosiy vazifamiz ishonchli energiya ta‘minotini ta‘minlash, bozor shaffofligini oshirish va elektr energiyasi ishlab chiqarish sohasiga investitsiyalarni jalb etish uchun qulay sharoitlar yaratishdan iborat.

2025-yilda Kompaniya barqaror operatsion va moliyaviy natijalarga erishdi. Tushum hajmi 50,7 mlrd so‘mni tashkil etib, bu avvalgi yil ko‘rsatkichidan ikki baravar yuqoridir. Mustaqil baholash yakunlariga ko‘ra, korporativ boshqaruv tizimi 699 ball bilan yuqori darajaga mos deb topildi.

Hisobot davrida Kompaniya barqaror rivojlanishning institutsional asoslarini shakllantirishni davom ettirdi. ISO 14001, ISO 45001, ISO 50001 va ISO 37001 xalqaro standartlari asosidagi integratsiyalashgan menejment tizimi joriy etilmoqda. 2026-yil yanvar oyida Kompaniya CERT International tomonidan o‘tkazilgan sertifikatlashtirish auditining birinchi bosqichidan ijobiy natijalar bilan muvaffaqiyatli o‘tdi.

Jamoani rivojlantirish masalasiga alohida e‘tibor qaratildi. Xodimlar soni 48,3 foizga oshib, 86 nafarga yetdi. Ta‘lim va malaka oshirishga yo‘naltirilgan investitsiyalar qariyb o‘n baravar ko‘paydi, kasbiy rivojlanish bo‘yicha o‘quv soatlari umumiy hajmi esa 3 705 soatni tashkil etdi. 2025-yil iyun oyida doimiy xodimlarning 100 foizini qamrab olgan boshlang‘ich kasaba uyushmasi tashkiloti tuzildi. Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlariga 287,5 mln so‘m yo‘naltirildi. Yil davomida ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar qayd etilmadi.

Kompaniyaning atrof-muhitga bevosita ta‘siri, asosan, ma‘muriy va ofis faoliyati bilan bog‘liq. Shu bilan birga, “O‘zenergosotish” AJ markaziy xaridor sifatidagi funksiyasi orqali energetik transformatsiya jarayonlarini qo‘llab-quvvatlamog‘da. 2025-yilda davlat-xususiy sheriklik loyihalari doirasida xarid qilingan elektr energiyasi portfelida qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ulushi 16,9 foizni tashkil etdi, quyosh va shamol elektr stansiyalaridan tarmoqqa uzatilgan elektr energiyasi hajmi esa 10,4 TVt-soatga yetdi. Elektr energiyasini uzoq muddatli xarid qilish shartnomalari qayta tiklanuvchi energiya ishlab chiqarish sohasiga xususiy investitsiyalarni jalb etishga xizmat qilmoqda.

2026-yilda Kompaniya ichki jarayonlar va raqamli infratuzilmani rivojlantirishni davom ettiradi. Asosiy biznes jarayonlarini avtomatlashtirish maqsadida ERP tizimini joriy etish, barqaror rivojlanish bo‘yicha ishchi guruh tashkil etish hamda IFRS S1 va IFRS S2 xalqaro standartlari talablarini inobatga olgan holda axborotni oshkor etishga tayyorgarlikni davom ettirish rejalashtirilgan.

“O‘zenergosotish” AJ xodimlarga o‘zining yuksak professionalligi va Kompaniya rivojiga qo‘shayotgan hissasi uchun, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi timsolida Yagona aksiyadorga bildirilgan ishonch uchun, shuningdek, hamkorlarimiz va elektr energiyasi ishlab chiqaruvchilariga samarali hamkorlik uchun samimiy minnatdorlik bildiraman. Ishonchim komilki, birgalikdagi sa‘y-harakatlarimiz bilan O‘zbekistonning shaffof, raqobatbardosh va barqaror energetika bozorini shakllantirishni davom ettiramiz.

Hurmat bilan,

Jahongir Obidjonov

Boshqaruv raisi

“O‘zenergosotish” AJ

Kompaniya haqida

Kompaniya profili

GRI 2-1

“O‘zenergosotish” AJ O‘zbekiston Respublikasida elektr energiyasini markazlashtirilgan tarzda xarid qilish va sotish funksiyalarini amalga oshiruvchi davlat kompaniyasi hisoblanadi. Kompaniya energetika tarmog‘ini isloh qilish hamda markazlashgan boshqaruv modelidan elektr energiyasining ulgurji va chakana bozoridagi raqobat mexanizmlariga bosqichma-bosqich o‘tish doirasida tashkil etilgan.

Amaldagi bozor arxitekturasida “O‘zenergosotish” AJ elektr energiyasi ishlab chiqaruvchilari, hududiy elektr tarmoqlari korxonalari va yirik iste‘molchilar o‘rtasidagi bog‘lovchi bo‘g‘in sifatida faoliyat yuritadi. Kompaniya elektr energiyasini xarid qilish va realizatsiya qilishni tashkil etadi, bozor ishtirokchilari bilan shartnomalar bo‘yicha hamkorlik va hisob-kitoblarni amalga oshiradi, tijorat majburiyatlarining bajarilishini nazorat qiladi, shuningdek eksport-import operatsiyalarini olib boradi.

Elektr energiyasini uzatish va tranzit qilish funksiyalari tashkiliy jihatdan Kompaniyaning tijorat faoliyatidan ajratilgan bo‘lib, mazkur vazifalar “O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJ tomonidan amalga oshiriladi. Bunday taqsimot tarmoqni isloh qilish jarayonida elektr energiyasini ishlab chiqarish, uzatish va tijorat asosida realizatsiya qilish funksiyalarini o‘zaro ajratishga xizmat qiladi.

“O‘zenergosotish” AJning yagona aksiyadori O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi hisoblanadi. Kompaniyaning strategik roli elektr energiyasini xarid qilish va sotish barqarorligini ta‘minlash, hisob-kitoblar shaffofligini oshirish hamda raqobatbardosh energetika bozorini shakllantirishga ko‘maklashishdan iborat.

Rivojlanish tarixi

“O‘zenergosotish” AJning tashkil etilishi O‘zbekiston Respublikasi energetika tarmog‘ini isloh qilishning navbatdagi bosqichining bir qismi bo‘ldi.

- 2023-yil 28-sentyabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF–166-son Farmoni – “Energetika sohasini isloh qilishning navbatdagi bosqichini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi hujjati qabul qilindi. Mazkur hujjatda elektr energiyasining raqobatbardosh ulgurji va chakana bozorlarini yaratish, xususiy va xorijiy investitsiyalarni jalb etish hamda narxlarni shakllantirishning shaffof mexanizmlarini joriy etish nazarda tutilgan.
- Mazkur Farmon bilan 2023–2030-yillarda elektr energiyasining ulgurji va chakana bozori mexanizmlariga bosqichma-bosqich o‘tish konsepsiyasi tasdiqlandi hamda “O‘zenergosotish” AJni tashkil etish belgilandi.
- 2023-yil 24-noyabrda Kompaniya O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining qarori bilan ta‘sis etildi, 2023-yil 1-dekabrda esa davlat ro‘yxatidan o‘tkazildi.
- 2024-yil 1-iyuldan boshlab “O‘zenergosotish” AJ elektr energiyasini markazlashtirilgan tarzda xarid qilish va realizatsiya qilish, shu jumladan eksport-import operatsiyalarini amalga oshirib kelmoqda. Kompaniya mahalliy ishlab chiqaruvchilardan elektr energiyasini xarid qiladi hamda uni belgilangan tariflar asosida hududiy elektr tarmoqlari korxonalari va yirik iste‘molchilarga yetkazib beradi.
- 2025-yil 1-yanvardan boshlab Kompaniyaga davlat-xususiy sheriklik (DXSh) loyihalari doirasida tuzilgan elektr energiyasini oldi-sotdi qilish shartnomalari bo‘yicha funksiyalar, jumladan qator xususiy elektr stansiyalari bilan ishlash vakolatlari topshirildi. Bu “O‘zenergosotish” AJ faoliyat ko‘lamini kengaytirdi va uning elektr energiyasining markaziy xaridori sifatidagi rolini yanada mustahkamladi.

Kompaniyaning keyingi rivojlanishi bozorning raqobatbardosh modeliga bosqichma-bosqich o‘tish bilan bog‘liqdir. Ushbu model ikki tomonlama shartnomalardan foydalanishni, “keyingi kun” elektr energiyasi savdolarini joriy etishni, istiqbolda esa kun ichidagi soatlik savdolar hamda ishlab chiqaruvchilar bilan uzoq muddatli shartnomalarni nazarda tutadi.

Faoliyatning qisqacha tavsifi

“O‘zenergosotish” AJ O‘zbekiston elektroenergetika bozorining ishtirokchisi bo‘lib, elektr energiyasi muomalasi sohasidagi tijorat jarayonlarini tashkil etish uchun mas‘ul hisoblanadi.

Kompaniya elektr energiyasi ishlab chiqaruvchi tashkilotlar va xaridorlar o‘rtasida yagona shartnomaviy hamda hisob-kitob tizimini shakllantiradi, elektr energiyasini xarid qilish va sotish jarayonlarini muvofiqlashtiradi, eksport-import operatsiyalarini amalga oshiradi hamda savdo bozorining mexanizmlarini rivojlantirishda ishtirok etadi. “O‘zenergosotish” AJ faoliyati operatsiyalar shaffofligini oshirish, to‘lov intizomini mustahkamlash va energetika sektorini raqobatbardosh bozor modeliga o‘tishga tayyorlashga qaratilgan.

Kompaniya faoliyatining asosiy yo‘nalishlari:

- issiqlik va gidroelektr stansiyalari, xususiy ishlab chiqaruvchilar, DXSh loyihalari hamda qayta tiklanuvchi energiya obyektlaridan elektr energiyasini xarid qilish;
- elektr energiyasini hududiy elektr tarmoqlari korxonalari va yirik iste‘molchilarga sotish;
- elektr energiyasini xarid qilish va realizatsiya qilish bo‘yicha shartnomalarni yuritish;
- elektr energiyasi ishlab chiqaruvchilari va xaridorlari bilan hisob-kitoblarni tashkil etish;
- bozor ishtirokchilarining to‘lov hamda shartnoma intizomini monitoring qilish;
- elektr energiyasining eksport-import operatsiyalarini amalga oshirish;
- elektr energiyasi bozorining raqobatbardosh modeliga o‘tish uchun infratuzilma va tijorat jarayonlarini tayyorlashda ishtirok etish.

Hozirgi bosqichda “O‘zenergosotish” AJ elektr energiyasining markaziy xaridori sifatida faoliyat yuritadi va elektr energiyasini tartibga solinadigan tariflar asosida realizatsiya qiladi. Faoliyatning keyingi rivojlanishi elektron savdo platformalarini joriy etish, talab va taklif asosidagi bozor narxlarini shakllantirish mexanizmlariga o‘tish hamda mustaqil bozor ishtirokchilarining ishtirokini kengaytirish bilan bog‘liqdir.

Biznes-model

Bozor sharhi va raqobat muhiti

O'zbekiston elektroenergetika sohasi o'z tarixidagi eng yirik tarkibiy o'zgarishlardan birini boshdan kechirmoqda. So'nggi yetti yil davomida ichki elektr energiyasi talabi 1,6 baravarga oshib, yiliga 83 mlrd kVt-soatdan ortdi. Prognozlarga ko'ra, sanoat ishlab chiqarishining o'sishi, urbanizatsiya jarayonlari va xorijiy investitsiyalarni faol jalb etish ta'sirida 2030-yilga kelib qo'shimcha ehtiyoj yana qariyb 40 mlrd kVt-soatni tashkil etadi.

Tarmoq isloh qilinishidan avval elektr energiyasi bo'yicha ulgurji operatsiyalarni amalga oshiruvchi yagona subyekt vertikal integratsiyalashgan "O'zbekenergo" AJ edi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-sentyabrdagi PF-166-son Farmoni bilan ushbu subyektning funksional ajratilishi nazarda tutildi: elektr energiyasini uzatish va tranzit qilish vazifalari "O'zbekiston milliy elektr tarmoqlari" AJga, markazlashtirilgan xarid va sotuv funksiyalari esa yangi tashkil etilgan "O'zenergosotish" AJga birlashtirildi.

Shu tariqa, Kompaniya tartibga solinadigan bozor sharoitida elektr energiyasi ulgurji savdosining yagona operatori sifatida faoliyat yuritmoqda. Mazkur bosqichda an'anaviy ma'nodagi raqobat muhiti mavjud emas: xarid hajmlari va sotish tariflari davlat organlari hamda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Idoralararo tarif komissiyasi tomonidan belgilanadi.

"O'zenergosotish" AJ ishtirokida elektr energiyasi bozorini transformatsiya qilish uch bosqichda amalga oshirilmoqda:

Bosqich	Davr	Mexanizm
1. Ikki tomonlama shartnomalar	2024–2025	Markaziy xaridor; tartibga solinadigan tariflar
2. "Keyingi kun" savdolari	2026–2028	Onlayn platforma; bozor tamoyillari asosidagi narx shakllanishi
3. Kun ichidagi savdolar	2029–2030	Soatlik auksionlar; ulgurji bozorning to'liq liberallasuvi

Islohotlarning 2024–2025-yillarni qamrab olgan birinchi bosqichida Kompaniya markaziy xaridor funksiyasini bajarib, elektr energiyasini ishlab chiqaruvchilardan xarid qiladi hamda uni hududiy elektr tarmoqlari korxonalari va yirik iste'molchilarga tartibga solinadigan tariflar asosida realizatsiya qiladi. Shuningdek, Markaziy Osiyoning qo'shni energetika tizimlari bilan elektr energiyasini eksport-import qilish bo'yicha amaldagi shartnomaviy majburiyatlar uzaytirilgan holda davom ettirilmoqda.

2025-yil 1-yanvardan boshlab Kompaniyaga davlat-xususiy sheriklik (DXSh) loyihalari doirasida tuzilgan elektr energiyasini oldi-sotdi qilish shartnomalari bo'yicha funksiyalar, jumladan bir qator xususiy elektr stansiyalari bilan ishlash vakolatlari ham topshirildi.

Rivojlanish strategiyasi

"O'zenergosotish" AJning 2025–2030-yillarga mo'ljallangan rivojlanish strategiyasi O'zbekiston Respublikasi elektr energetikasi bozorini bosqichma-bosqich isloh qilish sharoitida Kompaniya faoliyatining asosiy yo'nalishlarini belgilab beradi. Strategiyaning asosiy maqsadi O'zbekiston Respublikasi Hukumati va Yagona aksiyador tomonidan Kompaniya zimmasiga yuklatilgan vazifalarni izchil amalga oshirish orqali elektr energiyasi bozorining shaffof va raqobatbardosh modelini shakllantirishga ko'maklashishdan iborat.

"O'zenergosotish" AJ missiyasi – innovatsiyalarni joriy etish orqali mijozlarning elektr energiyasiga bo'lgan ehtiyojlarini qondiradigan hamda energetika bozorida zamonaviy yechimlarni taqdim etadigan optimal muhitni yaratish va takomillashtirishdir.

Jamiyatning korporativ qadriyatlari o'zaro bog'liq bo'lgan uchta asosiy yo'nalishni birlashtiradi: strategik rivojlanish va resurslardan samarali foydalanish; innovatsionlik, ijodkorlik va kompleks yondashuv; sifat, tezkorlik va hamkorlik.

“Strategiya, resurslar va rivojlanish” qadriyati Jamiyatning resurslardan samarali foydalanish, barqaror rivojlanishni ta'minlash hamda bozordagi mavqeiini mustahkamlashga qaratilgan uzoq muddatli yechimlarni ishlab chiqish va amalga oshirishga bo'lgan intilishini aks ettiradi.

“Innovatsiyalar, ijodkorlik va komplekslik” qadriyati texnologik, boshqaruv va servis yechimlarini muntazam joriy etishni, shuningdek, mijozlar ehtiyojlarini qondirishda kompleks va ijodiy yondashuvni qo'llashni nazarda tutadi. Jamiyat innovatsiyalarni rivojlantirishni samaradorlik va raqobatbardoshlikni oshirishning eng muhim shartlaridan biri sifatida baholaydi.

“Sifat, tezkorlik va hamkorlik” qadriyati mijozlar ehtiyojlariga yo'naltirilganlik, xizmatlarning yuqori sifatini ta'minlash, majburiyatlarni o'z vaqtida bajarish hamda manfaatdor tomonlar bilan konstruktiv hamkorlikni rivojlantirishda namoyon bo'ladi. Ushbu tamoyillarga rioya etish mijozlarning ishonchi va sodiqligini mustahkamlashga, resurslardan samarali foydalanishga hamda Jamiyatning strategik maqsadlariga erishishga xizmat qiladi.

“O'zenergosotish” AJning strategik ustuvor yo'nalishlari:

- berilgan vakolatlar doirasida elektr energiyasiga bo'lgan o'sib borayotgan talabni qondirishga ko'maklashish;
- elektroenergetika tarmog'ining investitsiyaviy jozibadorligini oshirish;
- shaffof va raqobatbardosh bozor muhitini shakllantirishda ishtirok etish;
- elektr energiyasini adolatli va iqtisodiy jihatdan asoslangan narxlar hamda tariflar bo'yicha realizatsiya qilishni ta'minlash;
- elektr energiyasi savdosining zamonaviy mexanizmlarini rivojlantirish;
- bozor ishtirokchilariga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish;
- biznes-jarayonlarni raqamlashtirish va zamonaviy axborot tizimlarini joriy etish.

Shakllanayotgan energetika bozorida o'z mavqeiini mustahkamlash maqsadida Kompaniya o'zaro bog'liq bo'lgan uchta yetakchilik yo'nalishiga asoslangan strategiyani amalga oshirmoqda.

Energetika bozorida yetakchilik markaziy xaridor funksiyalarini bajarish va ko'rsatilayotgan xizmatlar turini izchil kengaytirishni nazarda tutadi. Istiqbolda Kompaniya ulgurji va chakana bozorlarda elektr energiyasi yetkazib beruvchisi, treyder hamda boshqa faoliyat yo'nalishlarini rivojlantirish imkoniyatlarini ko'rib chiqmoqda.

Innovatsiyalar sohasida yetakchilik texnologik va boshqaruv yechimlarini joriy etish, axborot infratuzilmasini modernizatsiya qilish hamda elektr energiyasi elektron savdosining xalqaro amaliyotini o'rganishni o'z ichiga oladi.

Xizmat ko'rsatishda yetakchilik taqdim etilayotgan xizmatlar sifatini oshirish, bozor ishtirokchilarining ehtiyojlariga tezkor javob berish va uzoq muddatli hamkorlik munosabatlarini shakllantirishga qaratilgan. Kompaniya jarayonlarni takomillashtirish va yangi xizmatlarni rivojlantirishda mijozlarning kutilayotgan natijalarini inobatga olishga intiladi.

Kompaniya rivojlanishining ustuvor yo'nalishlari va faoliyatining asosiy ko'rsatkichlarini belgilovchi muhim strategik hujjatlardan biri Biznes-reja hisoblanadi.

Biznes-rejaning ijrosi

Elektr energiyasini xarid qilish

2025-yil yakunlariga ko'ra, mahalliy ishlab chiqaruvchilardan xarid qilingan elektr energiyasining amaldagi hajmi rejalashtirilgan ko'rsatkichning 96,3 foizini tashkil etdi. Bunda elektr energiyasini xarid qilish xarajatlari biznes-rejada nazarda tutilgan ko'rsatkichga nisbatan 110,9 foizga yetdi.

Shunday qilib, xaridning fizik hajmi reja ko'rsatkichidan past bo'lishiga qaramay, xarid qilingan elektr energiyasining amaldagi qiymati rejalashtirilgan darajadan yuqori bo'ldi. Bu esa elektr energiyasini xarid qilishning o'rtacha qiymati biznes-rejada qabul qilingan taxminlarga nisbatan yuqoriroq bo'lganidan dalolat beradi.

Elektr energiyasini sotish

2025-yil davomida Kompaniya elektr energiyasini hududiy elektr tarmoqlari korxonalari hamda yirik iste'molchilarga sotishni amalga oshirdi.

Faoliyat tavsifi

Elektr energiyasini xarid qilish va sotish

GRI 2-6, 3-3

Elektr energiyasini xarid qilish

“O'zenergiosotish” AJ elektr energiyasini shartnoma asosida xarid qiladi: har bir elektr energiyasi ishlab chiqaruvchi stansiya bilan alohida oldi-sotdi shartnomasi tuziladi. Xarid qilinadigan hajm stansiyaning yalpi ishlab chiqarishi bo'yicha emas, balki elektr tarmog'iga amalda uzatilgan va tijorat hisobga olish qurilmalari ko'rsatkichlari bilan tasdiqlangan elektr energiyasi hajmi bo'yicha aniqlanadi. Ishlab chiqarilgan va tarmoqqa uzatilgan elektr energiyasi hajmlari o'rtasidagi farq ishlab chiqaruvchi stansiyaning o'z texnologik ehtiyojlariga sarflangan energiya hisoblanadi va Kompaniya mas'uliyati doirasiga kirmaydi.

Kompaniya turli turdagi ishlab chiqarish obyektlaridan, jumladan an'anaviy elektr stansiyalari va davlat-xususiy sheriklik (DXSh) asosida amalga oshirilgan loyihalardan elektr energiyasini xarid qiladi.

1-jadval. 2025-yilda xarid qilingan elektr energiyasi bo'yicha ma'lumotlar

Manba turi	Ishtirok shakli	Xarid qilingan elektr energiyasi ulushi
An'anaviy elektr stansiyalari (IES, GES, blok stansiyalar)	An'anaviy generatsiya; to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar	60,1%
DXSh IESlari (issiqlik elektr stansiyalari)	DXSh loyihalari; elektr energiyasini xarid qilish bitimlari (PPA)	23,0%
DXSh QES va ShESlari (quyosh va shamol elektr stansiyalari)	DXSh loyihalari; elektr energiyasini xarid qilish bitimlari (PPA)	16,9%

Tijorat hisobi va hajmlarni tasdiqlash

Har oyda elektr energiyasi ishlab chiqaruvchi stansiya, magistral tarmoq operatori (“O'zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJ), hududiy elektr tarmoqlari korxonalari va yirik iste'molchilar o'rtasidagi balans mansubligi chegaralarida qabul qilingan va uzatilgan elektr energiyasi hajmlarini qayd etuvchi o'zaro solishtirma dalolatnomalar tuziladi. Mazkur dalolatnomalar asosida Kompaniyaning tegishli bo'linmasi xarid qilingan hajmlar bo'yicha oylik hisobotlarni shakllantiradi.

Yirik iste'molchilar bo'yicha hajmlar hisob-kitob davrining boshidagi hisobga olish qurilmalari ko'rsatkichlari asosida billing tizimida hisoblanadi. Ishlab chiqarish va iste'mol o'rtasidagi operativ muvozanat real vaqt rejimida Milliy dispetcherlik markazi tomonidan ta'minlanadi. Elektr energiyasi ishlab chiqarish va iste'mol qilishning yillik prognozlari amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar tartibida shakllantiriladi, vakolatli organlar bilan kelishiladi hamda O'zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan tasdiqlanadi.

Elektr energiyasini sotish

Xarid qilingan elektr energiyasi “O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJning magistral elektr tarmoqlari orqali uzatiladi va quyidagi ikki toifadagi xaridorlarga realizatsiya qilinadi:

- 14 ta hududiy elektr tarmoqlari korxonalariga – asosiy sotuv kanali sifatida; elektr energiyasi balans mansubligi chegarasida tartibga solinadigan tariflar bo‘yicha sotiladi;
- yirik iste’molchilarga – Vazirlar Mahkamasining normativ hujjatlarida belgilangan mezonlarga javob beruvchi yuridik shaxslarga; ular bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri elektr energiyasi yetkazib berish shartnomalari tuziladi.

2025-yildagi operatsion modeldagi muhim o‘zgarishlar:

1) Yirik iste’molchilarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri sotuvlarning boshlanishi. Kompaniya elektr energiyasini yirik iste’molchilarga bevosita sotishni boshladi. Ilgari hududiy elektr tarmoqlariga sotuvlar uzatish chegarasida yagona hajm sifatida amalga oshirilgan.

2) Hududiy elektr tarmoqlari bilan hisob-kitoblarning batafsillashtirilishi. Hisob-kitoblar alohida yuritila boshlandi: yakuniy iste’molchilarga hisoblangan hajmlar va tarmoqlardagi texnologik yo‘qotishlarga tegishli hajmlar alohida hisobga olinmoqda. Mazkur o‘zgarish hisob-kitoblarning shaffofligini oshiradi hamda bozor narxlarini shakllantirish mexanizmlariga o‘tish (islohotlarning II bosqichi, 2026–2028-yillar) uchun tayyorgarlikning muhim elementi hisoblanadi.

Elektr energiyasining importi va eksporti

“O‘zenergosotish” AJ O‘zbekiston Respublikasi nomidan elektr energiyasini import qilish va eksport qilish bo‘yicha oldi shartnomalarini tuzish vakolatiga ega yagona subyekt hisoblanadi. Faoliyat O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi, hukumatlararo bitimlar hamda ikki tomonlama shartnomalar asosida Markaziy Osiyo Birlashgan energetika tizimi (MO BET) doirasida amalga oshiriladi. Elektr energiyasini davlat chegaralari orqali fizik uzatish davlatlararo elektr uzatish liniyalari orqali bajariladi.

MO BET doirasida Kompaniya mintqa davlatlarining milliy energetika kompaniyalari va tizim operatorlari bilan elektr energiyasi oqimlari jadvalarini kelishish, tijorat hisobini yuritish, amaldagi hajmlarni tasdiqlash hamda o‘zaro hisob-kitoblarni amalga oshirish masalalari bo‘yicha hamkorlik qiladi.

Import operatsiyalari ichki bozor ehtiyojlari va energetika tizimining mavsumiy yuklamalarini hisobga olgan holda amalga oshirildi. Bunda import xarajatlari umuman olganda rejalashtirilgan parametrlar doirasida saqlanib qoldi. Kompaniya energetik hamkorlikni rivojlantirish va Markaziy Osiyo Birlashgan energetika tizimining ishonchligini oshirishga qaratilgan mintaqaviy tashabbuslarda ishtirok etishni davom ettirdi.

Iqtisodiy natijadorlik

GRI 201-1

“O‘zenergosotish” AJ O‘zbekiston Respublikasida elektr energiyasining markaziy xaridori modelining barqaror faoliyat yuritishini ta’minlaydi hamda milliy elektroenergetika bozorini rivojlantirishga hissa qo‘shadi. Kompaniyaning iqtisodiy faoliyati moliyaviy barqarorlikni ta’minlashga, elektr energiyasi ishlab chiqaruvchilari, davlat, xodimlar va boshqa manfaatdor tomonlar oldidagi majburiyatlarni bajarishga qaratilgan.

Kompaniya asosiy moliyaviy-iqtisodiy ko‘rsatkichlarni muntazam monitoring qiladi hamda operatsion faoliyatning uzluksizligini ta’minlash va elektroenergetika tarmog‘ini isloh qilish bo‘yicha davlat dasturlarida nazarda tutilgan vazifalarni amalga oshirish maqsadida moliyaviy resurslarni samarali boshqaradi.

2025-yil davomida “O‘zenergosotish” AJ yetkazib beruvchilar, xodimlar va davlat organlari oldidagi majburiyatlarini o‘z vaqtida bajardi, bu esa Kompaniya faoliyatining barqarorligini va elektr energiyasi bozoridagi yuklatilgan funksiyalarining samarali bajarilishini ta’minladi.

2-jadval – Yaratilgan va taqsimlangan bevosita iqtisodiy qiymat, mln so'm

GRI 201-1

Ko'rsatkich	2024	2025
1. Yaratilgan bevosita iqtisodiy qiymat	23 892,46	53 879,24
Daromad (tushum)	23 882,16	50 724,63
Moliyaviy investitsiyalardan daromad	-	-
Moddiy aktivlarni sotishdan daromad	-	-
Boshqa tushumlar	10,30	3 154,60
2. Taqsimlangan iqtisodiy qiymat	24 184,16	54 915,41
Operatsion xarajatlar	24 173,90	54 392,51
Xodimlarga ish haqi, boshqa to'lovlar va imtiyozlar	-	-
shu jumladan ish haqi	-	-
shu jumladan xodimlarga boshqa to'lovlar va imtiyozlar	-	-
Kapital yetkazib beruvchilarga to'lovlar	10,26	522,90
shu jumladan to'langan dividendlar	-	-
shu jumladan moliyaviy xarajatlar	10,26	522,90
Davlatga to'lovlar	-	-
shu jumladan foyda solig'i	-	-
Mahalliy hamjamiyatlarga investitsiyalar	-	-
3. Taqsimlanmagan iqtisodiy qiymat	- 291,70	- 1 036,17

GRI 201-4

Ta'minot zanjirini boshqarish

Boshqaruv yondashuvi

GRI 3-3

“O'zenergosotish” AJ yetkazib beruvchilar, iste'molchilar, buyurtmachilar va boshqa biznes hamkorlar bilan qonuniylik, shaffoflik, halollik va o'zaro hurmat tamoyillari asosida mas'uliyatli munosabatlarni rivojlantiradi.

Bunda Kompaniya hamkorlikning quyidagi yo'nalishlarini ajratadi:

- o'zining ma'muriy, xo'jalik va boshqa ehtiyojlarini ta'minlash uchun tovarlar, ishlar va xizmatlarni xarid qilish;
- Kompaniya tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar doirasida iste'molchilar, buyurtmachilar va hamkorlar bilan o'zaro hamkorlik qilish;

- elektr energiyasini xarid qilish va sotish, shu jumladan eksport-import operatsiyalari bilan bog'liq operatsion faoliyat.

Tovarlar, ishlar va xizmatlar yetkazib beruvchilari bilan munosabatlar Boshqaruv raisining 2025-yil 12-noyabrda 139-son buyrug'i bilan tasdiqlangan Halol ishbilarmonlik amaliyotlari to'g'risidagi deklaratsiya asosida yo'lga qo'yiladi. Mazkur hujjat Kompaniyaning xarid faoliyatida ochiqlikni ta'minlash, kontragentlarga nisbatan teng munosabatda bo'lish va halol biznes amaliyotlariga rioya etish borasidagi intilishini mustahkamlaydi.

Iste'molchilar, buyurtmachilar va hamkorlar bilan o'zaro munosabatlar Iste'molchilar bilan ishlash deklaratsiyasi bilan tartibga solinadi. Ushbu hujjat Kompaniyaning shaffoflikni ta'minlash, xizmat ko'rsatish sifati, iste'molchilar huquqlariga rioya etish va samarali qayta aloqa kanallarini rivojlantirish bo'yicha majburiyatlarini belgilaydi.

Kompaniyaning o'z ehtiyojlari uchun tovarlar, ishlar va xizmatlarni xarid qilishni tashkil etish va o'tkazish tartibi 2024-yil 12-iyulda 12-son buyruq bilan tasdiqlangan Xarid tartib-taomillarini tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizom bilan tartibga solinadi. Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-aprelda O'RQ-684-son "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonuni hamda davlat xaridlari sohasidagi boshqa normativ-huquqiy hujjatlar asosida ishlab chiqilgan.

Kompaniya xaridlarning raqobatbardoshligi, shaffofligi va iqtisodiy asoslanganligini ta'minlashga, shuningdek manfaatlar to'qnashuvi, korrupsiya holatlari va shartnomaviy majburiyatlarning lozim darajada bajarilmasligi bilan bog'liq xatarlarni kamaytirishga intiladi.

Xaridlar kalendar yil uchun rejalashtiriladi. Tovarlar, ishlar va xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlar Kompaniyaning tarkibiy va hududiy bo'linmalari tomonidan shakllantiriladi, so'ngra xaridlar jadval-rejalarida umumlashtiriladi. Xaridlar jadval-rejalari Davlat xaridlarining maxsus axborot portaliga joylashtiriladi. Davlat xaridlari ro'yxatlari har yarim yillik uchun Kompaniyaning Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

Mazkur yondashuv bo'linmalarning ehtiyojlarini tizimlashtirish, xarid tartib-taomillarini oldindan tashkil etish hamda Kompaniya mablag'laridan foydalanish shaffofligini oshirish imkonini beradi.

Xaridlarni amalga oshirish usullari

Yetkazib beruvchilarni tanlash asosan raqobat asosida amalga oshiriladi. Xarid predmeti, qiymati va murakkabligidan kelib chiqib quyidagi usullar qo'llaniladi:

- elektron do'kon – belgilangan qiymat chegaralari doirasida standart tovarlar, ishlar va xizmatlarni xarid qilish uchun;
- boshlang'ich narxni pasaytirish bo'yicha auktsion – standart xususiyatlarga ega tovarlarni xarid qilishda, sifat ko'rsatkichlarini qiyosiy baholash talab etilmaganda;
- eng yaxshi takliflarni tanlab olish, shu jumladan elektron tanlov – narx bilan bir qatorda sifat, texnik va boshqa ko'rsatkichlarni ham baholash zarur bo'lganda;
- tender, shu jumladan elektron tender – yirik va murakkab xaridlarni amalga oshirish uchun;
- yagona yetkazib beruvchidan xarid qilish – qonunchilikda nazarda tutilgan istisno holatlarda, jumladan bozor muqobilari mavjud bo'lmaganda, tabiiy monopoliyalar subyektlaridan xarid qilishda yoki tartibga solinadigan tariflar qo'llanilganda.

Xarid usuli qonunchilik talablari, taxminiy qiymat, xarid predmetining xususiyatlari va narxdan tashqari mezonlarni baholash zaruratidan kelib chiqib belgilanadi.

Yetkazib beruvchilarni tanlash va tekshirish

Yetkazib beruvchilarni tanlash va tekshirish xarid tartib-taomillari doirasida belgilangan malaka talablariga muvofiqligi nuqtayi nazaridan amalga oshiriladi. Baholash jarayonida ishtirokchilarning zarur texnik, moliyaviy, moddiy va kadrlar resurslariga ega ekanligi, shartnomaviy majburiyatlarni o'z vaqtida va sifatli bajarish qobiliyati, moliyaviy hamda ishbilarmonlik barqarorligi tahlil qilinadi. Bundan tashqari, soliq va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlikning mavjud emasligi, bankrotlik tartib-taomillarining qo'llanilmayotganligi, shuningdek ishtirokchi haqida Insofsiz ijrochilarning yagona reyestrda ma'lumotlar mavjud emasligi ham tekshiriladi.

Malaka talablari xaridning tavsifi va murakkabligidan kelib chiqib belgilanadi hamda shartnomalarning lozim darajada bajarilmasligi bilan bog'liq xatarlarni kamaytirishga qaratilgan.

Xaridlarda korrupsiyaga qarshi kurashish

“O‘zenergosotish” AJda ISO 37001:2016 xalqaro standarti talablariga muvofiq korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi joriy etilgan. Xarid faoliyati doirasida xarid jarayonlarining shaffofligi va xolisligini ta'minlashga qaratilgan kompleks korrupsiyaga qarshi mexanizmlar qo'llaniladi. Xususan, xarid komissiyalari a'zolari xaridlar ishtirokchilari bilan affillanganlik mavjudligi to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkor etishga hamda manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelgan taqdirda o'zini o'zi rad etish to'g'risida ariza berishga majburdir. Affillanganlik holatlari aniqlanganda, elektron tizim tegishli komissiya a'zosining ovozi qabul qilish jarayonidan avtomatik ravishda chiqarib tashlaydi.

Bundan tashqari, xarid tartib-taomillari ishtirokchilari korrupsiyaviy holatlarga yo'l qo'ymaslik to'g'risidagi majburiy bayonotni taqdim etadilar. Xaridlar natijalari Davlat xaridlarining Maxsus axborot portalida e'lon qilinadi, to'lovlar esa faqat Portalga belgilangan tartibda joylashtirilgan va ro'yxatdan o'tkazilgan shartnomalar asosida amalga oshiriladi. Bu esa xarid faoliyati ustidan qo'shimcha nazorat va shaffoflikni ta'minlaydi.

Mazkur choralar yetkazib beruvchilarni tanlash jarayonida korrupsiya, manfaatlar to'qnashuvi, raqobatning cheklanishi va boshqa qonunbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan.

Mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash

Qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda Kompaniya xaridlarni mahalliy ishlab chiqaruvchilar o'rtasida amalga oshirish imkoniyatini hisobga oladi. Zarur miqdordagi mahalliy ishlab chiqaruvchilar mavjud bo'lgan taqdirda, xarid tartib-taomili ushbu ishtirokchilar o'rtasida o'tkazilishi mumkin.

Mahalliy ishlab chiqarilgan mahsulotlarni elektron do'kon orqali xarid qilish uchun “Milliy do'kon” bo'limi nazarda tutilgan. Ushbu mexanizmdan foydalanish mahalliy korxonalarining xaridlardagi ishtirokini kengaytirishga hamda tovarlar, ishlar va xizmatlarning ichki bozorini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Yetkazib beruvchilar bilan mas'uliyatli hamkorlik

Yetkazib beruvchilar bilan o'zaro hamkorlikda “O‘zenergosotish” AJ shaffoflik, halollik va xarid tartib-taomillarining barcha ishtirokchilariga teng munosabatda bo'lish tamoyillariga amal qiladi. Kompaniya xarid shartlari, baholash mezonlari va xarid predmetiga qo'yiladigan talablar to'g'risida to'liq va ishonchli axborotni taqdim etishni, shuningdek arizalarni xolis va beg'araz ko'rib chiqishni ta'minlaydi. Xaridlar ishtirokchilari tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar faqat xaridlarni amalga oshirish maqsadlarida foydalaniladi va belgilangan maxfiylik talablari asosida himoya qilinadi. Yetkazib beruvchilarga xarid hujjatlari va tartib-taomillari bo'yicha zarur tushuntirishlarni olish huquqi, shuningdek xarid natijalarini belgilangan tartibda shikoyat qilish imkoniyati ta'minlanadi.

Yetkazib beruvchilarning barcha murojaatlari va e'tirozlari o'z vaqtida hamda amaldagi ichki tartib-taomillarga muvofiq ko'rib chiqiladi. Muzokaralar o'tkazish va shartnomalar tuzish jarayonida Kompaniya barcha tomonlarning qonuniy manfaatlariga rioya qiladi hamda uzoq muddatli va o'zaro manfaatli hamkorlik munosabatlarini rivojlantirishga intiladi. Xarid va shartnomaviy jarayonlarning halol tashkil etilishi huquqiy, moliyaviy va reputatsion xatarlarni kamaytirishga, shuningdek yetkazib beruvchilar bilan o'zaro munosabatlarda ishonch va barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Iste'molchilar bilan mas'uliyatli hamkorlik

Iste'molchilar, buyurtmachilar va hamkorlar bilan munosabatlar Iste'molchilar bilan ishlash deklaratsiyasi asosida yo'lga qo'yiladi. Mazkur hujjat “O‘zenergosotish” AJning qabul qilingan majburiyatlarga rioya etish, ko'rsatilayotgan xizmatlar shaffofligini oshirish va iste'molchilarning qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha mas'uliyatini belgilaydi.

Kompaniyaning yondashuvi ISO 26000 standartida nazarda tutilgan ijtimoiy mas'uliyat tamoyillariga asoslanadi. Ular quyidagilarni o'z ichiga oladi: hisobdorlik, shaffoflik, etik xulq-atvor, qonunchilik talablariga rioya etish, iste'molchilar manfaatlarini hurmat qilish, inson huquqlariga hurmat bilan yondashish.

O'z vakolatlari doirasida Kompaniya quyidagi majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi:

- ko'rsatilayotgan xizmatlarning ishonchligini ta'minlashga va iste'molchilarga ta'sir qiluvchi uzilishlar hamda kamchiliklarni minimallashtirishga ko'maklashish;
- tariflar, hisob-kitoblar tartibi, xizmat ko'rsatish shartlari va Kompaniya faoliyatiga oid boshqa masalalar yuzasidan aniq hamda ishonchli ma'lumotlarni taqdim etish;
- murojaatlar, shikoyatlar va e'tirozlarni o'z vaqtida hamda xolis ko'rib chiqishni ta'minlash;
- kamsituvchi munosabat, yashirin to'lovlar, mansab vakolatlarini suiiste'mol qilish va boshqa insofsiz amaliyotlarga yo'l qo'ymaslik;
- iste'molchilarning shaxsiy ma'lumotlari maxfiyligi va himoyasini ta'minlash;
- qulay va ochiq qayta aloqa kanallarini qo'llab-quvvatlash;
- iste'molchilar qoniqish darajasini baholash va uning natijalarini jarayonlarni takomillashtirishda inobatga olish;
- energiya tejamkorligi va elektr energiyasidan xavfsiz foydalanish masalalari bo'yicha iste'molchilarni xabardor qilishga ko'maklashish.

Mazkur tamoyillarni amalga oshirish maqsadida Kompaniya iste'molchilar bilan mas'uliyatli hamkorlik kodeksini rivojlantirishni, mas'ul tarkibiy bo'linmani belgilashni, xodimlarni muntazam o'qitishni hamda turli kommunikatsiya kanallaridan, jumladan koll-markaz, rasmiy veb-sayt, shaxsiy kabinet va chat-botlardan foydalanishni nazarda tutadi.

Kompaniya rahbariyati iste'molchilar oldidagi majburiyatlarning bajarilishini muntazam ravishda tahlil qiladi, murojaatlar va qayta aloqa natijalarini ko'rib chiqadi hamda xizmat ko'rsatish sifati va shaffofligini yanada oshirish bo'yicha tegishli chora-tadbirlarni belgilaydi.

Korporativ boshqaruv

Barqaror rivojlanishni boshqarish

GRI 3-3, 2-12, 2-13

2025-yilda “O‘zenergosotish” AJ barqaror rivojlanish masalalari va nomoliyaviy axborotni oshkor etish bo‘yicha tizimli yondashuvni shakllantirishni boshladi. Barqaror rivojlanish bo‘yicha birinchi hisobotning tayyorlanishi Kompaniya faoliyati shaffofligini oshirish va korporativ boshqaruv amaliyotlarini zamonaviy xalqaro talablarga muvofiq rivojlantirish yo‘lidagi muhim bosqich bo‘ldi.

Hisobot davri yakuniga ko‘ra, Kompaniyada barqaror rivojlanish masalalarini boshqarish uchun mas‘ul bo‘lgan alohida tashkiliy tuzilma shakllantirilmagan bo‘lib, ESG kun tartibi shakllanish bosqichida edi. Shu bilan birga, barqaror rivojlanishning ayrim elementlari Jamiyat faoliyatiga amaldagi korporativ boshqaruv, risklarni boshqarish, mehnatni muhofaza qilish, kadrlarni boshqarish, ishbilarmonlik etikasi va korrupsiyaga qarshi kurashish tizimlari orqali integratsiya qilingan.

Kompaniya faoliyatiga umumiy rahbarlik korporativ boshqaruv organlari – Yagona aksiyador, Kuzatuv kengashi va Boshqaruv tomonidan amalga oshiriladi. Barqaror rivojlanish bilan bog‘liq masalalar strategik rivojlanish, risklarni boshqarish, kadrlar siyosati, mehnatni muhofaza qilish, ichki nazorat va qonunchilik talablariga rioya etishni ta‘minlash bo‘yicha qarorlar qabul qilish jarayonida ularning vakolatlari doirasida ko‘rib chiqiladi.

Barqaror rivojlanishni boshqarishning muhim elementlaridan biri Kompaniyada faoliyat yuritayotgan va xalqaro ISO standartlari asosida tashkil etilgan Integratsiyalashgan menejment tizimi (IMT) hisoblanadi. Mazkur tizim biznes jarayonlarini boshqarish, ichki nazoratni amalga oshirish, xizmatlar sifati va faoliyatni muntazam takomillashtirish bo‘yicha yagona yondashuvni ta‘minlaydi.

“O‘zenergosotish” AJ o‘z faoliyatida quyidagi xalqaro standartlar talablariga amal qiladi:

- ISO 9001:2015 – “Sifat menejmenti tizimi”;
- ISO 14001:2015 – “Ekologik menejment tizimi”;
- ISO 26000:2010 – “Ijtimoiy mas‘uliyat bo‘yicha qo‘llanma”;
- ISO 31000:2018 – “Risklarni boshqarish tizimi”
- ISO 37001:2016 – “Korrupsiyaga qarshi menejment tizimi”
- ISO 45001:2018 – “Mehnatni muhofaza qilish va sanoat xavfsizligi menejmenti tizimi”;
- ISO 50001:2018 – “Energetik menejment tizimi”;
- manfaatdor tomonlar talablariga rioya etish va faoliyat samaradorligini ta‘minlashga qaratilgan boshqa ichki reglamentlar va tartib-taomillar.

Integratsiyalashgan menejment tamoyillarini qo‘llash jarayonlar samaradorligini oshirish, ichki nazorat tizimini mustahkamlash, risklarni boshqarishni takomillashtirish va uzluksiz takomillashtirish madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

2026-yilda barqaror rivojlanish tizimini rivojlantirish

Keyingi rivojlanish bosqichi sifatida 2026-yilda Kompaniyaning asosiy tarkibiy bo‘linmalari vakillari ishtirokida barqaror rivojlanish bo‘yicha ishchi guruh tashkil etilishi rejalashtirilgan. Mazkur faoliyatni muvofiqlashtirish vazifasini Boshqaruv raisining o‘rinbosariga yuklash nazarda tutilmoqda, bu esa barqaror rivojlanish masalalarini strategik va operatsion boshqaruv jarayonlariga integratsiya qilish imkonini beradi.

Shuningdek, nomoliyaviy ma‘lumotlarni yig‘ish va verifikatsiya qilish bo‘yicha ichki tartib-taomillarni yanada rivojlantirish, barqaror rivojlanish ko‘rsatkichlari tizimini takomillashtirish hamda eng ilg‘or xalqaro amaliyotlarga muvofiq ESG axborotlarini oshkor etish sifatini oshirish rejalashtirilgan.

O‘zbekiston Respublikasining korporativ hisobotlilik sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlari talablarini bajarishga alohida e‘tibor qaratiladi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan xalqaro moliyaviy hisobot standartlarini keng joriy etish va nomoliyaviy axborotni oshkor

etish amaliyotini rivojlantirish bo'yicha belgilangan vazifalarni amalga oshirish ko'zda tutilgan. O'rta muddatli istiqbolda Kompaniya axborotni IFRS Sustainability Disclosure Standards (IFRS S1 va IFRS S2) xalqaro standartlariga muvofiq oshkor etish imkoniyatini ko'rib chiqmoqda. Bu esa taqdim etilayotgan ma'lumotlarning xalqaro amaliyotlar bilan taqqoslanishini ta'minlash, investorlar, davlat organlari va boshqa manfaatdor tomonlar uchun faoliyat shaffofligini yanada oshirish imkonini beradi.

Barqaror rivojlanishni boshqarishning rasmiylashtirilgan tizimini yaratish "O'zenergosotish" AJning yaqin yillardagi ustuvor rivojlanish yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu korporativ boshqaruvni yanada takomillashtirishga, operatsion barqarorlikni oshirishga va manfaatdor tomonlarning ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi.

BMT Barqaror rivojlanish maqsadlariga qo'shilayotgan hissa

"O'zenergosotish" AJ O'zbekiston Respublikasining 2030-yilgacha bo'lgan davr uchun barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarini amalga oshirishni qo'llab-quvvatlaydi hamda BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlarini (BRM) o'z faoliyatini amalga oshirishda muhim yo'nalish sifatida ko'rib chiqadi.

Ustuvor BRMlarni aniqlash Kompaniyaning biznes modeli, O'zbekiston Respublikasi elektr energiyasi bozoridagi o'rni hamda manfaatdor tomonlarga ko'rsatayotgan ta'siri xususiyatlaridan kelib chiqib amalga oshirildi.

Elektr energiyasining markaziy xaridori sifatida "O'zenergosotish" AJ elektr energiyasini markazlashtirilgan xarid qilish va realizatsiya qilish mexanizmlarining samarali faoliyat yuritishini ta'minlaydi, elektr energiyasi bozorida raqobat munosabatlarini rivojlantirishga, iste'molchilarni energiya bilan ta'minlash ishonchligini oshirishga hamda davlat energetika siyosatini amalga oshirishga ko'maklashadi. Kompaniya faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi Barqaror rivojlanish maqsadlari eng dolzarb hisoblanadi:

BRM 5. Gender tengligi

Kompaniya bandlik, kasbiy rivojlanish va martaba o'sishi sohalarida ayollar va erkaklar uchun teng imkoniyatlarni ta'minlash orqali BRM 5ga erishishga hissa qo'shadi. Ayollar ham ijrochi, ham rahbarlik lavozimlarida faoliyat yuritib, Kompaniya faoliyati va boshqaruvida ishtirok etadilar.

BRM 7. Arzon va toza energiya

Kompaniya elektr energiyasi bozorining samarali faoliyat yuritishini ta'minlash, ishlab chiqaruvchilar bilan elektr energiyasini oldi-sotdi qilish shartnomalarini tuzish hamda yangi ishlab chiqarish quvvatlarini, jumladan qayta tiklanuvchi energiya manbalari obyektlarini integratsiya qilish uchun sharoitlar yaratish orqali BRM 7ga erishishga ko'maklashadi.

BRM 8. Munosib mehnat va iqtisodiy o'sish

Kompaniya munosib mehnat sharoitlarini yaratishni, xodimlarning kasbiy salohiyatini rivojlantirishni hamda kamsitmaslik va teng imkoniyatlar tamoyillariga rioya etilishini ta'minlaydi.

BRM 9. Sanoatlashtirish, innovatsiyalar va infratuzilma

Kompaniya faoliyati elektroenergetika tarmog'ining zamonaviy bozor modelini rivojlantirishga hamda O'zbekiston Respublikasi energetika infratuzilmasining samarali faoliyat yuritishini oshirishga qaratilgan.

BRM 16. Tinchlik, adolat va samarali institutlar

Kompaniya korporativ boshqaruv, risklarni boshqarish, ishbilarmonlik etikasi va korrupsiyaga qarshi kurashish masalalariga alohida e'tibor qaratadi hamda faoliyatning shaffofligi va hisobdorlik tamoyillariga rioya etilishini ta'minlaydi.

BRM 17. Barqaror rivojlanish manfaatlari yo'lida hamkorlik

"O'zenergosotish" AJ O'zbekiston Respublikasi elektroenergetika tarmog'ini isloh qilish vazifalarini amalga oshirish maqsadida davlat organlari, elektr energiyasi ishlab chiqaruvchilari, moliyaviy institutlar va bozorning boshqa ishtirokchilari bilan hamkorlik qiladi.

3-jadval – 2025-yilda BRMga erishishga qo‘shilgan hissa

Muhim BRMlar	Tegishli BRM vazifalari	Kompaniyaning 2025-yildagi natijalari
	5.1. Gender kamsitishining barcha shakllarini bartaraf etish 5.5. Qarorlar qabul qilishning barcha darajalarida ayollarning to‘liq va samarali ishtirokini hamda yetakchilik uchun teng imkoniyatlarni ta‘minlash	• Ayollar ulushi xodimlarning umumiy sonida 18,6%ni tashkil etdi – 86 nafar xodimdan 16 nafari ayollardir. • Kompaniyada doimiy asosda ishlovchi barcha ayollar jamoa shartnomasi va kasaba uyushmasi a‘zoligi bilan qamrab olingan. • Ijrochi lavozimlarda ayollar va erkaklarning lavozim maoshlari nisbati 100,7%ni tashkil etdi, bu esa mehnatga haq to‘lashda amalda tenglik mavjudligini ko‘rsatadi. • Kuzatuv kengashi tarkibidagi 5 nafar a‘zodan 1 nafari ayol bo‘lib, bu umumiy tarkibning 20%ini tashkil etdi. • 2025-yilda gender belgisi bo‘yicha kamsitish holatlari qayd etilmadi.
	7.1. Barchaning arzon, ishonchli va zamonaviy energetika xizmatlaridan foydalanishini ta‘minlash 7.2 2030-yilgacha energiya balansida qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushini sezilarli darajada oshirish	• Kompaniya elektr energiyasini 14 ta hududiy elektr tarmoqlari korxonalariga va yirik iste‘molchilarga tartibga solinadigan tariflar bo‘yicha yetkazib berdi. • DXSh loyihalari doirasida xarid qilingan elektr energiyasi portfelida quyosh va shamol elektr stansiyalarining ulushi 16,9%ni tashkil etdi. • Kompaniyada ISO 50001:2018 talablariga muvofiq energetik menejment tizimi joriy etilgan. • 2026-yil yanvar oyida Kompaniya CERT International tomonidan o‘tkazilgan energetik menejment tizimi sertifikatlash auditining birinchi bosqichidan muvaffaqiyatli o‘tdi. • ISO 50001:2018 energetik menejment tizimi amaliyotga joriy etildi.

	8.5 2030-yilgacha barcha ayollar va erkaklar, shu jumladan yoshlar va nogironligi bo'lgan shaxslar uchun to'liq va samarali bandlikni, munosib mehnatni hamda teng qiymatdagi mehnat uchun teng haq to'lashni ta'minlash	• Xodimlar soni 48,3%ga oshib, 2025-yil yakunida 86 nafarni tashkil etdi. • 2025-yil davomida Kompaniyaga 35 nafar yangi xodim ishga qabul qilindi. • Xodimlarni o'qitish va malakasini oshirish xarajatlari 9,5 mln so'mdan 93,0 mln so'mgacha oshdi. • Jamoa shartnomasi doirasida umumiy qiymati 287,5 mln so'm bo'lgan 12 ta tadbir amalga oshirildi. • 2025-yilda ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar qayd etilmadi.
	9.1. Sifatli, ishonchli va barqaror infratuzilmani rivojlantirish	• 2024–2025-yillarda Kompaniya elektr energiyasi bozorini isloh qilishning birinchi bosqichi doirasida, tartibga solinadigan tariflar sharoitida markaziy xaridor modeli asosida faoliyat yuritdi. • 2025-yil oxirida moliyaviy, xarid, kadrlar va ma'muriy jarayonlarni avtomatlashtirish uchun korporativ ERP tizimini joriy etish loyihasi boshlandi. • Kompaniyada antivirus himoyasi vositalari, tarmoqlararo ekran (firewall) va Active Directory domen infratuzilmasi joriy etildi. • Axborot xavfsizligi masalalarini muvofiqlashtirish uchun axborot xavfsizligi bo'yicha bosh mutaxassis tayinlandi.
	16.5. Korrupsiya va poraxo'rlik ko'lamini sezilarli darajada kamaytirish 16.6. Barcha darajalarda samarali, hisobdor va shaffof institutlarni shakllantirish	• Kompaniyaning korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi ISO 37001:2016 talablari asosida tashkil etilgan. • O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan E-Anticor.uz platformasi orqali o'tkazilgan reyting baholash qilindi. • 2025-yilda korrupsiya, firibgarlik va manfaatlar to'qnashuvining tasdiqlangan holatlari aniqlanmadi. • Kompaniya xodimlari O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish organlari akademiyalarida korrupsiyaga qarshi qonunchilik va ishbilarmonlik etikasi masalalari bo'yicha o'qitildi.



17.17. Davlat va xususiy sektor o'rtasidagi samarali hamkorlikni rag'batlantirish

- 2025-yil 1-yanvardan boshlab Kompaniya DXSh loyihalari doirasidagi xususiy generatsiya obyektlari (IES, QES va ShES) bilan tuzilgan shartnomalar bo'yicha funksiyalarni o'z zimmasiga oldi va elektroenergetika tarmog'ida davlat hamda xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikning kengayishiga ko'maklashdi.
- Yetkazib beruvchilar, hamkorlar va mijozlar bilan o'zaro munosabatlarning asosiy tamoyillarini belgilovchi Halol ishbilarmonlik amaliyotlari deklaratsiyasi hamda Iste'molchilar bilan ishlash deklaratsiyasi tasdiqlandi.

Korporativ boshqaruv tuzilmasi

GRI 2-9

“O‘zenergosotish” AJning korporativ boshqaruv tizimi barqaror rivojlanishni ta‘minlash, faoliyat samaradorligini oshirish, Yagona aksiyador va boshqa manfaatdor tomonlarning manfaatlarini himoya qilish, shuningdek boshqaruv organlari faoliyatining shaffofligi va hisobdorligini ta‘minlashga qaratilgan.

Kompaniyaning korporativ boshqaruv O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi, Korporativ boshqaruv kodeksi, Ustav hamda ichki normativ hujjatlarga muvofiq amalga oshiriladi.

Korporativ boshqaruv tizimi qonuniylik, mas‘uliyat, shaffoflik, hisobdorlik, halollik va adolatlilik tamoyillariga asoslanadi. Mazkur tamoyillarni amalda qo‘llash davlat, iste‘molchilar, biznes hamkorlar, xodimlar va boshqa manfaatdor tomonlar ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Kompaniyaning korporativ boshqaruv tizimi uchta asosiy boshqaruv organining o‘zaro hamkorligi asosida tashkil etilgan:

- **Oliy boshqaruv organi** – O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi timsolidagi Yagona aksiyador bo‘lib, Kompaniya faoliyatining strategik yo‘nalishlarini belgilaydi.
- **Kuzatuv kengashi** – Kompaniya faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi, rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlarini shakllantiradi hamda boshqaruv samaradorligi va nazorat natijalari uchun aksiyador oldida javobgar hisoblanadi.
- **Ijroiya organi** – “O‘zenergosotish” AJ Boshqaruv bo‘lib, kundalik operatsion boshqaruvni amalga oshiradi, tasdiqlangan strategiya va ijrosi hamda aksiyador va Kuzatuv kengashi tomonidan belgilangan vazifalarning bajarilishi uchun mas‘uldir.

GRI 2-18

“O‘zenergosotish” AJ O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablari va Korporativ boshqaruv kodeksi tavsiyalariga muvofiq har yili korporativ boshqaruv tizimining mustaqil baholashidan o‘tadi. 2025-yil yakunlari bo‘yicha o‘tkazilgan baholash natijalariga ko‘ra, Kompaniyaning korporativ boshqaruv tizimi 699 ball to‘pladi va “yuqori daraja” sifatida baholandi.

Mustaqil baholash natijalari korporativ boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish, faoliyat shaffofligini oshirish va boshqaruv organlari samaradorligini kuchaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqishda foydalaniladi.

Hisobot davrida Kuzatuv kengashi faoliyati samaradorligini alohida baholash amalga oshirilmagan.

Korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish

Operatsion samaradorlikni oshirish va korporativ boshqaruvni takomillashtirishning muhim yo‘nalishlaridan biri biznes-jarayonlarni raqamli transformatsiya qilish hisoblanadi. 2025-yil oxirida “O‘zenergosotish” AJ Kompaniyaning asosiy biznes-jarayonlarini avtomatlashtirishga qaratilgan korporativ ERP tizimini joriy etish loyihasini amalga oshirishni boshladi.

Mazkur loyiha moliyaviy, xarid, kadrlar va ma‘muriy jarayonlarni boshqarish uchun yagona raqamli muhitni yaratish, shuningdek boshqaruv hisobotlari va ichki nazorat sifatini oshirishni nazarda tutadi. ERP tizimining joriy etilishi biznes-jarayonlar shaffofligini yanada oshirish, boshqaruv qarorlarini qabul qilish tezligini kuchaytirish hamda ma‘lumotlarni qo‘lda qayta ishlash hajmini kamaytirish imkonini beradi.

Tizimni joriy etishning asosiy bosqichlarini yakunlash va muhim jarayonlarni raqamli formatga o‘tkazish 2026-yilga rejalashtirilgan. Kompaniya ushbu loyihani korporativ boshqaruv tizimi va risklarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirishning, shuningdek moliyaviy va nomoliyaviy hisobotlarni shakllantirishda raqamli vositalardan kengroq foydalanishga tayyorgarlik ko‘rishning muhim elementi sifatida ko‘rib chiqadi.

Yagona aksiyador

GRI 2-9

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-sentyabrdagi PF–166-son “Energetika tarmog'ini isloh qilishning navbatdagi bosqichini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoniga muvofiq, “O'zenergosotish” AJning Yagona aksiyadori vakolatlari davlat nomidan O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

“O'zenergosotish” AJ Yagona aksiyadorining vakolatlariga Kompaniya faoliyatining strategik rivojlanishi va korporativ boshqaruv tizimini belgilovchi eng muhim masalalar bo'yicha qarorlar qabul qilish kiradi.

Xususan, Yagona aksiyador: “O'zenergosotish” AJ Ustavini tasdiqlaydi va unga o'zgartirishlar kiritadi, kompaniyani qayta tashkil etish yoki tugatish to'g'risida qaror qabul qiladi, Kuzatuv kengashining son tarkibini belgilaydi, Kuzatuv kengashi a'zolarini saylaydi va ularning vakolatlarini muddatidan oldin tugatadi.

Bundan tashqari, Yagona aksiyadorning vakolatlariga quyidagilar kiradi: o'rta va uzoq muddatli istiqbolga mo'ljallangan rivojlanish strategiyasini tasdiqlash, Jamiyatning tashkiliy tuzilmasini ko'rib chiqish va tasdiqlash, foydani taqsimlash va zararlarni qoplash bo'yicha qarorlar qabul qilish, dividend siyosatini belgilash, mustaqil auditorlik tashkilotini tanlash, yirik bitimlar va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan boshqa masalalarni ma'qullash.

Yagona aksiyador vakolatlarining amalga oshirilishi “O'zenergosotish” AJ faoliyatining elektroenergetika tarmog'ini rivojlantirish bo'yicha davlat ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligini ta'minlaydi, korporativ boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qiladi hamda iste'molchilarni energiya bilan ta'minlash ishonchligini qo'llab-quvvatlaydi.

“O'zenergosotish” AJ oilaviy korxona hisoblanmaydi va hech qachon oilaviy korxona bo'lmagan. Mulkchilik va boshqaruv tuzilmasi mutlaqo institutsional xususiyatga ega. 2025-yil 31-dekabr holatiga ko'ra, “O'zenergosotish” AJ aksiyalarining 100 foizi O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligiga tegishli bo'lib, minoritar aksiyadorlar mavjud emas edi. Mazkur mulkchilik tuzilmasi qarorlar qabul qilish jarayonining shaffofligini ta'minlaydi hamda Kompaniya faoliyatiga xususiy yoki oilaviy manfaatlarning ta'sir ko'rsatishini istisno etadi.

Kuzatuv kengashi

GRI 2-9, 2-10

Kompaniyaning Kuzatuv kengashi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Ustaviga muvofiq Yagona aksiyador vakolatiga kiritilgan masalalardan tashqari, Kompaniya faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi. Kengash strategik boshqaruvni ta'minlaydi, Boshqaruv faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiradi hamda korporativ boshqaruv tamoyillariga rioya etilishini nazorat qiladi.

Kuzatuv kengashining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- Jamiyatni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash va strategiya amalga oshirilishi ustidan nazoratni ta'minlash;
- aksiyadorlar tarkibi kengaygan taqdirda yillik va navbatdan tashqari aksiyadorlar yig'ilishlarini chaqirish hamda kun tartibini shakllantirish;
- mol-mulkning bozor qiymatini baholashni tashkil etish va yirik bitimlarni kelishish;
- yillik biznes-rejani tasdiqlash va uning ijrosi ustidan nazoratni amalga oshirish;
- investitsiyalarni jalb qilish, obyektlarni qurish va sotib olish, sho'ba va qaram jamiyatlarni tashkil etish masalalarini ko'rib chiqish;
- ichki audit faoliyatini tashkil etish va nazorat qilish, uning hisobotlarini eshitish;
- auditorlik tashkilotini tanlash va tasdiqlash, auditorlik xizmatlari uchun haq miqdorini belgilash;
- dividend siyosati bo'yicha tavsiyalar tayyorlash;

- korporativ boshqaruv sohasidagi yillik biznes-reja va ichki nizomlarni tasdiqlash;
- Kuzatuv kengashi huzurida qo'mitalar tashkil etish.

“O‘zenergosotish” AJ Kuzatuv kengashi a‘zolari Yagona aksiyador tomonidan uch yil muddatga saylanadi va O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi, Jamiyat Ustavi hamda ichki normativ hujjatlar bilan belgilangan vakolatlar doirasida Jamiyat faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi.

Hisobot davri davomida Kompaniya faoliyati bilan bog‘liq masalalarni ko‘rib chiqishda zarur tarmoq, moliyaviy va huquqiy ekspertizani ta‘minlash hamda korporativ boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish maqsadida Kuzatuv kengashi tarkibida o‘zgarishlar amalga oshirildi.

Kuzatuv kengashining dastlabki tarkibi Yagona aksiyadorning 2024-yil 20-iyundagi 5-son qaroriga muvofiq saylangan. Uning tarkibiga O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi hamda O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi vakillari kiritilgan.

Yagona aksiyadorning 2025-yil 5-martdagi 2-son qaroriga muvofiq Kuzatuv kengashi tarkibiga o‘zgartirishlar kiritildi. Xususan, Kuzatuv kengashi a‘zosi H.B. Mustafayevning vakolatlari tugatildi va uning o‘rniga O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi boshqarma boshlig‘i B.E. Jo‘rayev Kuzatuv kengashi a‘zosi etib saylandi. Shuningdek, kadrlar tarkibidagi o‘zgarishlar munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi departament direktori lavozimiga tayinlangan A.B. Nazarovning lavozimi bo‘yicha ma‘lumotlar yangilandi.

2025-yil 31-dekabr holatiga ko‘ra, “O‘zenergosotish” AJ Kuzatuv kengashi besh nafar a‘zodan iborat bo‘lib, ularning barchasi ijro etuvchi bo‘lmagan direktorlar hisoblanadi hamda davlat organlari vakillaridir. Kuzatuv kengashi tarkibida mustaqil direktorlar mavjud emas edi.

Mustaqil direktorlar mavjud bo‘lmaganiga qaramay, Kuzatuv kengashi a‘zolari o‘z vakolatlarini mustaqil ravishda amalga oshiradilar va qarorlarni Jamiyat manfaatlaridan kelib chiqib qabul qiladilar. Bu strategik rivojlanish, moliyaviy-xo‘jalik faoliyati, investitsiya siyosati va korporativ boshqaruv masalalarining xolis ko‘rib chiqilishiga xizmat qiladi.

2025-yilda Kuzatuv kengashi tarkibida bir nafar ayol vakil faoliyat yuritgan bo‘lib, bu Kengashning umumiy tarkibining 20 foizini tashkil etdi. Kompaniya gender xilma-xilligini korporativ boshqaruv sifatini oshirishga xizmat qiluvchi hamda yanada muvozanatli va puxta boshqaruv qarorlarini qabul qilishga ko‘maklashuvchi muhim omillardan biri sifatida baholaydi.

4-jadval – 2025-yil 31-dekabr holatiga ko‘ra Kuzatuv kengashi tarkibi

GRI 2-11

F.I.Sh.	Lavozimi	Ish joyi
Mamadaminov Umid Mahmudovich	Kuzatuv kengashi raisi	O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi – Vazir o‘rinbosari
Karimov Alisher Nishanovich	Kuzatuv kengashi a‘zosi	O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi
Nazarov Azizxon Bahrom o‘g‘li	Kuzatuv kengashi a‘zosi	O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi – Departament direktori
Jo‘rayev Bahodir Ermatovich	Kuzatuv kengashi a‘zosi	O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi – Boshqarma boshlig‘i
Ravshanova Orzigul Inoyat qizi	Kuzatuv kengashi a‘zosi	O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi – Bo‘lim boshlig‘i

Kuzatuv kengashi yig‘ilishlari kamida har chorakda bir marotaba o‘tkaziladi. Yig‘ilishlarda biznes-rejaning bajarilishi, investitsiya loyihalarining amalga oshirilishi, rivojlanish strategiyasi ijrosi, debitorlik va kreditorlik qarzdorligi holati, shuningdek ichki audit hisobotlari ko‘rib chiqiladi. Qarorlar ovozlarning ko‘pchiligi bilan qabul qilinadi. Ovozlar teng bo‘lgan taqdirda Kuzatuv kengashi raisining ovozi hal qiluvchi hisoblanadi. Yig‘ilishlar bevosita ishtirok etish yoki masofaviy formatda o‘tkazilishi mumkin.

2025-yil davomida Kuzatuv kengashining 14 ta yig‘ilishi o‘tkazildi. Ularda 43 ta masala, jumladan strategik rivojlanish, biznes-rejaning ijrosi, investitsiya faoliyati, ichki nazorat va korporativ boshqaruv bilan bog‘liq masalalar ko‘rib chiqildi.

Kuzatuv kengashi huzuridagi qo'mitalar

GRI 2-12, 2-13

Kuzatuv kengashi faoliyati samaradorligini oshirish va korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish maqsadida "O'zenergosotish" AJda muhim masalalarni dastlabki ko'rib chiqish hamda Kuzatuv kengashi tomonidan qarorlar qabul qilinishi uchun tavsiyalar tayyorlashni ta'minlovchi ixtisoslashtirilgan qo'mitalar faoliyat yuritadi.

Qo'mitalar faoliyati Jamiyat Kuzatuv kengashi qarorlari bilan tasdiqlangan tegishli nizomlar asosida amalga oshiriladi hamda strategik boshqaruv sifatini oshirish, ichki nazorat samaradorligini kuchaytirish, moliyaviy hisobotlarning shaffofligini ta'minlash va Kompaniya faoliyatining barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan.

2025-yilda Audit qo'mitasi hamda Strategiya va investitsiyalar qo'mitasi "O'zenergosotish" AJ Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan nizomlarga muvofiq faoliyat yuritdi. Mazkur qo'mitalarning tashkil etilishi korporativ boshqaruv tizimini yanada rivojlantirishning muhim bosqichi bo'lib, Kuzatuv kengashi faoliyati samaradorligini oshirish, Jamiyat faoliyati ustidan nazoratni kuchaytirish, shuningdek strategik rejalashtirish, risklarni boshqarish va ichki nazorat jarayonlarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Qo'mitalar Kuzatuv kengashi vakolatiga kiruvchi masalalarni dastlabki ko'rib chiqadi hamda Kompaniya faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqadi. Bunday yondashuv boshqaruv qarorlari sifatini oshirishga, korporativ boshqaruvning shaffofligini mustahkamlashga va strategik hamda moliyaviy nazorat bo'yicha ilg'or amaliyotlarni joriy etishga ko'maklashadi.

Audit qo'mitasi

GRI 2-12, 2-13

Audit qo'mitasi Kuzatuv kengashining maslahat organi hisoblanib, moliyaviy hisobotlar, ichki va tashqi audit, risklarni boshqarish hamda ichki nazorat sohasidagi masalalarni dastlabki ko'rib chiqishni ta'minlaydi. Qo'mita faoliyatining asosiy maqsadi Kuzatuv kengashining nazorat funksiyalari samaradorligini oshirish va Jamiyatning moliyaviy-xo'jalik faoliyati shaffofligini ta'minlashdan iborat.

Qo'mita o'z faoliyati doirasida quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

- Jamiyat moliyaviy hisobotlarining to'liqligi, ishonchliligi va sifatini nazorat qilish;
- hisob siyosati hamda buxgalteriya hisobi bilan bog'liq muhim masalalarni tahlil qilish;
- faoliyat samaradorligining asosiy ko'rsatkichlari bo'yicha hisobotlarni ko'rib chiqish;
- Ichki audit xizmati faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirish va uning samaradorligini baholash;
- ichki auditning yillik rejasini hamda uning ijrosi natijalarini ko'rib chiqish;
- ichki audit xodimlarini tayinlash va ularning faoliyatini baholash masalalarida ishtirok etish;
- tashqi auditorning mustaqilligini baholash va uni tanlash bo'yicha tavsiyalar tayyorlash;
- tashqi audit natijalari va auditorlik xulosalarini dastlabki ko'rib chiqish;
- mustaqil auditor tavsiyalarining bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshirish;
- manfaatlar to'qnashuvini boshqarish va ichki nazorat tizimining faoliyat yuritishi bilan bog'liq masalalarni ko'rib chiqish.

Audit qo'mitasi Kuzatuv kengashi, Ichki audit xizmati, tashqi auditorlar hamda Jamiyatning ijroiya organi bilan muntazam hamkorlik qiladi. Bu Kompaniya faoliyati shaffofligini oshirishga va korporativ boshqaruv tizimini mustahkamlashga xizmat qiladi. Har yil yakunida Qo'mita o'z faoliyati va ishlab chiqilgan tavsiyalar bo'yicha hisobotni Kuzatuv kengashiga taqdim etadi.

Audit qo'mitasi tarkibi

№	F.I.Sh.	Lavozimi
---	---------	----------

1	Nazarov Azizxon Bahrom o'g'li	Qo'mita raisi
2	Jo'rayev Bahodir Ermatovich	Qo'mita a'zosi
3.	Ravshanova Orzigul Inoyat qizi	Qo'mita a'zosi

Strategiya va investitsiyalar qo'mitasi

GRI 2-12, 2-13

Strategiya va investitsiyalar qo'mitasi Kuzatuv kengashi huzuridagi maslahat organi bo'lib, Jamiyatning uzoq muddatli rivojlanishi bilan bog'liq masalalarni dastlabki ko'rib chiqish hamda strategik qarorlar yuzasidan tavsiyalar tayyorlash maqsadida tashkil etilgan. Qo'mita Jamiyat va Yagona aksiyador manfaatlari yo'lida faoliyat yuritib, Kompaniya faoliyati samaradorligini oshirishga, investitsiyaviy jozibadorligini kuchaytirishga va barqaror rivojlanishiga ko'maklashadi.

Qo'mita faoliyatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- Jamiyatning rivojlanish strategiyasi, rivojlanish dasturlari va istiqbolli faoliyat yo'nalishlarini ko'rib chiqish hamda tahlil qilish;
- strategik tashabbuslar va investitsiya loyihalarining amalga oshirilishi ustidan monitoring olib borish;
- yillik biznes-rejani va uning ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni ko'rib chiqish hamda kelishish;
- tashqi moliyalashtirish dasturlari va investitsiyaviy tashabbuslarni tahlil qilish;
- Jamiyatning risklar xaritasini ko'rib chiqish;
- dividend siyosati, foydani taqsimlash va zaxiralardan foydalanish bo'yicha tavsiyalar tayyorlash;
- sho'ba korxonalar, filiallar va vakolatxonalar tashkil etish masalalarini ko'rib chiqish;
- yirik bitimlar va noprofil aktivlarni boshqarish bo'yicha tavsiyalar tayyorlash;
- Jamiyatning boshqa tashkilotlar va investitsiya loyihalaridagi ishtiroki bilan bog'liq masalalarni ko'rib chiqish.

Nizomga muvofiq, Qo'mita yig'ilishlari yiliga kamida to'rt marotaba o'tkaziladi va uning qarorlari Kuzatuv kengashi uchun tavsiyalar shaklida rasmiylashtiriladi. Qo'mita ijroiya organidan, Jamiyatning tarkibiy bo'linmalaridan zarur ma'lumotlarni talab qilish, shuningdek ixtisoslashtirilgan masalalarni ko'rib chiqish uchun tashqi ekspertlar va maslahatchilarni jalb etish huquqiga ega.

Strategiya va investitsiyalar qo'mitasi tarkibi

№	F.I.Sh.	Lavozimi
1	Mamadaminov Umid Mahmudovich	Qo'mita raisi
2	Karimov Alisher Nishanovich	Qo'mita a'zosi
3.	Ravshanova Orzigul Inoyat qizi	Qo'mita a'zosi

Kuzatuv kengashi huzuridagi qo'mitalarni tashkil etish va ularning faoliyatini rivojlantirish "O'zenergosotish" AJ korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirishning muhim elementi hisoblanadi hamda O'zbekiston Respublikasi Korporativ boshqaruv kodeksida tavsiya etilgan ilg'or korporativ boshqaruv amaliyotlariga mos keladi.

GRI 2-15

Hisobot davri yakunlariga ko'ra, Kuzatuv kengashi a'zolari o'rtasida manfaatlar to'qnashuvi holatlari qayd etilmagan.

GRI 2-17

Kuzatuv kengashi tarkibini shakllantirish vakolatli davlat organlari tomonidan belgilangan talablarga muvofiq amalga oshiriladi. Nomzodlar dastlabki baholash va kelishuvdan o'tkaziladi, jumladan ularning korporativ boshqaruv sohasidagi zarur kompetensiyalarga egaligi tekshiriladi.

Asosiy talablardan biri korporativ boshqaruv sohasida tegishli kasbiy tayyorgarlik va sertifikatlarga ega bo'lish hisoblanadi. Nomzodlarni o'qitish va malakasini oshirish davlat organlari darajasida ular Kuzatuv kengashi tarkibiga tayinlanishidan oldin tashkil etiladi. Bu esa ularga o'z funksiyalarini samarali bajarish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni shakllantirish imkonini beradi.

Kuzatuv kengashi a'zolarini rag'batlantirish

GRI 2-19

Kuzatuv kengashi a'zolari o'z vazifalarini bajarish uchun alohida haq olmaydilar. Buning sababi shundaki, Kengash tarkibi o'z vakolatlarini egallab turgan lavozimlari doirasida amalga oshiruvchi davlat organlari vakillaridan shakllantirilgan. Rag'batlantirish tizimi mavjud emasligi sababli, hozirgi vaqtda Kuzatuv kengashi a'zolari faoliyatini KPI (asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari) asosida baholash amaliyoti qo'llanilmaydi. Shu bilan birga, Kompaniya korporativ boshqaruv tizimi takomillashib borishi jarayonida mazkur mexanizmlarni rivojlantirish imkoniyatlarini ko'rib chiqmoqda.

Boshqaruv

GRI 2-9, 2-12, 2-13

“O'zenergosotish” AJ faoliyatiga joriy rahbarlikni kollegial ijroiya organi — Boshqaruv amalga oshiradi. Boshqaruv Jamiyatning rivojlanish strategiyasini amalga oshirish, Yagona aksiyador va Kuzatuv kengashi qarorlarining ijrosini ta'minlash, shuningdek Kompaniya faoliyatining ishlab chiqarish, moliyaviy va operatsion ko'rsatkichlariga erishish uchun javob beradi.

Boshqaruv faoliyati Jamiyatning Yagona aksiyadori tomonidan tasdiqlangan Ijroiya organi to'g'risidagi nizom bilan tartibga solinadi. Boshqaruv a'zolari uch yil muddatga saylanadi va o'z vakolatlarini O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, Jamiyat Ustavi hamda Kompaniyaning ichki normativ hujjatlariga muvofiq amalga oshiradi.

Boshqaruvning asosiy vazifalari Jamiyatning moliyaviy barqarorligini ta'minlash, elektr energiyasini oldi-sotdi qilish bozorining ishonchli faoliyat yuritishini tashkil etish, transformatsiya va raqamlashtirish dasturlarini amalga oshirish, risklarni boshqarish tizimini rivojlantirish, tijorat faoliyatini takomillashtirish va biznes-jarayonlar samaradorligini oshirishdan iborat.

Boshqaruv faoliyatida Kompaniyaning strategik rivojlanishi masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. Boshqaruv biznes-rejalar, rivojlanish dasturlari va raqamli transformatsiya bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etadi, shuningdek Jamiyat faoliyatining asosiy samaradorlik ko'rsatkichlariga erishilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi.

O'z faoliyatida Boshqaruv mas'uliyat, kollegiallik, shaffoflik va hisobdorlik tamoyillariga amal qiladi. Boshqaruv a'zolari Jamiyat manfaatlarini ko'zlab vijdonan va oqilona harakat qilishlari, boshqaruv organlari qarorlarining bajarilishini ta'minlashlari hamda qonunchilik, ichki normativ hujjatlar va korporativ standartlar talablariga rioya etishlari shart.

2025-yil 31-dekabr holatiga ko'ra, “O'zenergosotish” AJ Boshqaruvi energetika tarmog'i, moliya sektori, davlat boshqaruvi, korporativ transformatsiya va kompaniyalar faoliyatini huquqiy ta'minlash sohalarida katta tajribaga ega bo'lgan uch nafar a'zodan iborat edi. Boshqaruvning barcha a'zolari oliy ma'lumotga ega bo'lib, ularning kasbiy tajribasi davlat organlari, moliyaviy institutlar va energetika sohasi korxonalaridagi rahbarlik faoliyatini qamrab oladi.

5-jadval – 2025-yil 31-dekabr holatiga ko'ra "O'zenergosotish" AJ Boshqaruvi tarkibi

F.I.Sh.	Lavozimi	Tayinlangan yil	Ma'lumoti	Краткая биография
Obidjonov Jahongir Obidjonovich	Boshqaruv raisi	2024	Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti; O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi; Toshkent davlat texnika universiteti; Anglia Ruskin University (MBA)	Moliya va energetika sohalarida 25 yildan ortiq ish tajribasiga ega. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, "O'zsanoatqurilishbank" ATB, "O'zbekenergo" AJ, "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ va "SQB Capital" MChJda faoliyat yuritgan. 2024-yil iyun oyidan buyon "O'zenergosotish" AJga rahbarlik qilib kelmoqda.
Ashirboyev Jasur Tohirovich	Boshqaruv raisining moliya, transformatsiya va xususiylashtirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari	2025	Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti	Moliyaviy boshqaruv, buxgalteriya hisobi va korporativ moliya sohalarida 20 yildan ortiq tajribaga ega. "O'zbekenergo" AJ, "O'zbekiston milliy elektr tarmoqlari" AJ, "Air Marakanda" MChJ va Uzbekistan Airways tizimlarida faoliyat yuritgan.
Karabayev Shohrux Esanalievich	Boshqaruv raisining tijorat masalalari bo'yicha o'rinbosari	2025	Toshkent davlat texnika universiteti	Elektroenergetika va davlat boshqaruvi sohasida 10 yildan ortiq ish tajribasiga ega. Energetika nazorati tizimida, Iqtisodiyot vazirligida, Loyihalarni boshqarish agentligida hamda O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligida ishlagan.

Boshqaruv tarkibini shakllantirish Kompaniyaning strategik maqsadlarini amalga oshirish, elektr energiyasi bozorining ishonchli faoliyat yuritishini ta'minlash, moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash va korporativ boshqaruvning zamonaviy yondashuvlarini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan kasbiy kompetensiyalar hisobga olingan holda amalga oshiriladi.

6-jadval – Boshqaruv tarkibining asosiy tavsiflari

Ko'rsatkich	2025
Boshqaruv a'zolarining umumiy soni, kishi	3
Erkaklar, kishi	3
Ayollar, kishi	0
Boshqaruv tarkibida ayollar ulushi, %	0
Boshqaruv a'zolarining o'rtacha yoshi, yil	42
Oliy ma'lumotga ega Boshqaruv a'zolari, %	100
10 yildan ortiq ish tajribasiga ega Boshqaruv a'zolari, %	100

7-jadval – Boshqaruvning yosh tarkibi

Yosh toifasi	Kishi soni	Ulushi, %
30 yoshgacha	0	0
30 yoshdan 50 yoshgacha	3	100
50 yoshdan yuqori	0	0
Jami	3	100

O'z faoliyatida Boshqaruv mas'uliyat, kollegiallik, shaffoflik va hisobdorlik tamoyillariga amal qiladi. Boshqaruv a'zolari Jamiyat manfaatlarini ko'zlab vijdonan va oqilona harakat qilishlari, boshqaruv organlari qarorlarining bajarilishini ta'minlashlari hamda qonunchilik, ichki normativ hujjatlar va korporativ standartlar talablariga rioya etishlari shart.

Boshqaruv a'zolarini rag'batlantirish

GRI 2-19, 2-20

“O'zenergosotish” AJ Boshqaruvi a'zolarini rag'batlantirish tizimi mehnatga haq to'lashning qat'iy belgilangan qismiga asoslangan bo'lib, amaldagi qonunchilik hamda Kompaniyaning ichki normativ hujjatlariga muvofiq lavozim maoshi, mukofot pullari va boshqa to'lovlarni nazarda tutadi. Shu bilan birga, hisobot davrida KPIning bajarilish natijalariga bevosita bog'liq bo'lgan qo'shimcha rag'batlantirish to'lovlari qo'llanilmagan.

Ijroiya organi faoliyati samaradorligini baholash maqsadida Kompaniyada asosiy va yordamchi KPIning o'z ichiga olgan asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) tizimi amal qiladi. Mazkur ko'rsatkichlar har yili biznes-reja tarkibida tasdiqlanadi va Kompaniyaning strategik hamda operatsion maqsadlariga erishish darajasini monitoring qilish uchun qo'llaniladi. KPIning bajarilishi ustidan nazorat Kuzatuv kengashi tomonidan har chorakda ijroiya organi faoliyati va biznes-rejaning bajarilishi to'g'risidagi hisobotlarni ko'rib chiqish doirasida amalga oshiriladi.

Faoliyat samaradorligini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish maqsadida 2026-yildan boshlab Boshqaruv raisi va uning ikki nafar o'rinbosari uchun individual KPIning tasdiqlandi. Shaxsiylashtirilgan KPIning joriy etilishi rahbarlar tarkibining Kompaniya strategik maqsadlariga erishish bo'yicha mas'uliyatini kuchaytirish, faoliyat natijalarini baholashning shaffofligini oshirish hamda korporativ boshqaruv amaliyotlarini ilg'or standartlarga muvofiq rivojlantirishga qaratilgan.

Ishbilarmonlik etikasi va korrupsiyaga qarshi kurash

Mas'uliyatli ishbilarmonlik etikasi

GRI 3-3

"O'zenergosotish" AJ ishbilarmonlik etikasi, biznesni halol va vijdonan yuritish hamda korrupsiyaga qarshi kurashni korporativ boshqaruv va barqaror rivojlanish tizimining ajralmas tarkibiy qismi sifatida e'tirof etadi. Jamiyat o'z faoliyatining shaffofligini ta'minlash, korporativ xulq-atvorning yuksak standartlariga rioya etish hamda halollik, mas'uliyat va barcha manfaatdor tomonlarning manfaatlariga hurmat tamoyillariga asoslangan korporativ madaniyatni shakllantirishga intiladi.

Jamiyatda komplayens va korrupsiyaga qarshi kurash sohasini tartibga soluvchi quyidagi asosiy ichki hujjatlar hamda tartib-taomillar joriy etilgan va amalda qo'llaniladi:

- Korrupsiyaga qarshi kurash siyosati;
- Ijtimoiy mas'uliyat va korporativ munosabatlar bo'yicha qo'llanma;
- Manfaatlarni to'qnashuvi to'g'risidagi nizom;
- Xaridlar komissiyasi faoliyatini tashkil etish to'g'risidagi nizom;
- Mehnat shartnomalariga korrupsiyaga qarshi shartlarni kiritish to'g'risidagi ma'lumot.

Ishbilarmonlik etikasi va korrupsiyaga qarshi kurash tizimi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga, Jamiyatning ichki normativ hujjatlariga hamda mas'uliyatli korporativ boshqaruv tamoyillariga asoslanadi. Mazkur yo'nalishdagi asosiy hujjatlar Korrupsiyaga qarshi kurash siyosati va Ijtimoiy mas'uliyat hamda korporativ munosabatlar bo'yicha qo'llanma bo'lib, ular Jamiyat xodimlari va rahbarlari uchun yagona xulq-atvor standartlarini belgilaydi.

"O'zenergosotish" AJ qonuniylik, halollik, adolatlilik, shaffoflik, hisobdorlik hamda inson huquqlariga hurmat tamoyillariga qat'iy amal qiladi. Jamiyat uzoq muddatli muvaffaqiyat va barqaror rivojlanish faoliyatining barcha yo'nalishlarida axloqiy me'yorlarga rioya etishga bevosita bog'liq ekanidan kelib chiqadi.

Jamiyat korporativ etikasining asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Jamiyatning ichki normativ hujjatlariga rioya etish;
- boshqaruv qarorlarini qabul qilishda halollik va xolislikni ta'minlash;
- xodimlar, hamkorlar hamda boshqa manfaatdor tomonlarning huquq va qonuniy manfaatlarini hurmat qilish;
- jinsi, yoshi, millati, dini, siyosiy qarashlari yoki boshqa belgilari bo'yicha kamsitishga yo'l qo'ymaslik;
- faoliyatning shaffofligi va hisobdorligini ta'minlash;
- xodimlarning o'z faoliyati natijalari uchun shaxsiy javobgarligini ta'minlash;
- korrupsiya hamda insofsiz xatti-harakatlarning har qanday ko'rinishiga nisbatan mutlaq murosasizlik tamoyiliga amal qilish.

Jamiyat xodimlardan kasbiy odob-axloqning yuksak standartlariga rioya etishni, xizmat vazifalarini vijdonan bajarishni hamda qabul qilinayotgan qarorlarga mas'uliyat bilan yondashishni talab etadi.

"O'zenergosotish" AJ manfaatdor tomonlar bilan munosabatlarni ochiqlik, o'zaro hurmat va ishonch tamoyillari asosida yo'lga qo'yadi. Jamiyat o'z faoliyati yuzasidan manfaatdor tomonlarni o'z vaqtida xabardor qilishni hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonida ularning qonuniy manfaatlarini hisobga olishni ta'minlashga intiladi.

Jamiyat iste'molchilar, davlat organlari, yetkazib beruvchilar, pudratchilar, moliyaviy institutlar va jamoatchilik bilan mas'uliyatli hamkorlik munosabatlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratadi. Jamiyat halol raqobat tamoyillariga qat'iy amal qiladi hamda hamkorlarning ishbilarmonlik obro'siga

putur yetkazishi yoki raqobat muhitining buzilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan har qanday xatti-harakatlarga yo'l qo'ymaydi.

Xarid faoliyatining axloqiy tamoyillari

"O'zenergosotish" AJ xarid faoliyatini shaffoflik, xolislik, halol raqobat hamda xarid tartib-taomillari ishtirokchilariga nisbatan teng munosabat tamoyillari asosida amalga oshiradi. Jamiyat yetkazib beruvchilar va pudratchilarni tanlash jarayonlarining ochiqligi va adolatligini ta'minlashga, shuningdek asoslangan, xolis va mustaqil qarorlar qabul qilinishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga intiladi.

Xarid faoliyatiga jalb etilgan xodimlar faqat Jamiyat manfaatlarini ko'zlab ish yuritishi, taqdim etilgan takliflarni xolis va beg'araz baholashi hamda belgilangan ichki tartib-taomillar va reglamentlar talablariga qat'iy rioya etishi shart. Bunda manfaatlar to'qnashuvining oldini olishga, shuningdek xarid tartib-taomillari natijalariga noqonuniy ta'sir ko'rsatishi yoki ularning xolisligi va shaffofligiga shubha uyg'otishi mumkin bo'lgan har qanday xatti-harakatlarga yo'l qo'ymaslikka alohida e'tibor qaratiladi.

Jamiyat mas'uliyatli biznes yuritish tamoyillariga amal qiladigan hamda amaldagi qonunchilik talablariga rioya etadigan yetkazib beruvchilar va pudratchilar bilan uzoq muddatli va o'zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirishga intiladi.

Manfaatlar to'qnashuvi va qarorlar qabul qilishning mustaqilligi

"O'zenergosotish" AJ korporativ etikasi va ichki nazorat tizimining muhim tarkibiy qismlaridan biri manfaatlar to'qnashuvining oldini olish hamda uni tartibga solish hisoblanadi. Jamiyat xodimlarning shaxsiy manfaatlari ularning xizmat vazifalarini bajarishiga ta'sir ko'rsatishini istisno etish orqali qabul qilinayotgan qarorlarning xolisligi va mustaqilligini ta'minlashga intiladi.

Manfaatlar to'qnashuvi deganda xodimning shaxsiy manfaatlari uning xizmat vazifalarini vijdonan va xolis bajarishiga ta'sir ko'rsatishi yoki shunday ta'sir ko'rsatishi mumkin deb baholanishi mumkin bo'lgan holat tushuniladi. Shu munosabat bilan xodimlar yuzaga kelgan yoki yuzaga kelishi ehtimoli mavjud bo'lgan manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z vaqtida oshkor etishi hamda ularni belgilangan tartibda bartaraf etish bo'yicha zarur choralarini ko'rish shart.

Jamiyat favoritizm, nepotizm, urug'-aymoqchilik, proteksionizm, xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlar yo'lida foydalanish, shuningdek shaxsiy manfaatdorlik ta'sirida qarorlar qabul qilishning har qanday ko'rinishiga yo'l qo'ymaydi. Mazkur tamoyillarga qat'iy rioya etilishi manfaatdor tomonlarning ishonchini mustahkamlashga hamda korporativ boshqaruvning yuksak standartlarini ta'minlashga xizmat qiladi.

Sovg'alar, vakillik xarajatlari va nomaqbul afzalliklarning oldini olish

Manfaatlar to'qnashuvi va korrupsiyaviy xavflarning oldini olish mexanizmlaridan biri sovg'alar, xizmatlar hamda boshqa turdagi afzalliklarni qabul qilish va taqdim etish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solish hisoblanadi.

"O'zenergosotish" AJ qabul qilinayotgan qarorlarning xolisligiga ta'sir ko'rsatishi yoki Jamiyat xodimlariga noqonuniy ta'sir o'tkazilayotgani haqidagi taassurotni yuzaga keltirishi mumkin bo'lgan har qanday manfaatni olish yoki taqdim etishga yo'l qo'ymaslik tamoyiliga qat'iy amal qiladi. Shu munosabat bilan xodimlarga ularning harakatlari va qabul qilayotgan qarorlarining mustaqilligiga shubha tug'dirishi mumkin bo'lgan pul mablag'lari, sovg'alar, xizmatlar, imtiyozlar yoki boshqa har qanday afzalliklarni qabul qilish yoki taqdim etish taqiqlanadi.

Vakillik tadbirlari, ishbilarmonlik uchrashuvlari hamda ishbilarmonlik odobi doirasidagi e'tibor belgilariga faqat O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi hamda Jamiyatning ichki normativ hujjatlari talablariga muvofiq hollarda yo'l qo'yiladi. Bunday tadbirlar oqilona, shaffoflik va halollik tamoyillariga mos bo'lishi, shuningdek ishbilarmonlik etikasi va korrupsiyaga qarshi kurash siyosati talablariga zid bo'lmasligi lozim.

Jamiyat siyosiy partiyalar, ijtimoiy-siyosiy harakatlar va diniy tashkilotlar faoliyatida ishtirok etmaydi hamda ularga moliyaviy yoki boshqa shakldagi yordam ko'rsatmaydi. Shuningdek, Jamiyat resurslaridan siyosiy maqsadlarda foydalanish, ish joylarida siyosiy targ'ibot olib borish yoki qabul qilinayotgan qarorlarning mustaqilligiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan boshqa har qanday faoliyatni amalga oshirishga yo'l qo'yilmaydi.

Korrupsiyaga qarshi kurash tizimi

GRI 3-3, 205-1

"O'zenergosotish" AJ korrupsiyaning har qanday ko'rinishiga nisbatan murosasizlik tamoyiliga amal qiladi hamda korrupsiyaviy xavflarning oldini olish, ularni aniqlash va minimallashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni izchil amalga oshiradi. Halollik, shaffoflik va mas'uliyat tamoyillariga asoslangan korporativ madaniyatni shakllantirish Jamiyat korporativ boshqaruv tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Jamiyatda ISO 37001:2016 "Korrupsiyaga qarshi boshqaruv tizimlari" xalqaro standarti talablariga muvofiq tashkil etilgan korrupsiyaga qarshi kurash tizimi faoliyat yuritadi. Mazkur tizim Jamiyat faoliyatining barcha yo'nalishlarida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning samarali oldini olishni ta'minlashga qaratilgan.

"O'zenergosotish" AJning Korrupsiyaga qarshi kurash siyosati egallab turgan lavozimidan qat'i nazar barcha xodimlarga tatbiq etiladi hamda qonunchilik talablariga rioya etish, ishbilarmonlik etikasi tamoyillari va halol xulq-atvor standartlariga amal qilish bo'yicha yagona talablarni belgilaydi. Mazkur hujjatda korrupsiyaviy xavflarning oldini olish, manfaatlar to'qnashuvini boshqarish, qabul qilinayotgan qarorlarning shaffofligini ta'minlash hamda korrupsiyaning har qanday ko'rinishiga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishning asosiy mexanizmlari belgilangan.

Jamiyatning korrupsiyaga qarshi kurash sohasidagi asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- qonuniylik;
- ochiqlik va shaffoflik;
- korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning oldini olish;
- profilaktik chora-tadbirlarning ustuvorligi;
- qonunbuzarliklar to'g'risida xabar berish imkoniyatini ta'minlash;
- korrupsiyaning ehtimoliy holatlari haqida vijdonan xabar bergan shaxslarni himoya qilish.

Jamiyat korrupsion xatti-harakatlarning har qanday ko'rinishiga, jumladan tijorat poraxo'rliqi, vakolatlarni suiiste'mol qilish, noqonuniy manfaat olish, xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlar yo'lida foydalanish hamda boshqa noqonuniy harakatlarga mutlaqo yo'l qo'ymaydi.

Korrupsiyaviy xavflarni boshqarish

"O'zenergosotish" AJ korrupsiyaviy holatlarning oldini olish hamda samarali ichki nazorat tizimini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratadi. Korrupsiyaga qarshi kurash siyosatini amalga oshirish doirasida Jamiyat korrupsiyaviy xavflarning yuzaga kelishiga sabab bo'luvchi omillarni minimallashtirish, shuningdek halol va mas'uliyatli xulq-atvor madaniyatini mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlarni muntazam ravishda amalga oshirib boradi.

2025-yil davomida ichki normativ hujjatlar talablariga rioya etilishi ustidan monitoring olib borildi, korporativ boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish hamda xodimlarning ishbilarmonlik etikasi va korrupsiyaga qarshi kurash standartlariga rioya etish borasidagi xabardorligini oshirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirildi. Xususan, xodimlar o'rtasida tushuntirish ishlari olib borish, belgilangan tartib-taomillarga rioya etilishi ustidan nazoratni kuchaytirish hamda shaffoflik, hisobdorlik va korrupsiyaga nisbatan murosasizlik tamoyillariga asoslangan korporativ madaniyatni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi.

Korrupsiyaviy xavflarni boshqarishda profilaktik yondashuv Jamiyatga biznes-jarayonlardagi ehtimoliy zaif jihatlarni o'z vaqtida aniqlash, ichki nazorat tizimining samaradorligini ta'minlash hamda qonunchilik va ichki normativ hujjatlar talablariga rioya etilishini qo'llab-quvvatlash imkonini beradi. Shu bilan birga, 2025-yilda Jamiyatning tarkibiy bo'linmalarida korrupsiyaviy xavflarning ichki baholanishi o'tkazilmadi.

Bundan tashqari, 2025-yil yakunlariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan «E-Anticor.uz» elektron platformasi orqali Jamiyatning korrupsiyaga qarshi kurash sohasidagi faoliyati reyting asosida baholandi.

GRI 205-2

Jamiyatda halollik madaniyatini shakllantirish, korrupsiyaning har qanday ko'rinishiga nisbatan murosasiz munosabatni qaror toptirish hamda ishbilarmonlik etikasining yuksak standartlariga rioya etishni ta'minlash "O'zenergosotish" AJ faoliyatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Jamiyat komplayens sohasida xodimlarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish va ularning xabardorlik darajasini oshirishni korporativ boshqaruv hamda ichki nazorat tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida e'tirof etadi.

Hisobot davrida "O'zenergosotish" AJ xodimlari O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi talablariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasida korrupsiyaga qarshi kurash va ishbilarmonlik etikasi masalalari bo'yicha malaka oshirishdan o'tdilar. O'quv tadbirlari xodimlarning korrupsiyaga qarshi qonunchilik, korporativ xulq-atvor standartlari hamda biznesni halol va vijdonan yuritish tamoyillari bo'yicha bilim va ko'nikmalarini mustahkamlashga qaratildi.

O'quv dasturlari doirasida korrupsiyaviy xavflarni o'z vaqtida aniqlash, manfaatlar to'qnashuvining oldini olish va uni tartibga solish, ichki normativ hujjatlar talablariga rioya etish, shuningdek xodimlarning qabul qilayotgan qarorlari hamda axloqiy me'yorlarga rioya etishi yuzasidan shaxsiy javobgarligi masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Bundan tashqari, xodimlar korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning oldini olishning amaldagi mexanizmlari, shaffoflik va hisobdorlik tamoyillari, shuningdek ehtimoliy qonunbuzarlik alomatlari aniqlangan taqdirda harakat qilish tartibi bilan tanishtirildi.

Jamiyat xodimlarni muntazam o'qitish va xabardor qilishni korrupsiyaviy holatlarning oldini olish hamda korporativ madaniyatni mustahkamlashning eng samarali vositalaridan biri deb hisoblaydi. Xodimlarning kasbiy kompetensiyalarini izchil rivojlantirish ichki nazorat tizimining samaradorligini oshirish, yagona korporativ xulq-atvor standartlarini shakllantirish hamda manfaatdor tomonlarning Jamiyatga bo'lgan ishonchini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Murojaatlar kanallari va huquqbuzarliklar to'g'risida xabar berish

GRI 2-16, 2-25, 2-26

"O'zenergosotish" AJ xodimlar va boshqa manfaatdor tomonlar uchun qonunchilik talablarining buzilishi, ishbilarmonlik etikasi tamoyillariga rioya etilmasligi, manfaatlar to'qnashuvi hamda korrupsiyaga oid xatti-harakatlar to'g'risida xabar berish imkoniyatini ta'minlaydi.

Murojaatlar Jamiyatning amaldagi ichki kommunikatsiya kanallari orqali, shuningdek Jamiyat rahbariyatiga bevosita murojaat qilish yo'li bilan yuborilishi mumkin.

Murojaatlarni qabul qilish maqsadida Jamiyatda axborotni qulay va erkin taqdim etish imkonini beruvchi quyidagi aloqa kanallari faoliyat yuritadi:

- Ishonch telefoni;
- korrupsiya va boshqa huquqbuzarliklar to'g'risidagi xabarlarni qabul qilish uchun mo'ljallangan maxsus elektron pochta manzili;
- Jamiyatning rasmiy veb-saytida korrupsiyaga qarshi kurash bo'limida joylashtirilgan onlayn murojaat shakli;
- Jamiyatning rasmiy veb-saytida joylashtirilgan korporativ qayta aloqa kanallari;
- belgilangan tartibda Jamiyat nomiga yuboriladigan yozma murojaatlar.

Kelib tushgan barcha murojaatlar Jamiyatning ichki tartib-taomillariga muvofiq ro'yxatga olinadi va ko'rib chiqiladi. Murojaatlarni ko'rib chiqish jarayonida xolislik, beg'arazlik, maxfiylik hamda murojaat qiluvchilarning shaxsga doir ma'lumotlarini himoya qilish tamoyillari ta'minlanadi. "O'zenergosotish" AJ murojaatlarni murojaat etuvchining aloqa ma'lumotlari ko'rsatilgan holda ham, anonim tarzda ham taqdim etish imkoniyatini yaratadi. Bunda xabar bergan shaxsning shaxsiga doir ma'lumotlar,

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan holatlar bundan mustasno, uning roziligrisiz uchinchi shaxslarga oshkor etilmaydi.

Jamiyat ehtimoliy huquqbuzarliklar to'g'risida vijdonan xabar bergan xodimlar va boshqa shaxslarni himoya qilishga alohida e'tibor qaratadi. Bunday shaxslar murojaat qilganligi sababli ta'qib etilishi, kamsitilishi yoki boshqa salbiy oqibatlariga duchor etilishiga yo'l qo'yilmaydi. Mazkur yondashuv o'zaro ishonch muhitini shakllantirish, ochiqlik madaniyatini mustahkamlash hamda huquqbuzarliklarning oldini olish mexanizmlari samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

GRI 205-3

Hisobot davrida korrupsiya, tijorat poraxo'rliqi, firibgarlik, manfaatlar to'qnashuvi yoki ishbilarmonlik etikasi talablarining buzilishi bilan bog'liq tasdiqlangan holatlar aniqlanmadi. Shuningdek, amalda faoliyat yuritayotgan murojaatlar kanallari orqali korrupsiya, ishbilarmonlik etikasi talablarining buzilishi yoki manfaatlar to'qnashuvi holatlari to'g'risida hech qanday murojaat yoki xabar kelib tushmadi.

GRI 2-27

Hisobot davrida korrupsiyaga qarshi kurashish va raqobat to'g'risidagi qonunchilik talablarining buzilishi holatlari aniqlanmadi, shuningdek Jamiyatga nisbatan korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar qayd etilmadi.

"O'zenergosotish" AJ komplayens nazorati tizimini izchil takomillashtirishni, halol va vijdonli xulq-atvor madaniyatini yanada rivojlantirishni hamda xodimlarning ishbilarmonlik etikasi va korrupsiyaga qarshi kurash sohasidagi bilim va xabardorlik darajasini oshirishni davom ettiradi. Jamiyat mazkur yo'nalishlarni barqaror rivojlanish va samarali korporativ boshqaruv tizimining ustuvor hamda ajralmas tarkibiy qismlari sifatida e'tirof etadi.

Ichki audit xizmati

"O'zenergosotish" AJning Ichki audit xizmati Jamiyatning mustaqil tarkibiy bo'linmasi bo'lib, Kuzatuv kengashini ichki nazorat tizimining holati, qonunchilik talablariga rioya etilishi hamda Jamiyatning moliyaviy-xo'jalik faoliyati samaradorligi to'g'risida xolis va ishonchli axborot bilan ta'minlaydi. Xizmat faoliyati biznes-jarayonlardagi kamchiliklarni aniqlash, amaldagi nazorat tartib-taomillarining ishonchliligi va samaradorligini baholash hamda Jamiyat faoliyatini takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan. Uch himoya chizig'i (Three Lines Model) modeli doirasida Ichki audit xizmati risklarni boshqarish, ichki nazorat va korporativ boshqaruv tizimlarining samaradorligini mustaqil baholash funksiyasini bajaradi.

Ichki audit xizmatining tashkiliy mustaqilligi uning bevosita Kuzatuv kengashiga bo'ysunishi orqali ta'minlanadi. Xizmat rahbari va xodimlarini lavozimga tayinlash hamda lavozimidan ozod etish, ularga mehnatga haq to'lash shartlarini belgilash, Xizmat byudjetini tasdiqlash va faoliyati natijalarini ko'rib chiqish Kuzatuv kengashi vakolatiga kiradi. Mazkur tartib ichki auditni Jamiyatning kundalik operatsion faoliyatidan institutsional jihatdan ajratish hamda o'tkaziladigan audit tekshiruvlarining mustaqilligi va xolisligini ta'minlaydi. Ichki audit xizmati xodimlari bir vaqtning o'zida Jamiyat boshqaruv organlari tarkibiga kirishi yoki manfaatlar to'qnashuviga olib kelishi mumkin bo'lgan lavozimlarni egallashi mumkin emas.

Kuzatuv kengashi har chorakda Ichki audit xizmati hisobotlarini eshitadi, aniqlangan kamchiliklarni ko'rib chiqadi hamda Jamiyatning moliyaviy-xo'jalik faoliyati va korporativ boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish yuzasidan tegishli qarorlar qabul qiladi.

Ichki audit xizmatining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- Kuzatuv kengashiga o'tkazilgan audit tekshiruvlari natijalari bo'yicha ishonchli va xolis axborotni taqdim etish;
- ijro etuvchi organ hamda tarkibiy bo'linmalar tomonidan qonunchilik, Jamiyat ustavi va ichki normativ hujjatlar talablariga rioya etilishini baholash;
- buxgalteriya hisobi, moliyaviy va statistik hisobotlarning to'liqligi hamda ishonchliligini tekshirish;

- aktivlarning saqlanishi va xo'jalik operatsiyalarini amalga oshirishning belgilangan tartib-taomillariga rioya etilishini baholash;
- ichki nazorat tizimining holatini tahlil qilish;
- korporativ boshqaruv tamoyillariga rioya etilishini baholash;
- aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish hamda faoliyat samaradorligini oshirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish;
- tuzatish (korrigirlovchi) chora-tadbirlarining o'z vaqtida va to'liq amalga oshirilishi ustidan monitoring olib borish.

Bundan tashqari, Ichki audit xizmati xo'jalik shartnomalarining amaldagi qonunchilik talablariga muvofiqligini ekspertizadan o'tkazadi hamda tarkibiy bo'linmalarga buxgalteriya hisobi, moliyaviy hisobot, soliq, bank faoliyati va boshqa qo'llaniladigan qonunchilik masalalari bo'yicha uslubiy ko'mak ko'rsatadi.

Tashqi auditorlar bilan hamkorlik jarayonida Ichki audit xizmati Kuzatuv kengashiga audit xizmatlari bo'yicha texnik topshiriqlarni tayyorlashda, auditorlik tashkilotlari takliflarini baholashda hamda tashqi auditorni tanlash yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqishda ko'maklashadi.

Ichki auditning asosiy yo'nalishlari:

Yo'nalish	Baholash mazmuni
Biznes-rejaning ijrosi	Miqdoriy va sifat ko'rsatkichlariga erishish darajasini tahlil qilish, tasdiqlangan biznes-rejadan chetlanishlar sabablarini aniqlash
Korporativ boshqaruv	Boshqaruv organlari qarorlarining samaradorligini, ichki normativ hujjatlar talablariga hamda aksiyador huquqlariga rioya etilishini baholash
Shu bilan birga, Jamiyat yashil hududlarni kengaytirish atrof-muhit holatini yaxshilash, shahar va shahar atrofi hududlarini iqlim o'zgarishlariga moslashtirish hamda aholi uchun qulay ekologik sharoitlarni saqlashda muhim ahamiyatga ega ekanligini e'tirof etadi. Jamiyatning ko'kalamzorlashtirish sohasidagi asosiy tashabbusi «Yashil makon» umummilliy loyihasida ishtirok etishdan iborat. Mazkur loyiha yashil hududlar maydonini kengaytirish, bog'lar va jamoat maskanlarini barpo etish, atmosfera havosi sifatini yaxshilash hamda ekologik madaniyatni yuksaltirishga qaratilgan.

2025-yilda "O'zenergosotish" AJ «Yashil makon» loyihasining bahorgi mavsumi doirasida yangi bog' barpo etish tashabbusi bilan chiqdi. Jamiyat xodimlari ko'kalamzorlashtirish tadbirlarini tayyorlash va tashkil etishga jalb qilindi. Tijorat takliflarini ko'rib chiqish yakunlariga ko'ra, umumiy qiymati 50 mln so'm bo'lgan 850 tup mevali ko'chat xarid qilish to'g'risida qaror qabul qilindi.

Ko'kalamzorlashtirish tadbirlarini amalga oshirishda Jamiyat nafaqat ekilgan daraxtlar sonini, balki ularning keyingi o'sishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratilishini ham inobatga oladi. Bunda hududning iqlim xususiyatlarini hisobga olgan holda o'simlik turlarini tanlash, barqaror sug'orish manbaini ta'minlash, muntazam parvarish qilish hamda ko'chatlarning tutib ketish darajasini monitoring qilish asosiy yondashuv elementlari hisoblanadi.

«Yashil makon» loyihasini amalga oshirish bo'yicha tarmoq rejasiga muvofiq, 2026-yilda "O'zenergosotish" AJ 500 tup ko'chat ekishni rejalashtirmoqda. Shundan 200 tup bahorgi, 300 tup esa kuzgi mavsumda ekiladi. Umumiy ko'chatlarning 350 tupini manzarali daraxt va butalar, 150 tupini esa mevali daraxt ko'chatlari tashkil etishi belgilangan.

Rejalashtirilgan tadbirlarni o'z vaqtida amalga oshirish maqsadida ekish materiallarini oldindan xarid qilish, ularni yetkazib berish va ekishni tashkil etish, o'simliklarni keyinchalik parvarish qilish hamda amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan Energetika vazirligi va ekologiya sohasidagi vakolatli organlarga muntazam axborot taqdim etish nazarda tutilgan.

Issiqxona gazlari emissiyalari

"O'zenergosotish" AJ o'z operatsion faoliyati doirasida issiqxona gazlari emissiyalarini kamaytirishga intiladi. Jamiyat faoliyatida issiqxona gazlari emissiyalarining asosiy manbalari quyidagilardan iborat:

- Issiqxona gazlarining to'g'ridan-to'g'ri emissiyalari (Scope 1) – avtotransport vositalarida benzindan foydalanish;
- Bilvosita energetik emissiyalar (Scope 2) – ofis va elektromobillar ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan elektr energiyasi iste'moli.

Issiqxona gazlari emissiyalari manbalar inventarizatsiyasi asosida hisoblab chiqilgan bo'lib, uch turdagi issiqxona gazlarini — karbonat angidrid (CO_2), metan (CH_4) va **azot(I) oksidi (N_2O)**ni qamrab oladi. Hisob-kitoblar Greenhouse Gas Protocol metodologiyasiga muvofiq emissiyalarni Scope (qamrov)lar bo'yicha ajratish tamoyiliga asoslangan.

To'g'ridan-to'g'ri emissiyalar (Scope 1) **Iqlim o'zgarishi bo'yicha hukumatlararo ekspertlar guruhi (IPCC)**ning 2006-yildagi Yo'riqnomalari (2-jild, 2–3-boblar; 3-jild, 5-bob)ning Tier 1 metodikasi hamda O'zbekiston Respublikasining milliy metodikasi asosida hisoblandi. Avtomobil benzini uchun quyidagi standart emissiya koeffitsiyentlari qo'llanildi: CO_2 uchun 69 300 kg/TJ, CH_4 uchun 33 kg/TJ, N_2O uchun 3,2 kg/TJ. Metan va azot(I) oksidini CO_2 -ekivalentiga o'tkazish IPCCning Oltinchi baholash hisobotida (AR6) keltirilgan global isish salohiyati (GWP) koeffitsiyentlari asosida amalga oshirildi.

Bilvosita energetik emissiyalar (Scope 2) hududiy yondashuv (location-based) asosida hisoblandi. Bunda O'zbekiston elektroenergetika tizimi uchun 0,523 t CO_2 -ekv/MVt-soat miqdoridagi emissiya koeffitsiyenti qo'llanildi. Mazkur koeffitsiyent mamlakat elektr energiyasi ishlab chiqarish tuzilmasi bo'yicha AQSh Energetika axboroti boshqarmasi (U.S. EIA) va Xalqaro energetika agentligi (IEA) ma'lumotlari asosida aniqlangan.

2025-yilda Jamiyatning Scope 1 va Scope 2 bo'yicha jami issiqxona gazlari emissiyasi 46,09 t CO_2 -ekvni tashkil etdi, 2024-yilda esa ushbu ko'rsatkich 14,77 t CO_2 -ekv bo'lgan. Hisobot yilida Scope 1 emissiyalari 19,18 t CO_2 -ekv, Scope 2 emissiyalari esa 26,91 t CO_2 -ekvni tashkil etdi. Shunday qilib, Jamiyat emissiyalarining asosiy manbai yoqilg'ini yoqish emas, balki xarid qilinadigan elektr energiyasi hisoblanadi.

To'g'ridan-to'g'ri emissiyalar benzin dvigateli bilan jihozlangan yagona xizmat avtomobilidan foydalanish bilan bog'liq. Jamiyatning qolgan xizmat transport vositalari elektr transporti bo'lgani sababli, qazib olinadigan yoqilg'ining bevosita iste'moli cheklangan. Bilvosita energetik emissiyalar esa ma'muriy ofisni elektr energiyasi bilan ta'minlash va elektromobillarni quvvatlantirish uchun xarid qilinadigan elektr energiyasi iste'moli natijasida yuzaga keladi.

Oldingi hisobot davriga nisbatan ko'rsatkichlarning oshishi, avvalo, hisobot davrlarining davomiyligi turlicha bo'lgani bilan izohlanadi. 2024-yil ma'lumotlari Jamiyat operatsion faoliyati

boshlangan to'rtinchi chorakni qamrab olgan bo'lsa, 2025-yil ko'rsatkichlari faoliyatning birinchi to'liq kalendar yili, xodimlar sonining ortishi hamda ofis infratuzilmasi va elektr transport vositalaridan foydalanish intensivligining oshishini aks ettiradi. Shu sababli ikki davr ko'rsatkichlarini to'g'ridan-to'g'ri taqqoslash tahliliy jihatdan cheklangan ahamiyatga ega bo'lib, 2025-yil Jamiyat tomonidan emissiyalarni keyingi monitoring qilish uchun bazaviy yil sifatida qabul qilingan.

13-jadval – Scope 1 va Scope 2 bo'yicha issiqxona gazlari emissiyalari hajmi

Ko'rsatkich	O'lchov birligi	2024	2025	O'zgarish, %
Jamiyat bo'yicha jami emissiyalar	tCO₂-ekv.	14,77	46,09	+212,0
Scope 1 – Mobil manbalarda yoqilg'ining yonishi				
Karbonat angidrid (CO ₂)		4,10	18,71	+356,3
Metan (CH ₄)	tCO ₂ -ekv	0,05	0,24	+380,0
Azot(I) oksidi (N ₂ O)	tCO ₂ -ekv	0,05	0,24	+380,0
Jami	tCO₂-ekv	4,20	19,19	+356,6
Scope 2 – Xarid qilingan elektr energiyasi iste'moli				
Bcero	tCO₂-ekv	10,57	26,91	+154,7

Ijtimoiy mas'uliyat

Xodimlarni boshqarish

GRI 3-3

Jamiyatning xodimlarni boshqarish sohasidagi yondashuvi 2025-yilda tasdiqlangan Ijtimoiy mas'uliyat va korporativ munosabatlar bo'yicha qo'llanma hamda Inson huquqlari deklaratsiyasida belgilangan. Mazkur hujjatlar Jamiyatning barcha xodimlari va rahbariyatiga tatbiq etilib, mas'uliyatli xulq-atvor, shaffoflik, inson qadr-qimmatiga hurmat hamda adolatli mehnat munosabatlariga oid yagona talablarni belgilaydi.

Xodimlarni boshqarishning asosiy tamoyillari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Inson huquqlari va mehnat huquqlariga rioya etish — kamsitishga, bolalar mehnati va majburiy mehnatga yo'l qo'ymaslik, birlashish erkinligi hamda xodimlarning o'z fikrini erkin bildirish huquqini hurmat qilish.
- Teng imkoniyatlar — ishga qabul qilish, xizmat vazifalarini taqsimlash, o'qitish, lavozim bo'yicha o'sish, mehnatga haq to'lash va mehnat munosabatlarini tugatishda yagona yondashuv va mezonlarni qo'llash.
- Kasbiy mahorat va rivojlanish — isloh qilinayotgan energetika bozori sharoitida faoliyat yuritish, jarayonlarni raqamlashtirish hamda integratsiyalashgan menejment tizimlarini joriy etish uchun zarur kompetensiyalarni shakllantirish.
- Ochiq muloqot — xodimlarni muntazam xabardor qilish, kasaba uyushmasi bilan hamkorlik qilish, Etika va intizom qo'mitasiga hamda boshqa mavjud qayta aloqa kanallari orqali murojaat qilish imkoniyatini ta'minlash.
- Adolatli mehnatga haq to'lash va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash — mehnatga haq to'lashni mas'uliyat darajasi va erishilgan natijalarni hisobga olgan holda amalga oshirish, tibbiy xizmat ko'rsatish hamda jamoa shartnomasi doirasida ijtimoiy qo'llab-quvvatlash choralari ta'minlash.
- Xavfsizlik va farovonlik — xodimlarning hayoti va sog'lig'ini ustuvor qadriyat sifatida e'tirof etish, ishlab chiqarishdagi shikastlanishlarning oldini olish, kasbiy va psixologik-ijtimoiy xatarlarni boshqarish hamda sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlash.

Kadrlar jarayonlarini muvofiqlashtirish tarkibiy bo'linmalar rahbarlari bilan hamkorlikda xodimlar bilan ishlash bo'linmasi tomonidan amalga oshiriladi. Asosiy jarayonlarga xodimlar sonini rejalashtirish, tanlash va moslashtirish, o'qitish, kompetensiyalarni baholash, ijtimoiy kafolatlarni tashkil etish hamda mehnat sharoitlari monitoringi kiradi. Bunda Jamiyat xodimlarning xavfsiz mehnat sharoitlarini ta'minlash, kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish va qo'shma loyihalarga jalb etish borasidagi kutilmalarini o'quv dasturlari, ishchi uchrashuvlar va ichki kommunikatsiyalar orqali inobatga oladi.

Kadrlar hisobi «Yagona milliy mehnat tizimi» idoralararo dasturiy-apparat majmuasida yuritiladi va u elektron mehnat daftarchasi funksiyasini bajaradi. Tizimda tashkiliy tuzilma va shtat birliklari, xodimlarni ishga qabul qilish, mehnat shartnomalarini tuzish va ularga o'zgartirish kiritish, shuningdek kadrlar bo'yicha buyruqlar aks ettiriladi. Bo'sh ish o'rinlari hamda tegishli hisobotlar vakolatli davlat organiga elektron shaklda taqdim etiladi.

Bundan tashqari, Jamiyatning 2026-yilga mo'ljallangan rejalari doirasida ERP tizimini joriy etish ko'zda tutilgan. Mazkur tizim kadrlar boshqaruvi jarayonlarini boshqa korporativ biznes jarayonlari bilan integratsiyalash imkonini beradi.

Xodimlar soni va tarkibi

GRI 2-7

2025-yil 31-dekabr holatiga ko'ra, "O'zenergosotish" AJ xodimlari soni 86 nafarni tashkil etdi, bu esa 2024-yilga nisbatan 48,3 foizga ko'pdir. Xodimlar sonining oshishi tashkiliy tuzilmaning

rivojlanishi hamda Jamiyatning energetika bozorida funksiyalarini samarali bajarish uchun zarur bo'lgan kompetensiyalarni shakllantirish bilan bog'liq.

Jamiyatning kadrlar modeli barqaror mehnat munosabatlariga asoslanadi. 2025-yilda 85 nafar xodim, ya'ni jami xodimlar sonining 98,8 foizi, doimiy mehnat shartnomasi asosida va to'liq ish vaqti sharoitida faoliyat yuritdi. Bir nafar xodim esa muddatli mehnat shartnomasi asosida to'liqsiz ish vaqti rejimida ishladi.

14-jadval – Xodimlar tarkibi, kishi

GRI 2-7

Ko'rsatkich	2024	2025	O'zgarish, %
Xodimlarning jinsi va yoshi bo'yicha tarkibi			
Erkaklar	42	70	+66,7
Ayollar	16	16	-
30 yoshgacha	13	17	+30,8
30–50 yosh	37	56	+51,4
50 yoshdan yuqori	8	12	+50,0
Jami xodimlar	58	86	+48,0

2025-yilda O'zenergosotish AJ xodimlari tarkibida 30–50 yosh oralig'idagi guruh ustunlik qiladi — 56 nafar xodim yoki umumiy xodimlar sonining 65,9% ini tashkil etadi. Ushbu ko'rsatkich kompaniyada barqaror kasbiy yadro shakllanganini va u bilim hamda tajriba almashinuvi orqali kompaniyaning keyingi rivojlanishini ta'minlashga xizmat qilishini ko'rsatadi. 30 yoshgacha bo'lgan xodimlar ulushi 20,0% ni tashkil etadi, 50 yoshdan katta xodimlar esa 14,1% ni tashkil qiladi. Bu kompaniyada yosh mutaxassislar jalb qilinishi hamda tajribali kadrlar salohiyati o'rtasida muvozanat saqlanayotganini anglatadi.

15-jadval – Xodimlarning bandlik shakli bo'yicha taqsimoti, kishi

GRI 2-7

Bandlik shakli	2024		2025	
	Erkaklar	Ayollar	Erkaklar	Ayollar
Doimiy xodimlar	42	16	69	16
Vaqtinchalik xodimlar	0	0	1	0

16-jadval – Xodimlarning hududlar bo'yicha tarkibi, kishi*

GRI 2-7, 401-1

Hududlar	2025
Toshkent sh.	73
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1
Andijon viloyati	1
Buxoro viloyati	1
Jizzax viloyati	1
Qashqadaryo viloyati	0
Navoiy viloyati	1
Samarqand viloyati	1
Namangan viloyati	1
Surxondaryo viloyati	1
Sirdaryo viloyati	1
Toshkent viloyati	0
Farg'ona viloyati	2
Xorazm viloyati	1
Jami	86

* Hududlar bo'yicha taqsimot faqat 2025-yil uchun keltirilgan, chunki "O'zenergosotish" AJning hududiy vakolatxonalari hisobot yilida amalga oshirilgan tashkiliy o'zgarishlar natijasida tashkil etilgan. Hududiy vakolatxona xodimlari to'liq bandlik shartlarida ishga qabul qilingan.

GRI 2-8

2025-yilda Kompaniya uchun bir nafar xodim shtat xodimi bo'lmagan holda mehnat faoliyatini amalga oshirgan bo'lib, uning faoliyati Kompaniya tomonidan nazorat qilingan.

Xodimlarni jalb qilish va ularni saqlab qolish siyosati

GRI 401-1

Xodimlarni tanlash va ishga qabul qilish jarayonlari lavozim uchun belgilangan malaka talablari, kasbiy kompetensiyalar hamda vakansiyaga qo'yilgan funksional vazifalar asosida amalga oshiriladi. Bo'sh ish o'rinlari to'g'risidagi ma'lumotlar davlat elektron bandlik tizimlari, HeadHunter platformasi hamda "O'zenergosotish" AJning rasmiy axborot kanallari orqali e'lon qilinadi. Nomzodlarni tanlash jarayoni bosqichma-bosqich tartibda tashkil etilib, dastlabki saralash, komissiya tomonidan suhbat o'tkazish hamda yakuniy qaror qabul qilish bosqichlarini o'z ichiga oladi. Tanlov natijalari belgilangan tartibda rasmiylashtiriladi va tegishli bayonnomalar bilan hujjatlashtiriladi. Zarur hollarda ayrim lavozimlar bo'yicha qo'shimcha kelishuvlar, chuqurlashtirilgan tekshiruvlar hamda vakolatli organlar tomonidan talab etiladigan ruxsatnomalarni olish jarayonlari amalga oshiriladi. Energetika sohasi xususiyatlaridan kelib chiqib, strategik va muhim lavozimlarga nomzodlarni tanlashda sohaviy ish tajribasi muhim mezon sifatida inobatga olinadi.

Yangi ishga qabul qilingan hamda yosh xodimlarning moslashuv jarayonini samarali tashkil etish maqsadida mentorlik (ustoz-shogird) tizimi joriy etilgan. Ushbu tizimga muvofiq, xodimlarga tajribali mutaxassislar birlashtirilib, ular tomonidan lavozim vazifalarini o'zlashtirish va ish jarayonlariga tezkor integratsiyalashuv qo'llab-quvvatlanadi. Xodimlarni o'qitish jarayoni ichki va tashqi o'quv dasturlari orqali, ish joyida yoki masofaviy shaklda tashkil etiladi.

2025-yil davomida "O'zenergosotish" AJga 35 nafar xodim ishga qabul qilindi. 2024-yilda Kompaniyaning tashkiliy tuzilmasini shakllantirish bosqichida 58 nafar xodim ishga qabul qilingan edi. Shu sababli, hisobot davrida yangi xodimlarni jalb qilish hajmi 39,7 foizga kamaygan. Biroq umumiy xodimlar sonining o'sishi davom etgani Kompaniyada kadrlarni tanlash jarayoni bosqichma-bosqich optimallashtirilib, operatsion ehtiyojlarga yo'naltirilgan maqsadli yondashuv kuchayganini ko'rsatadi.

17-jadval – Xodimlar harakati jinsi bo'yicha, kishi

GRI 401-1

Ko'rsatkich	2024	2025	O'zgarish, %
Xodimlarni ishga qabul qilish			
Erkaklar	42	33	-21,4
Ayollar	16	2	-87,5
Mehnat shartnomalarining bekor qilinishi			
Erkaklar	1	6	+500
Ayollar	0	2	-

Yil davomida "O'zenergosotish" AJda 8 nafar xodim bilan mehnat shartnomalari bekor qilingan bo'lib, ulardan 6 nafari erkaklar va 2 nafari ayollarni tashkil etadi. Shtat kengayishi sharoitida Kompaniya xodimlarning ishdan bo'shash sabablari monitoringini rivojlantirish, yangi xodimlarni moslashtirish jarayonini takomillashtirish hamda energetika, moliya-iqtisodiyot va raqamli yo'nalishlarda yetishmaydigan mutaxassislarni ushlab qolish bo'yicha chora-tadbirlarni kuchaytirishda davom etmoqda.

2025-yilda kadrlar almashinuvi ko'rsatkichi avvalgi hisobot davriga nisbatan oshgan. Erkaklar orasida kadrlar almashinuvi 7,9% ni tashkil etib, 2024-yildagi 2,0% ko'rsatkichga nisbatan o'sish kuzatilgan. Ayollar orasida ushbu ko'rsatkich 15,4% ga yetgan bo'lib, 2024-yilda ushbu toifadagi xodimlar chiqishi qayd etilmagan.

Yosh tarkibi kesimida eng yuqori kadrlar almashinuvi 50 yoshdan katta xodimlar guruhida kuzatilib, 20,0% ni tashkil etgan. 30 yoshgacha bo'lgan xodimlar orasida ushbu ko'rsatkich 14,3% ni, 30–50 yosh oralig'idagi guruhda esa 2024-yildagi 3,1% dan 2025-yilda 7,7% gacha oshgan.

Ko'rsatkichlarning o'sishi, jumladan, Kompaniyaning tashkiliy rivojlanishi jarayonida xodimlar soni va tarkibidagi o'zgarishlar bilan ham bog'liq. "O'zenergosotish" AJ kelgusida xodimlar chiqib ketish sabablari, jumladan ixtiyoriy bo'shash, muddatli mehnat shartnomalarining tugashi va boshqa asoslarni tizimli tahlil qilishni hamda kadrlarni ushlab qolish va ularning kasbiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash choralari yanada takomillashtirishni davom ettiradi.

Mehnatga haq to'lash va ijtimoiy kafolatlar

GRI 2-21, 405-2

"O'zenergosotish" AJ xodimlar uchun raqobatbardosh mehnat sharoitlarini yaratishga intiladi hamda adolat, shaffoflik va xodimlarning malakasi, mas'uliyati hamda ish natijalariga mutanosib mehnatga haq to'lash tamoyillariga rioya qiladi.

Ish haqi va moddiy rag'batlantirish tizimining asosiy yondashuvlari Kompaniyaning ichki normativ hujjatlarida mustahkamlangan. "O'zenergosotish" AJda mehnatga haq to'lash tizimi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- lavozim, malaka, kasbiy tajriba va xodimning mas'uliyat darajasi hisobga olingan holda belgilanadigan ish haqining doimiy (asosiy) qismi;
- har chorakda belgilangan ko'rsatkichlar bajarilishi hamda individual va korporativ natijalarga erishish bilan bog'liq rag'batlantiruvchi (premiyal) to'lovlar;

Jamoa shartnomasiga muvofiq davlat va bayram sanalariga nisbatan xodimlarga rag'batlantiruvchi to'lovlar ko'zda tutilgan.

Nomoddiy rag'batlantirish shakllari sifatida Kompaniya, soha kasaba uyushmasi hamda Energetika vazirligi tomonidan beriladigan faxriy yorliqlar va minnatdorchiliklar qo'llaniladi. Ayrim rag'batlantirish shakllari moddiy mukofot bilan ham birga berilishi mumkin.

Kompaniya turli toifadagi xodimlar o'rtasida to'lovlar muvozanatini baholash maqsadida mehnatga haq to'lash tuzilmasini tahlil qiladi. 2025-yilda eng yuqori haq oluvchi xodimning yillik umumiy mukofoti median darajadagi xodimlar mukofotiga nisbati 1,84 ni tashkil etdi (2024-yilda — 2,64). Ushbu ko'rsatkichning kamayishi to'lovlar tizimida tafovutning qisqarayotganini va daromadlar nisbatan tengroq taqsimlanayotganini anglatadi.

Ayollar va erkaklar o'rtasidagi o'rtacha bazaviy ish haqi nisbati 71,3% dan 77,8% gacha oshdi. Chiziqli lavozimlarda ushbu ko'rsatkich 100,7% ni tashkil etgan bo'lsa, rahbarlik lavozimlarida 68,9% ni tashkil etdi. Ushbu farqlar lavozim tuzilmasi, ish staji, mas'uliyat darajasi va boshqa omillar bilan bog'liq

bo'lishi mumkin. Shu sababli Kompaniya teng qiymatdagi mehnat uchun teng haq to'lash tamoyiliga rioya etilishini ta'minlash maqsadida muntazam tahlilni davom ettiradi.

Ijtimoiy muloqot va kasaba uyushmasi

GRI 2-30

2025-yil iyun oyida "O'zenergosotish" AJda birlamchi kasaba uyushmasi tashkil etildi. U O'zbekiston Respublikasi Energetika, neft-gaz va geologiya sohasi xodimlari kasaba uyushmalari Respublika kengashi tizimiga kiradi. Kasaba uyushma qo'mitasi besh nafar a'zodan iborat bo'lib, xodimlarning mehnat va ijtimoiy-iqtisodiy huquqlari, mehnat sharoitlari va mehnat muhofazasi, kasbiy rivojlanish hamda ijtimoiy qo'llab-quvvatlash masalalarida ularning manfaatlarini ifodalaydi.

Jamoa shartnomasi va kasaba uyushma faoliyati xodimlarning mehnat sharoitlari va ijtimoiy tashabbuslarni muhokama qilishda ishtirokini ta'minlovchi institutsional mexanizmini shakllantiradi. Kasaba uyushmasi xodimlar manfaatlarini himoya qilish, ijtimoiy-mehnat masalalarini ko'rib chiqishda ishtirok etish, majburiyatlar ijrosini nazorat qilish hamda madaniy-ma'rifiy, sport va sog'lomlashtirish tadbirlarini tashkil etishga ko'maklashadi.

2025-yil yakuni holatiga ko'ra, kasaba uyushmasi a'zolari 85 nafar xodimni qamrab oldi, jumladan 16 nafar ayol va 17 nafar 30 yoshgacha bo'lgan xodimlar. Kasaba uyushmasi doimiy mehnat shartnomasi asosida ishlovchi xodimlarning 100 foizini va umumiy xodimlar sonining 98,8 foizini qamrab oldi. Jamoa shartnomasi bilan qamrab olingan xodimlar ulushi ham 2025-yil yakuniga ko'ra 100 foizni tashkil etdi.

Xodimlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimi "O'zenergosotish" AJning 2024–2026-yillarga mo'ljallangan Jamoa shartnomasida mustahkamlangan bo'lib, u 2024-yil 14-iyundan 2026-yil 31-dekabr gacha amal qiladi. Ushbu shartnoma kompaniyaning barcha xodimlariga, jumladan, uning kuchga kirgandan keyin ishga qabul qilingan xodimlarga hamda o'rindoshlik asosida ishlovchilarga tatbiq etiladi. Ayrim holatlarda belgilangan kafolatlar xodimlarning oila a'zolari, pensionerlar hamda mehnat faoliyati natijasida zarar ko'rgan sobiq xodimlarga ham qo'llaniladi.

Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash choralari kasaba uyushma qo'mitasi bilan hamkorlikda amalga oshiriladi hamda moddiy yordam, qo'shimcha ta'tillar, sog'liqni saqlash va oilaviy farovonlikni qo'llab-quvvatlash, uy-joy va ta'lim masalalarida ko'mak, shuningdek madaniy, sport va sog'lomlashtirish tashabbuslarini o'z ichiga oladi.

GRI 401-2, 401-3, 403-6

Og'ir hayotiy holatlarda moddiy yordam

Xodimlar davolanish zarurati tug'ilganda, moddiy ahvol yomonlashganda hamda yaqin qarindoshlarining vafoti munosabati bilan moddiy yordam olish huquqiga ega. To'lov miqdori energetika tizimidagi uzluksiz ish stajiga bog'liq bo'lib, lavozim maoshining 20 foizidan 100 foizigacha bo'lishi mumkin.

Holatning og'irligiga qarab moddiy yordam miqdori Kompaniya rahbariyati va kasaba uyushma qo'mitasining qo'shma qarori asosida oshirilishi mumkin. Qo'shimcha moddiy quyidagi holatlarda taqdim etilishi mumkin: xodimning birinchi nikohdan o'tishi, farzandlarining to'yi, xodim yoki uning oila a'zolarining og'ir kasalligi, diagnostika yoki operatsiya zarurati, shuningdek favqulodda holatlar va baxtsiz hodisalar yuz berganda.

Ta'tillar va oilaviy holatlarda qo'llab-quvvatlash

Xodimlarga 21 kalendar kundan iborat yillik asosiy mehnat ta'tili beriladi. Qo'shimcha haq to'lanadigan ta'til kunlari xodimning ish stajiga qarab belgilanadi. Jamoa shartnomasiga muvofiq, muhim oilaviy holatlar yuz berganda ham haq to'lanadigan ijtimoiy ta'tillar nazarda tutilgan. Ular xodimning yoki uning yaqin qarindoshlarining vafoti, xodim yoki uning farzandlarining to'yi, farzand tug'ilishi, yangi uyga ko'chib o'tish, farzandni birinchi sinfga berish, uy-joyini ta'mirlash, shuningdek haj ziyorati va tarixiy hamda muqaddas joylarga tashrif buyurish holatlarida taqdim etilishi mumkin.

Belgilangan holatlarda xodimga ish haqining qisman saqlangan holda yoki saqlanmagan holda ta'til berilishi mumkin. Bunday kafolatlar, xususan, oila a'zolariga g'amxo'rlik qilayotgan xodimlar, ishlovchi pensionerlar, yosh oilalar a'zolari hamda ijtimoiy ahamiyatga ega kasalliklarga chalingan xodimlarga nisbatan qo'llaniladi.

Sog'lomlashtirish va tibbiy qo'llab-quvvatlash

Xodimlarga yillik mehnat ta'tili berilishi bilan birga sog'lomlashtirish uchun moddiy yordam bir lavozim maoshi miqdorida to'lab beriladi.

Kompaniya va kasaba uyushma tashkiloti xodimlar hamda ularning farzandlari uchun sanatoriy-kurort davolanishi, dam olish maskanlari va bolalar sog'lomlashtirish oromgohlarida dam olishni tashkil etishi mumkin. Qo'llab-quvvatlash choralari ijtimoiy jihatdan zaif toifadagi xodimlar, nogironligi bo'lgan xodimlar hamda nogironligi bo'lgan farzandlarga ega oilalarga ham tatbiq etiladi. Jamoa shartnomasiga muvofiq, vaqtinchalik mehnatga layoqatsizlik holatlarida belgilangan tartib va miqdorlarda nafaqalar to'lanishi nazarda tutilgan. Xodim yoki uning yaqin qarindoshi vafot etgan taqdirda, dafn marosimini tashkil etish uchun Kompaniya tomonidan transport xizmati ham taqdim etilishi mumkin.

Kompensatsiyalar va moddiy rag'batlantirish

Kompaniya xodimlarning ovqatlanish xarajatlarini har bir to'liq ishlangan oy uchun eng kam ish haqi miqdorida qoplashni nazarda tutadi. Transport xarajatlari esa eng kam ish haqining 50 foizi miqdorida kompensatsiya qilinadi.

Xodimlarga davlat va bayram sanalariga bag'ishlangan rag'batlantiruvchi to'lovlar to'lanishi mumkin. Kompaniya shtatidagi ayol xodimlarga Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan bir martalik moddiy yordam berilishi ko'zda tutilgan.

Har choraklik mukofotlash KPI natijalarini baholash asosida amalga oshiriladi va ishlangan vaqt hisobga olingan holda lavozim maoshining 100 foizigacha yetishi mumkin. Shuningdek, xodimlarga mehnat staji davomiyligi, kasbiy mahorat, yuqori natijadorlik, bajariladigan vazifalarning murakkabligi va alohida ahamiyatiga qarab har oylik ustamalar to'lanishi mumkin.

Yilda bir marta xodimlarga qishloq xo'jaligi mahsulotlarini xarid qilish uchun moddiy yordam berilishi mumkin. Energetika tizimida yetarli ish stajiga ega bo'lgan va yubiley yoshiga yetgan xodimlar bir lavozim maoshi miqdorida mukofot bilan rag'batlantirilishi mumkin.

Uy-joy va ta'lim bo'yicha qo'llab-quvvatlash

Kompaniya moliyaviy imkoniyatlari doirasida xodimlarga uy-joy sharoitlarini yaxshilash va boshqa ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish maqsadida foizsiz qaytariladigan ssudalar taqdim etishi mumkin.

Shuningdek, xodimlar va ularning farzandlarining ta'lim shartnomalarini qaytarish asosida to'lash imkoniyati ham nazarda tutilgan. Mablag'larni qoplash xodimning arizasiga va tasdiqlovchi hujjatlarga muvofiq ravishda ish haqi hisobidan kelishilgan summalarni ushlab qolish orqali amalga oshiriladi.

Oilaviy majburiyatlarga ega xodimlarni qo'llab-quvvatlash

3 yoshgacha bo'lgan bolasi mavjud bo'lgan ota-onalardan biri yoki vasiy uchun qisqartirilgan ish haftasi belgilanadi. Kichik yoshdagi bolalari bo'lgan xodimlarga bolani emizish uchun qo'shimcha tanaffuslar hamda qonunchilik va Jamoa shartnomasida nazarda tutilgan boshqa kafolatlar taqdim etilishi mumkin.

Homilador ayollar, bolali xodimlar, ko'p farzandli va kam ta'minlangan oilalar uchun kengaytirilgan ijtimoiy kafolatlar belgilangan. Kompaniya va kasaba uyushma tashkiloti bolali oilalarni qo'llab-quvvatlash, yangi yil sovg'alarini taqdim etish, bolalar oromgohlarida dam olishni tashkil etish hamda xodimlar va ularning oila a'zolari uchun turli tadbirlarni o'tkazish orqali qo'shimcha ijtimoiy yordam ko'rsatishi mumkin.

Yosh mutaxassislarni qo'llab-quvvatlash

Yosh mutaxassislar uchun kasbiy moslashuv va rivojlanishga qaratilgan chora-tadbirlar qo'llaniladi. Ushbu chora-tadbirlar mentorlik tizimi, kasbiy tayyorgarlik, zamonaviy va raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish hamda kadrlar zaxirasini shakllantirishni o'z ichiga oladi.

Jamoa shartnomasi doirasida moliyaviy imkoniyatlar hisobga olingan holda yosh mutaxassislarga uy-joy ijarasi xarajatlarini qoplash hamda yosh oilalarni qo'llab-quvvatlash imkoniyati

nazarda tutiladi. Shuningdek, Kompaniya kasbiy mahorat tanlovlarini o'tkazish, yosh mutaxassislar kengashlarini tashkil etish hamda tashabbuskor yoshlarni rag'batlantirish amaliyotini amalga oshiradi.

Madaniy, sport va sog'lomlashtirish tadbirlari

Kompaniya kasaba uyushma tashkiloti bilan hamkorlikda xodimlarning madaniy-ma'rifiy, sport va sog'lomlashtirish tadbirlarida ishtirok etishini qo'llab-quvvatlaydi. Ushbu maqsadlar uchun kasaba uyushmasi byudjeti hamda Kompaniya mablag'lari yo'naltirilishi mumkin.

Tadbirlar sport musobaqalarini tashkil etish, teatr va muzeylarga tashriflar, ichki va sayohat tadbirlari, jismoniy tarbiya va sog'lom turmush tarzini rivojlantirish, shuningdek xodimlar va ularning oila a'zolari uchun imtiyozli yo'llanmalar taqdim etishni o'z ichiga oladi. Bunday tashabbuslar korporativ madaniyatni mustahkamlash, norasmiy muloqotni rivojlantirish hamda xodimlar farovonligini oshirishga xizmat qiladi.

Ayrim imtiyozlar va to'lovlar Kompaniyaning moliyaviy imkoniyatlari, ajratilgan mablag'lar mavjudligi hamda tasdiqlovchi hujjatlarga bog'liq holda amalga oshiriladi. Nazarda tutilgan chora-tadbirlar xodimlarning mehnat va oilaviy hayotining turli bosqichlarida kompleks qo'llab-quvvatlash tizimini shakllantiradi. Pul to'lovlari va kompensatsiyalar bilan bir qatorda, u ijtimoiy risklarning oldini olish, ota-onalar va bolalarni qo'llab-quvvatlash, yosh mutaxassislarni rivojlantirish, sog'liqni mustahkamlash hamda xodimlarni korporativ va kasaba uyushma tashabbuslariga jalb etishni ham qamrab oladi.

2025 yil yakunlariga ko'ra Jamoa shartnomasining 12 ta bandi amalga oshirildi. Tegishli tadbirlar uchun umumiy xarajatlar 287,5 mln so'mni tashkil etdi, bu o'rtacha har bir xodimga 3,38 mln so'mdan to'g'ri keladi. Kasaba uyushmasi faoliyati va Jamoa shartnomasining ijrosi xodimlarning mehnat sharoitlari, ijtimoiy kafolatlar va farovonlikni oshirishga qaratilgan tashabbuslarni muhokama qilishda barqaror ishtirok mexanizmini ta'minlaydi.

Ta'lim va rivojlanish

GRI 3-3, 404-1, 404-2, 404-3

Ta'lim Kompaniya faoliyatining sifati va ishonchligini ta'minlashning asosiy vositasi sifatida ko'rib chiqiladi. Ustuvor yo'nalishlar energetika va bozorni tartibga solish sohasidagi kasbiy bilimlar, shartnoma va hisob-kitob intizomi, raqamli kompetensiyalar, loyihalar va risklarni boshqarish, ishbiarmonlik etikasi, shuningdek integratsiyalashgan menejment tizimlari va mehnatni muhofaza qilish talablari hisoblanadi.

Ta'limga bo'lgan ehtiyoj har yili tarkibiy bo'linmalarning buyurtmalari asosida aniqlanadi. Kadrlar funksiyasi kelib tushgan takliflarni umumlashtiradi, ularni rahbarlar bilan kelishadi va malaka oshirish bo'yicha yillik rejani shakllantiradi, mazkur reja buyruq bilan tasdiqlanadi. Qo'shimcha ehtiyoj yuzaga kelganda bo'linma xizmat yozuvi yoki raport taqdim etadi. Kelishilgandan so'ng zarur hujjatlar rasmiylashtiriladi va ta'lim uchun to'lov amalga oshiriladi.

Ayrim funksiyalar uchun malaka va kasbiy sertifikatlash bo'yicha majburiy talablar belgilangan. Bunday talablar, xususan, ichki audit, korporativ boshqaruv va yuridik funksiya xodimlariga nisbatan qo'llaniladi. Ta'lim davriyligi va zarur sertifikatlar ro'yxati qonunchilik, kasbiy talablar va Kompaniyaning ichki hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

Ta'lim xarajatlari 2024 yildagi 9,5 mln so'mdan 2025 yilda 93,0 mln so'mga oshdi. Umumiy hajmning 2 580 soati chiziqli lavozimlardagi xodimlarga va 1 125 soati rahbar lavozimidagi xodimlarga to'g'ri keldi. Gender kesimida erkaklar 2 084 soat, ayollar esa 1 621 soat ta'lim oldi.

18-jadval – Xodimlarni ta'limiga kiritilgan investitsiyalar dinamikasi, so'm

Ko'rsatkich	2024	2025
Xodimlar ta'limiga xarajatlar, yiliga	9 541 000,00	93 019 345,20

2025 yilda ta'limning umumiy hajmi 3 705 soatni tashkil etdi, bu 2024 yil ko'rsatkichidan 12,4 baravar yuqori. Yil oxiridagi xodimlar soniga nisbatan hisoblaganda, bu bir xodimga taxminan 43,1 soat ta'lim to'g'ri kelishini anglatadi, bir yil avval esa bu ko'rsatkich 5,2 soatni tashkil etgan. Sezilarli o'sish bazaviy jarayonlarni shakllantirishdan kompetensiyalarni tizimli rivojlantirishga o'tilganini aks ettiradi.

19-jadval – Xodimlarning gender va lavozim guruhlar kesimida ta'lim soatlari soni

GRI 404-1

Ko'rsatkich		2024	2025
Ijrochi lavozimlar	Erkaklar	176	1 560
	Ayollar	60	1 020
Rahbar lavozimlar	Erkaklar	40	524
	Ayollar	24	601

20-jadval – Bir xodimga to'g'ri keladigan o'rtacha ta'lim soatlari gender va lavozim guruhlar kesimida

GRI 404-1

Ko'rsatkich		2024	2025
Ijrochi lavozimlar	Erkaklar	5,33	31,20
	Ayollar	5,45	92,73
Rahbar lavozimlar	Erkaklar	2	20,15
	Ayollar	12	300,50

Integratsiyalashgan menejment tizimining ichki auditi ISO 45001, ISO 14001 va ISO 50001 talablariga muvofiq ta'lim jarayonlari va xodimlarning xabardorligini tekshirishni o'z ichiga oladi. Rahbariyat tahlili natijalari kompetensiyalarni yanada rivojlantirish zarurligini tasdiqlaydi, jumladan energiya menejmenti, monitoringni raqamlashtirish, kasbiy risklarni boshqarish va pudratchilar bilan o'zaro hamkorlik bo'yicha ta'limni.

Ta'lim natijadorligini oshirish maqsadida Kompaniya izchil ravishda yagona siklni shakllantiradi: kompetensiyalarga bo'lgan ehtiyojni aniqlash, dasturlarni rejalashtirish, ta'limni o'tkazish, bilimlarni o'zlashtirishni tekshirish va uning jarayonlar sifati hamda xavfsizligiga ta'sirini baholash.

Samaradorlikni baholash va karyera rivojlanishi

GRI 404-3

Xodimlar samaradorligini baholash har chorakda komissiya va iqtisodiy blok vakillari ishtirokida individual asosda o'tkaziladi. Baholash doirasida xodimning ish natijalari, bevosita rahbarining fikri, ijro intizomi, kadrlar va mehnat intizomiga rioya qilishi, shuningdek intizomiy jazo choralarining mavjudligi hisobga olinadi. Baholash natijalari qo'yilgan vazifalarning bajarilish sifatini aniqlash, kasbiy rivojlanish

ehtiyotlarini aniqlash va xodimlarning keyingi karyera o'sishi bo'yicha qarorlar qabul qilish uchun foydalaniladi.

Karyera bo'yicha lavozimga ko'tarish va ichki o'tkazishlar komissiya asosida amalga oshiriladi. Tarkibiy bo'linma rahbari barqaror ish natijalarini, kasbiy kompetentligini va tashabbuskorligini namoyon etayotgan xodimni lavozimga ko'tarishni tashabbus qilishi mumkin. Taklif raport bilan rasmiylashtiriladi, shundan so'ng nomzod komissiya bilan suhbatdan o'tadi. Ko'rib chiqish natijalariga ko'ra xodimni vakant lavozimga o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilinadi. Lavozimga ko'tarish bo'yicha yakka tartibda qaror qabul qilishga yo'l qo'yilmaydi.

2025 yil davomida xodimlar samaradorligi bo'yicha 122 ta individual baholash o'tkazildi.

Xilma-xillik va tenglik

"O'zenergosotish" AJ inson qadr-qimmatini hurmat qilish, teng imkoniyatlar, adolat va professional hamkorlik tamoyillariga asoslangan ish muhitini shakllantirishga intiladi. Mas'uliyatli xulq-atvor tamoyillari egallab turgan lavozimidan qat'i nazar barcha xodimlarga tatbiq etiladi hamda jamoa ichida o'zaro hurmat va xolis munosabatni nazarda tutadi.

Ijtimoiy mas'uliyat va korporativ munosabatlar bo'yicha yo'riqnomaga muvofiq, jinsi, yoshi, millati, madaniy mansubligi, diniy va siyosiy qarashlari, ijtimoiy mavqei hamda boshqa belgilar bo'yicha kamsitish va har qanday ta'qib shakllari taqiqlanadi. Shuningdek, Kompaniya kadrlar siyosatini amalga oshirish, mehnatga haq to'lashni tashkil etish va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash choralari taqdim etishda asossiz imtiyozlar va cheklolarga yo'l qo'yilmaydi.

Teng munosabat tamoyili mehnat munosabatlarining barcha bosqichlarida, jumladan xodimlarni tanlash, vazifalarni taqsimlash, ta'lim olish imkoniyati, samaradorlikni baholash, karyera rivojlanishi, rag'batlantirish va mehnat munosabatlarini tugatishda qo'llaniladi. Ishga qabul qilish va lavozim bo'yicha ko'tarish to'g'risidagi qarorlar xodimlarning malakasi, kasbiy tajribasi, kompetensiyalari, ish natijalari va tashabbuskorligini inobatga olgan holda qabul qilinadi. Rahbarlar qabul qilinayotgan qarorlarning xolisligi, xodimlar huquqlariga rioya etilishi hamda konstruktiv fikr-mulohaza taqdim etilishi uchun mas'uldir.

2025-yil oxiriga kelib Kompaniyada 16 nafar ayol va 70 nafar erkak faoliyat yuritdi. Ayollarning xodimlar umumiy sonidagi ulushi 2024-yildagi 27,6%ga nisbatan 18,6%ni tashkil etdi. Mazkur ko'rsatkichdagi o'zgarish ayollar mutlaq soni o'tgan yil darajasida saqlanib qolgan holda, xodimlarning umumiy soni oshgani bilan bog'liq. Kompaniya xodimlarning gender tarkibini ishga qabul qilish, ta'lim olish va karyera rivojlanishida teng imkoniyatlarni monitoring qilishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida ko'rib chiqadi.

Oilaviy majburiyatlarga ega bo'lgan xodimlar uchun qo'shimcha kafolatlar nazarda tutilgan. Ular uch yoshgacha bo'lgan bolaning ota-onasidan biri yoki vasiysi uchun qisqartirilgan ish vaqti, bolani ovqatlantirish uchun tanaffuslar, ijtimoiy ta'tillar hamda qonunchilik va Jamoa shartnomasida belgilangan boshqa qo'llab-quvvatlash choralari o'z ichiga oladi.

GRI 401-3

2025-yilda bir nafar xodimaga homiladorlik va tug'ish ta'tili hamda undan keyingi bola parvarishi ta'tili berildi.

O'z huquqlari buzilgan yoki kamsitishdan himoya ta'minlanmagan deb hisoblagan xodim bevosita rahbariga yoki Etika va intizom qo'mitasiga murojaat qilishi mumkin. Rahbarlar bunday murojaatlarga o'z vaqtida munosabat bildirish va aniqlangan qoidabuzarliklarni bartaraf etish choralari ko'rishi shart.

Xilma-xillik va teng imkoniyatlar sohasidagi yondashuvni yanada rivojlantirish xodimlarning gender va yosh tarkibini, ayollarning turli lavozim darajalaridagi vakilligini, ta'lim olish va karyera rivojlanishidan teng foydalanish imkoniyatlarini monitoring qilishni, shuningdek taqqoslanadigan lavozimlar bo'yicha mehnatga haq to'lashni tahlil qilishni nazarda tutadi.

Inson huquqlariga rioya etilishi

GRI 2-23

"O'zenergosotish" AJ inson qadr-qimmatini, asosiy erkinliklar va inson huquqlariga hurmatni o'z faoliyatining asosiy tamoyillaridan biri sifatida e'tirof etadi. 2025-yilda Kompaniya Inson huquqlariga rioya etish to'g'risidagi deklaratsiyani tasdiqladi. Mazkur deklaratsiyada xodimlar, biznes hamkorlar, yetkazib beruvchilar, pudratchilar, mahalliy hamjamiyatlar va boshqa manfaatdor tomonlarga nisbatan asosiy majburiyatlar belgilab qo'yilgan.

Kompaniyaning yondashuvi Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt, Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt, BMTning Biznes va inson huquqlari bo'yicha rahbar tamoyillari, Xalqaro mehnat tashkilotining Mehnat sohasidagi asosiy tamoyillar va huquqlar to'g'risidagi deklaratsiyasi hamda BMT Global shartnomasi tamoyillariga asoslanadi.

Kompaniya xodimning kasbiy sifatlari bilan bog'liq bo'lmagan jinsi, yoshi, irqi, millati, dini, ijtimoiy mavqei va boshqa belgilar bo'yicha kamsitishga yo'l qo'ymaydi. Teng munosabat tamoyili xodimlarni tanlash va ishga qabul qilish, mehnatga haq to'lash, vazifalarni taqsimlash, ta'lim olish, karyera rivojlanishi, kompensatsiyalar taqdim etish hamda mehnat munosabatlarini tugatishning barcha bosqichlariga tatbiq etiladi. Kompaniya, shuningdek, madaniy xilma-xillikni qo'llab-quvvatlaydi hamda o'zaro hurmat, adolat va teng imkoniyatlarga asoslangan ish muhitini shakllantirishga intiladi.

"O'zenergosotish" AJ bolalar mehnati va majburiy mehnatdan foydalanishni mutlaq taqiqlaydi, xodimlarning birlashish erkinligi va jamoaviy vakillik huquqini tan oladi, shuningdek, qonunchilik va ichki hujjatlar talablariga rioya etilgan holda har bir insonning o'z fikrini erkin bildirish huquqini hurmat qiladi. Xodimlar uchun xavfsiz va sog'liq uchun qulay mehnat sharoitlarini ta'minlash hamda Kompaniya faoliyatining xodimlar va aholiga salbiy ta'sirining oldini olish masalalariga alohida e'tibor qaratiladi.

Boshqaruv qarorlarini qabul qilishda Kompaniya muhokama jarayonida kamroq ishtirok etishi mumkin bo'lgan zaif guruhlar va manfaatdor tomonlarning manfaatlarini hisobga olishga intiladi. Mahalliy hamjamiyatlar bilan o'zaro hamkorlikda aholining madaniy xususiyatlari, urf-odatlar va qadriyatlarini inobatga olinadi. Mahalliy aholi turmush sharoitlariga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan loyihalar va qarorlar bo'yicha manfaatdor tomonlar bilan o'zaro hamkorlik qilish hamda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ijtimoiy oqibatlarini ko'rib chiqish nazarda tutiladi.

Inson huquqlariga bo'lishi mumkin bo'lgan ta'sirni baholash risklarni boshqarish jarayonlariga integratsiya qilingan. Mazkur yondashuv inson huquqlarining buzilishi xavflarini aniqlash va tahlil qilishni, muhim salbiy oqibatlar yuzaga kelishidan oldin profilaktik choralarni ko'rishni hamda tuzatish choralari ishlab chiqishni nazarda tutadi. Monitoring Kompaniya faoliyatiga, shuningdek, ulardan ham mas'uliyatli xulq-atvorning o'xshash tamoyillariga rioya etilishi kutiladigan yetkazib beruvchilar va pudratchilar bilan o'zaro hamkorlikka ham tatbiq etiladi.

Qayta aloqa olish va ehtimoliy qoidabuzarliklar to'g'risidagi xabarlarni qabul qilish uchun yozma murojaatlar, elektron pochta, telefon aloqasi, ichki yig'ilishlar va manfaatdor tomonlar bilan uchrashuvlarni o'z ichiga olgan turli o'zaro hamkorlik kanallari nazarda tutilgan. Kompaniya kelib tushgan murojaatlarni xolisona ko'rib chiqish, qoidabuzarliklar aniqlangan taqdirda tegishli choralarni ko'rish hamda inson huquqlarini himoya qilish mexanizmlarini izchil takomillashtirish zarurligini e'lon qiladi.

Deklaratsiyani joriy etish ustidan nazoratni amalga oshirish hamda inson huquqlari sohasidagi boshqaruv hisobotlarini ko'rib chiqish Kompaniyaning korporativ boshqaruv organlari zimmasiga yuklatilgan. Deklaratsiya qonunchilikdagi o'zgarishlar, xalqaro yondashuvlar, faoliyat xususiyati hamda manfaatdor tomonlarning dolzarb kutilmalarini hisobga olgan holda davriy ravishda qayta ko'rib chiqiladi.

Mehnatni muhofaza qilish va texnika xavfsizligi

GRI 3-3, 403-1, 403-4

Xodimlarning hayoti va sog'lig'ini saqlash "O'zenergosotish" AJ uchun so'zsiz ustuvor yo'nalish hisoblanadi. Kompaniya ISO 45001, ISO 14001 va ISO 50001 standartlari talablarini hisobga olgan holda integratsiyalashgan menejment tizimini rivojlantirmoqda. Tizim xavf-xatarlarni aniqlash, kasbiy xavflarni baholash, o'qitish va yo'riqnomalar o'tkazish, mehnat sharoitlarini tekshirish, avariya holatlariga tayyorgarlik ko'rish hamda rahbariyat tomonidan natijadorlikni tahlil qilishni qamrab oladi.

Xodimlar xavfsizlik talablariga rioya etishlari va xavfli sharoitlar haqida zudlik bilan xabar berishlari shart. Korporativ rahbariyat hayot yoki sog'liqqa bevosita xavf tug'diradigan ishni bajarishni

rad etish huquqini belgilab qo'ygan. Barcha hodisalar tekshirilishi shart, ish joyida alkogol va giyohvand moddalarni iste'mol qilishga yo'l qo'yilmaydi.

2025 yil uchun mehnatni muhofaza qilish tizimi natijalari

GRI 403-5, 403-9, 403-10

2025 yilda ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar, o'lim bilan yakunlangan hodisalar va og'ir oqibatli jarohatlar qayd etilmadi. Shuningdek, aniqlangan xavf-xatarlar bilan bog'liq kasb kasalliklari yoki sog'liqning yomonlashuvi holatlari ham aniqlanmadi.

Hisobot davrida mehnatni muhofaza qilish bo'yicha 50 dan ortiq yo'riqnoma o'tkazildi va mehnat sharoitlari bo'yicha 4 ta tekshiruv amalga oshirildi. Mikrojarohatlar soni 10 % ga kamaydi. Mehnatni muhofaza qilish masalalari bo'yicha ixtisoslashtirilgan o'qitishdan 9 nafar xodim o'tdi, o'qitishning jami hisobdagi hajmi 270 soatni tashkil etdi. Ichki audit davomida kritik va muhim nomuvofiqliklar aniqlanmadi, tuzatish choralari nazarda tutilgan to'rtta kichik nomuvofiqlik qayd etildi.

21-jadval – Mehnatni muhofaza qilish va texnika xavfsizligi masalalari bo'yicha kasbiy tayyorgarlik

GRI 403-5

Ko'rsatkich	O'lchov birligi	2024	2025
Bir xodimga to'g'ri keladigan MM va SX bo'yicha o'qitishning o'rtacha soatlari	soat	36	270
Ish joyida mehnatni muhofaza qilish va texnika xavfsizligi masalalari bo'yicha o'qitishdan o'tgan xodimlar soni	kishi	1	9

Mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi xavflarini boshqarish

GRI 403-2, 403-3, 403-7

"O'zenergosotish" AJ faoliyati xususiyatini hisobga olgan holda, asosiy kasbiy xavflar ofis binolarida ishlash, elektr jihozlaridan foydalanish, yong'in xavfsizligi, xodimlarning bino ichida harakatlanishi, tozalash vositalaridan foydalanish, psixosotsial yuklama hamda xizmat safarlari bilan bog'liq. Boshqaruv apparati uchun xavflar reyestri va kasbiy xavflarni baholash o'nta xavf guruhini qamrab oladi. Kompaniyaning asosan ma'muriy va tahliliy faoliyati hisobga olingan holda, asosiy xavflar kompyuterda uzoq vaqt ishlash, elektr jihozlaridan foydalanish, yong'in xavfsizligi, ish joylari ergonomikasi, psixosotsial yuklama hamda xizmat safarlari bilan bog'liq. Reyestr yiliga kamida bir marta, shuningdek, jarayonlar va mehnat sharoitlari o'zgarganda qayta ko'rib chiqiladi.

Xodimlarning katta qismi kompyuterlar va boshqa ofis texnikasidan foydalanadi. Monitor qarshisida uzoq vaqt ishlash hamda ish joyining yetarli darajada ergonomik tashkil etilmaganligi ko'z zo'riqishi, charchoq, bel, bo'yin va yelka sohasida og'riqlarni keltirib chiqarishi mumkin. Bunday xavflarni kamaytirish maqsadida ish joylarini to'g'ri tashkil etish, sozlanadigan mebellardan foydalanish, ish jarayonida tanaffuslarga rioya qilish hamda ko'z va tayanch-harakat apparati uchun mashqlarni bajarish nazarda tutiladi. Xodimlarga, shuningdek, tana holatini to'g'ri saqlash va ish kuni davomida yuklamani oqilona taqsimlash tavsiya etiladi.

Elektr jihozlaridan foydalanish elektr toki urishi, kuyish va boshqa jarohatlar olish xavfi bilan bog'liq. Nazorat choralari jihozlarning soz holatini ta'minlash, texnik ko'riklar o'tkazish, yerga ulash tizimini tekshirish, xodimlarni elektr jihozlaridan xavfsiz foydalanish bo'yicha yo'riqnomadan o'tkazish hamda nosoz jihozlarni mustaqil ravishda ta'mirlashga yo'l qo'ymaslikni o'z ichiga oladi. Ayrim turdagi ishlarni bajarishda himoya vositalari va elektr ta'minotini tezkor o'chirish imkoniyati nazarda tutiladi.

Yong'inlarning oldini olishga alohida e'tibor qaratiladi. Yong'in xavfi yuzaga kelgan holatlarning ehtimoliy oqibatlari kuyishlar, jarohatlar, tutun va yonish mahsulotlari ta'siri, shuningdek mol-mulkka zarar yetkazilishidan iborat. Xavfni boshqarish maqsadida binolar yong'in o'chirish vositalari va yong'in signalizatsiyasi bilan jihozlanadi. Xodimlar evakuatsiya rejalari va favqulodda vaziyatlarda harakat qilish tartibi bilan tanishtiriladi. Muntazam yo'riqnomalar o'tkazish, evakuatsiya chiqish yo'llari holatini

tekshirish hamda yong'in sodir bo'lgandagi harakatlarni amaliy mashq qilish ham muhim ahamiyatga ega.

Yiqilish va jarohatlanish xavflari sirpanchiq yuzalar, yo'laklardagi to'siqlar, mebellarning noqulay joylashtirilishi hamda yuklarni ko'chirish sababli yuzaga kelishi mumkin. Profilaktika choralari sifatida tartib saqlanadi, ish zonalar va evakuatsiya chiqish yo'llariga erkin kirish ta'minlanadi, sirpanishga qarshi qoplamalar qo'llaniladi hamda poldagi ifloslanish va namlik o'z vaqtida bartaraf etiladi. Og'ir buyumlarni ko'chirishda xavfsiz ko'tarish usullari, transport aravachalari va boshqa yordamchi vositalardan foydalaniladi.

Tozalash va kimyoviy vositalardan foydalanishda teri, ko'z va nafas olish organlarining ta'sirlanishi ehtimoli mavjud. Ta'sirni minimallashtirish maqsadida xavfsiz va foydalanishga ruxsat etilgan vositalardan foydalaniladi, ularni saqlash va qo'llash qoidalariga rioya qilinadi, xodimlar zarur shaxsiy himoya vositalari bilan ta'minlanadi. Mahsulotlarni tanlashda imkon qadar kamroq xavfli va ekologik jihatdan maqbul muqobilarga ustunlik beriladi.

Psixologik va ijtimoiy xavflar ishning yuqori intensivligi, vazifalarni bajarish muddatlarining cheklanganligi, yuqori mas'uliyat, dam olishning yetishmasligi hamda o'zaro hamkorlikdagi qiyinchiliklar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Bunday omillar stress, emotsional charchash, diqqatning pasayishi va xatolar ehtimolining ortishiga olib kelishi mumkin. Bunday oqibatlarining oldini olish maqsadida ish yuklamasini rejalashtirish va bir maromda taqsimlash, mehnat va dam olish rejimiga rioya qilish, belgilangan tanaffuslar, ochiq ichki kommunikatsiyalar hamda yuzaga kelayotgan ishdagi qiyinchiliklarni o'z vaqtida muhokama qilish nazarda tutiladi. Kompaniya xodimlarning psixologik qo'llab-quvvatlash dasturlarini va farovonligini oshirish bo'yicha tadbirlarni rivojlantirishni keyingi takomillashtirish yo'nalishlaridan biri sifatida ko'rib chiqadi.

Xizmat safarlari yo'l-transport hodisalari va safar davomida jarohat olish xavfi bilan bog'liq. Boshqaruv choralari texnik jihatdan soz va xavfsiz transportni tanlash, yo'riqnomalar o'tkazish, marshrutlarni rejalashtirish hamda xavfsizlik talablariga rioya etilishini nazorat qilishni o'z ichiga oladi. Xodimlarga ob-havo sharoitlarini, safar davomiyligini va uzoq yo'l oldidan yetarli dam olish zaruratini hisobga olish tavsiya etiladi.

Kasbiy xavflarni boshqarish bajarilayotgan ishlarning xususiyatini hisobga olgan holda xavflarni o'z vaqtida aniqlash, ehtimoliy oqibatlarni baholash va nazorat choralari tanlashga asoslanadi. Ustuvorlik xavf manbaini bartaraf etish va texnik yechimlarni qo'llashga beriladi. Agar xavfni to'liq bartaraf etishning imkoni bo'lmasa, tashkiliy choralari, o'qitish, yo'riqnomalar va shaxsiy himoya vositalaridan foydalaniladi. Choralarning natijadorligi muntazam monitoring qilinadi, xavflarni boshqarish yondashuvlari esa mehnat sharoitlari o'zgarganda, yangi uskunalar joriy etilganda yoki qo'shimcha xavf omillari aniqlanganda qayta ko'rib chiqiladi.

Xodimlarning salomatligi va farovonligi

GRI 403-6

Xavflarning oldini olish xodimlarning farovonligini qo'llab-quvvatlash choralari bilan to'ldiriladi. Kompaniya sog'lom turmush tarzini va sport tadbirlarida, jumladan basketbol, voleybol, mini-futbol va stol tennis bo'yicha musobaqalarda ishtirok etishni qo'llab-quvvatlaydi. Psixologik va ijtimoiy yuklamani kamaytirish maqsadida ish vaqtini rejalashtirish, tanaffuslar va jamoaviy tadbirlar qo'llaniladi. Kelgusida stress va emotsional charchashni erta aniqlash dasturlarini, shuningdek ish joylarini ergonomik baholashni rivojlantirish rejalashtirilgan.

Favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik

GRI 403-5, 403-7

2025-yil dekabr oyida markaziy apparatda xodimni elektr toki urgan holatda harakat qilish bo'yicha amaliy mashg'ulot o'tkazildi. Tadbirda 25 nafar kishi ishtirok etdi. Ssenariy jabrlanuvchini aniqlash, xavf manbaini o'chirish, mas'ul shaxslarni xabardor qilish, birinchi tibbiy yordam ko'rsatish, tezkor xizmatlarni chaqirish va zarurat tug'ilganda evakuatsiyani o'z ichiga oldi.

Mashg'ulot natijalariga ko'ra xodimlarning harakatlar algoritmini umumiy bilishi, birinchi tibbiy yordam vositalarining mavjudligi hamda mas'ul shaxslarning o'zaro muvofiqlashtirilgan harakatlari tasdiqlandi. Shu bilan birga, ma'muriy-xo'jalik va kadrlar yo'nalishidagi ayrim xodimlarning birinchi tibbiy yordam ko'rsatish bo'yicha amaliy ko'nikmalarini kuchaytirish, shuningdek hodisa yuzaga kelganda

rahbariyatni xabardor qilishni tezlashtirish zarurligi aniqlandi. Aniqlangan masalalar tuzatuvchi chora-tadbirlar tarkibiga kiritildi.

Xavflarni boshqarish

Xavflarni samarali boshqarish "O'zenergosotish" AJning moliyaviy barqarorligi, faoliyatining uzluksizligi hamda elektr energiyasi ishlab chiqaruvchilar, iste'molchilar, davlat organlari va boshqa manfaatdor tomonlar oldidagi majburiyatlarini bajarishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi.

Kompaniyaning elektr energiyasini xarid qilish va realizatsiya qilish tizimidagi rolini inobatga olgan holda, uning faoliyati tashqi va ichki omillar ta'siriga uchraydi. Ularga elektr energiyasi ishlab chiqarish va iste'mol qilish hajmlarining o'zgarishi, gaz ta'minotidagi cheklovlar, davlat-xususiy sheriklik korxonalari bilan tuzilgan shartnomalarning bajarilishi, yirik iste'molchilarning to'lov intizomi, valyuta kurslarining o'zgarishi, likvidlik tanqisligi, qonunchilikdagi o'zgarishlar hamda operatsion jarayonlardagi ehtimoliy uzilishlar kiradi.

Boshqaruvga yondashuv

GRI 3-3, 2-24

2025-yilda Kompaniya korporativ xavflarni boshqarish tizimini shakllantirishni davom ettirdi. Asosiy tamoyillar, rollar va tartib-taomillar ISO 31000:2018 «Xavflarni boshqarish tizimi» standartiga muvofiq ishlab chiqilgan Xavflarni boshqarish siyosatida belgilangan. Qo'shimcha ravishda maqbul xavf darajasi, ruxsat etilgan og'ishlar va chegara qiymatlarini aniqlashga yagona yondashuvni belgilovchi Xavf-appetitini aniqlash bo'yicha qo'llanma tasdiqlandi.

Xavflarni boshqarish tizimi boshqaruvning barcha darajalariga va Kompaniya faoliyatining asosiy yo'nalishlariga, jumladan elektr energiyasini xarid qilish va sotish, moliyaviy-iqtisodiy faoliyat, davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish, shartnoma va yuridik ishlar, kadrlar jarayonlari, davlat organlari, hamkorlar va iste'molchilar bilan o'zaro hamkorlikka tatbiq etiladi.

Kompaniyaning yondashuvi xavflarni boshqarishni strategik va operatsion rejalashtirishga integratsiya qilishga asoslanadi. Xavflar strategiyalar, biznes-rejalar, byudjetlar, asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari va muhim boshqaruv qarorlarini tayyorlashda hisobga olinadi.

Xavflarni boshqarish tizimli va izchil amalga oshiriladi. Har bir muhim xavf uchun uning manbai, ehtimoliy oqibatlar, yuzaga kelish ehtimoli, ta'sir darajasi, mas'ul bo'linmalar va javob choralari belgilab olinadi. Kompaniyada amalda bo'lgan funksiyalar taqsimoti o'z mohiyatiga ko'ra «uch himoya liniyasi» modeli tamoyillariga mos keladi.

Birinchi liniya bevosita operatsion faoliyatni amalga oshiruvchi tarkibiy bo'linmalar va xodimlardan iborat. Ular belgilangan tartib-taomillarga rioya etish, ichki hujjatlar talablari va limitlarga amal qilish, o'z jarayonlaridagi xavflarni aniqlash hamda birlamchi nazorat choralari amalga oshirish uchun javobgardir.

Birinchi liniyaga elektr energiyasini xarid qilish va sotish, moliyaviy hisob-kitoblar, davlat-xususiy sheriklik loyihalari, buxgalteriya hisobi, shartnoma ishlari, kadrlar va boshqa operatsion jarayonlar uchun mas'ul bo'linmalar kiradi. Ushbu bo'linmalar rahbarlari tegishli xavflarning egalari hisoblanadi hamda ularni kamaytirish bo'yicha tadbirlarning bajarilishini nazorat qiladi.

Ikkinchi liniya metodologik muvofiqlashtirish, monitoring va alohida yo'nalishlar bo'yicha nazoratni amalga oshiruvchi funksiyalarni o'z ichiga oladi. Ularga xavflarni boshqarish funksiyasi, Xavflarni boshqarish qo'mitasi hamda o'z vakolatlari doirasidagi boshqa nazorat va muvofiqlashtiruvchi bo'linmalar kiradi.

Ikkinchi liniya metodologik yondashuvlarni ishlab chiqadi, xavflar reyestrini yuritishni muvofiqlashtiradi, asosiy indikatorlarni tahlil qiladi, xavf-appetitiga rioya etilishini nazorat qiladi hamda Boshqaruv va Kuzatuv kengashi uchun hisobotlarni tayyorlaydi. Og'ishlar aniqlanganda xavf egalari bilan birgalikda tuzatish choralari ishlab chiqiladi.

Uchinchi liniya Ichki audit xizmati tomonidan taqdim etiladi, u xavflarni boshqarish, ichki nazorat va korporativ boshqaruv tizimlarining ishonchiligi hamda samaradorligini mustaqil baholaydi.

Ichki audit xizmatining mustaqilligi uning bevosita Kuzatuv kengashiga hisobdorligi bilan ta'minlanadi. Xizmat xodimlarini tayinlash va lavozimidan ozod etish, uning byudjeti va faoliyat rejasini tasdiqlash hamda tekshiruv natijalarini ko'rib chiqish Kuzatuv kengashi tomonidan amalga oshiriladi.

Xavflarni boshqarish jarayoni o'zaro bog'liq bir necha bosqichlarni o'z ichiga oladi.

Identifikatsiya bosqichida Kompaniyaning strategik va operatsion maqsadlariga erishishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan ichki va tashqi hodisalar aniqlanadi. Axborot manbalari sifatida tarkibiy bo'linmalar ma'lumotlari, moliyaviy va operatsion tahlil natijalari, shartnoma majburiyatlari, kontragentlarning murojaatlari, qonunchilikdagi o'zgarishlar hamda nazorat tadbirlari natijalari xizmat qiladi.

Xavf aniqlangandan so'ng uning tahlili amalga oshiriladi. Kompaniya hodisaning yuzaga kelish ehtimolini va uning moliyaviy natijalar, likvidlik, operatsion faoliyat, shartnoma majburiyatlarini bajarish hamda ishbilarmonlik obro'siga ehtimoliy ta'siri ko'lamini baholaydi.

Baholash natijalariga ko'ra javob berish usuli belgilanadi. Kompaniya xavf manbasini bartaraf etish, uning yuzaga kelish ehtimolini yoki oqibatlarini kamaytirish, xavfning bir qismini uchinchi tomonga o'tkazish yoki tasdiqlangan xavf-appetiti doirasida xavfni qabul qilish to'g'risida qaror qabul qilishi mumkin.

Muhim xavflar bo'yicha boshqaruv tadbirlari ishlab chiqiladi, mas'ul shaxslar va ijro muddatlari belgilanadi. Axborot xavflar reyestrda qayd etiladi va keyinchalik monitoringni amalga oshirish hamda boshqaruv hisobotlarini tayyorlashda foydalaniladi.

Xavf-appetiti Kompaniya strategik maqsadlarga erishish jarayonida qabul qilishga tayyor bo'lgan xavflarning umumiy darajasini belgilaydi. U qarorlar qabul qilishda mo'ljal sifatida qo'llaniladi hamda maqbul xavflar bilan zudlik bilan choralar ko'rishni talab qiladigan xavflarni ajratishga imkon beradi.

Xavf-appetiti ko'rsatkichlari strategik maqsadlar, moliyaviy holat, manfaatdor tomonlarning kutishlari va ehtimoliy yo'qotishlar ko'lamini hisobga olingan holda shakllantiriladi. Ular uzoq muddatli strategiya, funksional strategiyalar, biznes-rejalar va strategik xususiyatga ega boshqa hujjatlarda aks ettirilishi lozim.

Ayrim ko'rsatkichlar uchun signal va limit qiymatlari belgilanadi. Signal qiymati xavf darajasi ruxsat etilgan chegaraga yaqinlashayotgani haqida erta ogohlantirish mexanizmi sifatida qo'llaniladi. Limit qiymatining oshirilishi tuzatish choralari ko'rish va ko'rsatkichni tasdiqlangan xavf-appetiti doirasiga qaytarish zarurligini bildiradi.

Moliyaviy barqarorlikni miqdoriy baholash uchun EBITDA, tushum, pul oqimlari, aylanma kapital va o'z kapitali qo'llanilishi mumkin. Rahbariyat tomonidan tegishli ko'rsatkichning belgilangan ulushi doirasida xavfning ruxsat etilgan moliyaviy ta'sirini aniqlash imkoniyati nazarda tutilgan.

Asosiy xavf indikatorlarining monitoringi muntazam ravishda amalga oshiriladi. Ular chegara qiymatlariga yaqinlashganda yoki ulardan oshib ketganda og'ish sabablari tahlil qilinadi, harakatlar rejasini ishlab chiqiladi va axborot vakolatli boshqaruv organlari ko'rib chiqishiga kiritiladi.

Kuzatuv kengashi xavflarni boshqarish va ichki nazorat tizimi ustidan nazoratni amalga oshiradi, muhim xavflar to'g'risidagi axborotni ko'rib chiqadi va xavf-appetiti ko'rsatkichlarini tasdiqlaydi. Boshqaruv xavflarni boshqarish tizimini joriy etishni, tegishli tartib-taomillarni Kompaniya faoliyatiga integratsiya qilishni va eng muhim xavflar bo'yicha qarorlar qabul qilishni ta'minlaydi. Xavflarni boshqarish qo'mitasi dolzarb xavf-profilini, tadbirlar rejalarini va monitoring natijalarini ko'rib chiqadi. Jarayonlarni muvofiqlashtirish bo'linmalarini metodologik qo'llab-quvvatlash, xavflar reyestrini yuritish, asosiy indikatorlarni tahlil qilish va hisobotlarni tayyorlashni o'z ichiga oladi.

Bo'linmalar rahbarlari o'z faoliyat yo'nalishlari bo'yicha xavflarning egalari hisoblanadi. Ular xavflarni aniqlaydi va baholaydi, javob choralari taklif etadi, ularning bajarilishini nazorat qiladi hamda xavf darajasidagi o'zgarishlar to'g'risida rahbariyatni o'z vaqtida xabardor qiladi.

Ichki audit xizmati xavflarni boshqarish va ichki nazorat tizimining ishonchligi hamda samaradorligini mustaqil baholaydi. Kompaniyaning barcha xodimlari o'z lavozim majburiyatlari doirasida xavflarni boshqarishda ishtirok etadi.

Asosiy xavflar

2025-yil yakunlariga ko'ra xavflar reyestriga Kompaniyaning moliyaviy va operatsion barqarorligi bilan bog'liq xavflar kiritildi. Xavf profilining salmoqli qismi energetika bozorini isloh

qilishning o'ziga xos xususiyatlari, davlat-xususiy sheriklik korxonalari bilan tuzilgan shartnomalarning bajarilishi hamda to'lov majburiyatlarini o'z vaqtida bajarish zarurati bilan bog'liq bo'ldi.

2025-yildagi faoliyatning asosiy yo'nalishlaridan biri likvidlik xavfini boshqarish bo'ldi. Yirik iste'molchilar tomonidan to'lovlarning kechikishi aylanma mablag'larning qisqarishiga olib kelishi va elektr energiyasi ishlab chiqaruvchilari bilan o'z vaqtida hisob-kitob qilish imkoniyatini cheklashi mumkin. Mazkur xavfni boshqarish maqsadida Kompaniya iste'molchilarni to'lov intizomi bo'yicha reytinglashni qo'llashni boshladi. Iste'molchilar xavf toifalari bo'yicha taqsimlanadi, ular uchun kuchaytirilgan monitoring, oldindan to'lov, bank kafolatlari va shartnomalarda nazarda tutilgan jarima sanksiyalarini qo'llashni o'z ichiga oluvchi turli choralar nazarda tutiladi.

Qo'shimcha moliyaviy xavflar davlat-xususiy sheriklik loyihalari bo'yicha bank kafolatlarini taqdim etish zarurati, kredit majburiyatlariga xizmat ko'rsatish, qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha salbiy farqni qaytarish hamda akkreditivlar bo'yicha majburiyatlarni bajarish uchun mablag'lar yetishmasligi ehtimoli bilan bog'liq bo'ldi. Chora sifatida bank kafolatlarini jalb qilish, valyuta mablag'larini depozitlarga joylashtirish, sug'urta mexanizmlaridan foydalanish hamda qo'shimcha moliyalashtirish masalalari bo'yicha vakolatli davlat organlariga murojaat qilish ko'rib chiqildi.

Valyuta xavfi davlat-xususiy sheriklik korxonalari bilan tuzilgan shartnomalar bo'yicha hisob-fakturalarni taqdim etish va to'lovlarni amalga oshirish o'rtasidagi vaqt tafovuti bilan bog'liq. Ushbu davrda valyuta kursining o'zgarishi xarid qilinayotgan elektr energiyasi qiymatini oshirishi va aylanma kapitalga qo'shimcha yuklama yaratishi mumkin. Xavfni kamaytirish maqsadida Kompaniya hisob-kitoblar jadvalarini optimallashtirish, valyuta xavflarini taqsimlash shartlarini kelishish hamda valyuta bozorini monitoring qilishni kuchaytirish imkoniyatini ko'rib chiqmoqda.

Operatsion xavflarga issiqlik elektr stansiyalariga tabiiy gaz yetkazib berishdagi cheklovlar, amaldagi ishlab chiqarish hajmlarining rejalashtirilgan ko'rsatkichlardan og'ishi hamda «ol yoki to'la» mexanizmi bo'yicha qo'shimcha majburiyatlarning yuzaga kelishi kirdi. Javob choralari cheklovlar sabablarini hujjatlar bilan tasdiqlashni, zararni hisoblashni, da'vo-sud ishlarini olib borishni, shartnomaviy mexanizmlarni takomillashtirishni hamda mas'ul davlat organlari bilan gaz ta'minoti jadvalarini kelishishni nazarda tutadi.

Kompaniya, shuningdek, penya hisoblanishi, kontragentlar bilan kelishmovchiliklar yuzaga kelishi va da'volarni o'z vaqtida rasmiylashtirish zaruratini o'z ichiga oluvchi yuridik hamda shartnomaviy xavflarni ham hisobga oldi. Bunday xavflarni boshqarish huquqiy ekspertiza o'tkazish, muzokaralar olib borish, normativ takliflarni tayyorlash va Kompaniya manfaatlarini qonunchilikda belgilangan tartibda himoya qilish orqali amalga oshiriladi.

Ichki nazorat tizimi

"O'zenergosotish" AJning ichki nazorat tizimi korporativ boshqaruvning ajralmas qismi hisoblanadi hamda Kompaniyaning barqaror va samarali faoliyatini ta'minlashga qaratilgan. U og'ishlarni o'z vaqtida aniqlash, qonunbuzarliklarning oldini olish, aktivlarning saqlanishini ta'minlash va boshqaruv qarorlarining ishonchligini oshirish imkonini beradi. Tizimning asosiy vazifalari operatsion samaradorlikni, buxgalteriya va moliyaviy hisobotlarning ishonchligini, qonunchilik va ichki hujjatlar talablariga rioya etilishini, shuningdek Kompaniyaning strategik va operatsion maqsadlariga erishishga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan xavflarni o'z vaqtida aniqlash va boshqarishni ta'minlashdan iborat.

Ichki nazorat doimiy asosda amalga oshiriladi va moliyaviy-xo'jalik operatsiyalarini, strategiya va biznes-rejalarning bajarilishini, resurslardan foydalanishni, aktivlarning holatini, boshqaruv axborotining ishonchligini, belgilangan vakolatlarga rioya etilishini hamda qabul qilingan qarorlarning bajarilishini qamrab oladi.

Ichki nazorat tizimi beshta o'zaro bog'liq elementni o'z ichiga oladi:

- korporativ qadriyatlar, tashkiliy tuzilma, vakolatlarning taqsimlanishi va xodimlarning mas'uliyati asosida shakllantiriladigan nazorat muhitini;
- Kompaniya maqsadlariga erishishga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan xavflarni aniqlash, tahlil qilish va baholashni;
- operatsiyalarni kelishish va tasdiqlashni, vakolatlarni taqsimlashni, tekshiruvlarni, inventarizatsiyani hamda aktivlar saqlanishi ustidan nazoratni o'z ichiga oluvchi nazorat tartib-taomillarini;

- mas'ul shaxslar va boshqaruv organlariga ishonchli axborotni o'z vaqtida yetkazib berishni ta'minlovchi axborot almashinuvini;

- nazorat tartib-taomillarining samaradorligini baholash va aniqlangan kamchiliklarni o'z vaqtida bartaraf etishga qaratilgan monitoringni.

Ichki nazoratning asosiy tamoyillaridan biri vazifalarni taqsimlash hisoblanadi. Kompaniya bitta xodim bir vaqtning o'zida operatsiyani tasdiqlashi, uning hisobini yuritishi, tegishli aktivlarning saqlanishini ta'minlashi va ularni inventarizatsiya qilishi holatlariga yo'l qo'ymaslikka intiladi. Bunday yondashuv xatolar, suiiste'molliklar va manfaatlar to'qnashuvi ehtimolini kamaytirish imkonini beradi. Nazorat tartib-taomillari, shuningdek, moliyaviy va xo'jalik operatsiyalarini faqat o'zlariga berilgan vakolatlar doirasida vakolatli shaxslar tomonidan tasdiqlashni, qabul qilingan qarorlarni hujjatlashtirishni, amaldagi natijalarni rejalashtirilgan ko'rsatkichlar va avvalgi davrlar ma'lumotlari bilan taqqoslashni, shuningdek biznes jarayonlarining samaradorligini muntazam baholashni nazarda tutadi.

Ichki nazoratni tashkil etish va uning faoliyat ko'rsatishi uchun mas'uliyat Kuzatuv kengashi, Boshqaruv, Ichki audit xizmati, tarkibiy bo'linmalar rahbarlari hamda Kompaniya xodimlari o'rtasida taqsimlangan. Kuzatuv kengashi ichki nazorat tizimini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini belgilaydi va uning ishonchliligi hamda samaradorligi ustidan nazoratni amalga oshiradi. U aniqlangan kamchiliklar, muhim xavflar va ularni bartaraf etish choralari to'g'risidagi axborotni ko'rib chiqadi, shuningdek Ichki audit xizmati hisobotlarini eshitadi. Boshqaruv tasdiqlangan ichki nazorat tamoyillari va tartib-taomillarini Kompaniya faoliyatiga amaliy joriy etishni ta'minlaydi. Uning vazifalariga nazorat jarayonlarini tashkil etish, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish hamda muhim xavflar va og'ishlar to'g'risida Kuzatuv kengashini o'z vaqtida xabardor qilish kiradi. Tarkibiy bo'linmalar rahbarlari tegishli faoliyat yo'nalishlarida nazorat tartib-taomillarini joriy etish uchun javob beradi. Xodimlar o'z lavozim vakolatlari doirasida nazoratda ishtirok etadilar hamda aniqlangan qonunbuzarliklar, nostandart operatsiyalar va muhim xavflar to'g'risida rahbariyatni xabardor qilishlari shart.

Xavflarni boshqarish va ichki nazoratning integratsiyasi Kompaniyaga og'ishlarni o'z vaqtida aniqlash, asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilish, biznes jarayonlarining barqarorligini oshirish hamda strategik va operatsion vazifalarning bajarilishini ta'minlash imkonini beradi.

Ilovalar

1-ilova. Hisobot haqida

GRI 2-3

Mazkur "O'zenergosotish" AJning 2025-yil uchun Barqaror rivojlanish to'g'risidagi hisoboti Kompaniyaning Global Reporting Initiative (GRI Standards 2021) barqaror rivojlanish sohasidagi xalqaro hisobot standartlariga muvofiq tayyorlangan birinchi nomoliyaviy hisoboti hisoblanadi.

Hisobot 2025-yil 1-yanvardan 31-dekabr gacha bo'lgan davrni qamrab oladi hamda Kompaniyaning moliyaviy hisobot davriga mos keladi. Alohida hollarda, agar ular Kompaniya faoliyati natijalari yoki uning rivojlanish istiqbollarini tushunishga sezilarli ta'sir ko'rsatsa, hisobot sanasidan keyin sodir bo'lgan voqealar ham yoritiladi.

Hisobot "O'zenergosotish" AJning O'zbekiston Respublikasida elektr energiyasining markaziy xaridori sifatidagi faoliyatini aks ettiradi hamda Kompaniyaning korporativ boshqaruv, xodimlarni boshqarish, xavfsiz mehnat sharoitlarini ta'minlash, xavflarni boshqarish, ishbilarmonlik etikasi hamda yetkazib beruvchilar va boshqa manfaatdor tomonlar bilan o'zaro hamkorlikka bo'lgan yondashuvlari to'g'risidagi ma'lumotlarni ochib beradi.

Mazkur Hisobotni tayyorlash barqaror rivojlanish amaliyotlarini rivojlantirish va Kompaniya faoliyatining shaffofligini oshirish yo'lidagi muhim bosqich hisoblanadi. Hisobot manfaatdor tomonlar bilan ochiq muloqotni ta'minlash hamda nomoliyaviy axborotni oshkor etish sifatini oshirishga qaratilgan.

Moliyaviy ko'rsatkichlar O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasi — so'mda taqdim etilgan bo'lib, amaldagi qonunchilik talablari va Jamiyatning ichki hisobotlari asosida tayyorlangan Kompaniyaning moliyaviy hisobotlari ma'lumotlariga asoslanadi.

Mazkur Hisobot quyidagilarni ochib beradi:

- Kompaniyaning biznes modeli va O'zbekiston Respublikasi elektroenergetika tarmog'idagi o'rni;
- korporativ boshqaruv va xavflarni boshqarish tizimi;
- barqaror rivojlanishning muhim mavzulari bo'yicha faoliyat natijalari;
- inson kapitalini boshqarishga bo'lgan yondashuvlar;
- ishbilarmonlik etikasi va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi natijalar;
- manfaatdor tomonlar va ta'minot zanjiri bilan o'zaro hamkorlik.

GRI 2-14

Barqaror rivojlanish to'g'risidagi Hisobotni tayyorlash jarayoniga umumiy rahbarlik "O'zenergosotish" AJ Boshqaruvi tomonidan amalga oshiriladi. Boshqaruv asosiy oshkor etiladigan ma'lumotlarni ko'rib chiqishni ta'minlaydi, tarkibiy bo'linmalar o'rtasidagi hamkorlikni muvofiqlashtiradi hamda taqdim etilayotgan axborotning to'liqligi va ishonchliligini nazorat qiladi.

Hisobot Kompaniyaning faoliyat yo'nalishlari bo'yicha ma'lumotlarni taqdim etish uchun mas'ul bo'lgan tegishli tarkibiy bo'linmalari ishtirokida tayyorlanadi. Hisobotni tayyorlash jarayonini muvofiqlashtirish axborotni yig'ish va konsolidatsiya qilishni, muhimlik tahlilini o'tkazishni, GRI Standards talablariga muvofiq oshkor etiladigan ma'lumotlarni shakllantirishni hamda Hisobotning yakuniy mazmunini Kompaniya rahbariyati bilan kelishishni o'z ichiga oladi.

Hisobot chegaralari

GRI 2-2

Mazkur Hisobotning chegaralari "O'zenergosotish" AJning moliyaviy hisobotlari chegaralariga mos keladi. Hisobotga Kompaniyaning bosh ofisi va O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyat yurituvchi hududiy bo'linmalari faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar kiritilgan.

Agar alohida boshqacha ko'rsatilmagan bo'lsa, barcha miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari Kompaniyaning 2025-yil 1-yanvardan 31-dekabr gacha bo'lgan hisobot davridagi faoliyatiga taalluqlidir.

Hisobotni tayyorlash tamoyillari

Tamoyillar	Tavsifi
Barqaror rivojlanish konteksti	Hisobot Kompaniya faoliyati natijalarini uning O'zbekiston Respublikasi elektroenergetika tarmog'idagi o'rni va manfaatdor tomonlarga ko'rsatadigan ta'sirini hisobga olgan holda ochib beradi.
Muvozanatlilik	Hisobotda Kompaniyaning yutuqlari bilan bir qatorda mavjud chaqiriqlar va cheklovlar ham keltirilgan.
To'liqlik	Oshkor etilayotgan axborot muhimlikni baholash natijalari bo'yicha aniqlangan barcha muhim mavzularni qamrab oladi.
Taqqoslanish imkoniyati	Hisobot 2024–2025-yillar kesimidagi dinamik ma'lumotlarni o'z ichiga oladi, bu manfaatdor tomonlarga ular uchun muhim bo'lgan barcha ko'rsatkichlar bo'yicha tasavvur hosil qilish imkonini beradi.
Aniqlik	Hisobot imkon qadar keng auditoriyaga tushunarli bo'lgan sodda tilda yozilgan, shuningdek glossariyni ham o'z ichiga oladi.
Ishonchlilik	Hisobot uchun barcha ma'lumotlar Kompaniyaning tegishli tarkibiy bo'linmalari tomonidan taqdim etilgan va ishonchlilik tekshirilgan.
Aniqlik darajasi	Barcha muhim mavzular bo'yicha ma'lumotlar batafsil taqdim etilgan hamda manfaatdor tomonlarga Kompaniya faoliyati natijalarini baholash imkonini beradi. Barcha ma'lumotlar "O'zenergosotish" AJ tomonidan rasman tan olinadi hamda ichki va ochiq hujjatlar bilan tasdiqlanadi.
O'z vaqtida taqdim etilishi	Hisobot 2025-kalendar yili uchun ma'lumotlarni taqdim etadi va 2026-yilda e'lon qilinadi.

Muhim mavzularni aniqlash

GRI 3-1

2025-yilda "O'zenergosotish" AJ ilk bor GRI Standards 2021 talablariga muvofiq barqaror rivojlanishning muhim mavzularini kompleks baholashni amalga oshirdi.

Muhim mavzularni aniqlash jarayoni Kompaniya faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish, o'xshash kompaniyalarning axborotni oshkor etish amaliyotini o'rganish, shuningdek manfaatdor tomonlarning kutishlari va ESG hisobotlari sohasidagi zamonaviy talablarni hisobga olishga asoslandi.

Muhim mavzularni baholash quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oldi:

- Kompaniyaning biznes modeli va operatsion faoliyatini tahlil qilish;
- Tarmoqdagi o'xshash kompaniyalarning axborotni oshkor etish bo'yicha ilg'or amaliyotlarini benchmark tahlil qilish;
- GRI Standards 2021 talablariga muvofiq ikki tomonlama muhimlik tamoyilini qo'llash, bunda Kompaniya faoliyati va tashqi muhitning barqaror rivojlanishning iqtisodiy, ijtimoiy hamda boshqaruv jihatlarga o'zaro ta'siri hisobga olindi.

Bundan tashqari, muhim mavzularning yakuniy ro'yxatini shakllantirishda ESG reyting agentliklari (Sustainable Fitch, S&P Global Ratings va boshqalar) tomonidan baholanadigan mavzular ham inobatga olindi.

Muhimlik axborotning mavjud emasligi, noto'g'ri aks ettirilishi yoki yashirilishi asosiy manfaatdor tomonlarning baholari va qarorlariga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan daraja sifatida belgilandi.

Baholash natijalariga ko'ra, Kompaniya va uning manfaatdor tomonlari uchun ahamiyatli bo'lgan 6 ta muhim mavzu, jumladan 3 ta kichik mavzu aniqlandi.

22-jadval – "O'zenergosotish" AJning muhim mavzulari

GRI 3-2

Aspekt	No	Muhim mavzu	Kichik mavzu
Ijtimoiy (S)	1	Mas'uliyatli mehnat amaliyoti	1.1. Xodimlarni boshqarish

			<i>1.2. Xodimlarni o'qitish va rivojlantirish</i>
	2	Mehnatni muhofaza qilish va texnika xavfsizligi	–
Boshqaruv (G)	3	Elektr energiyasini xarid qilish va sotishni boshqarish	<i>3.1. Ta'minot zanjirini boshqarish</i>
	4	Korporativ boshqaruv	–
	5	Xavflarni boshqarish	–
	6	Ishbilarmonlik etikasi va korrupsiyaga qarshi kurashish	–

23-jadval – Ta'sirlar ro'yxati

GRI 3-2

Muhim mavzu	Ijoiy ta'sirlar	Salbiy ta'sirlar
Elektr energiyasini xarid qilish va sotishni boshqarish (shu jumladan ta'minot zanjirini boshqarish)	- Iste'molchilarni ishonchli elektr energiyasi bilan ta'minlash; - Xarid va tijorat jarayonlarining shaffofligini oshirish; - Mahalliy yetkazib beruvchilarni qo'llab-quvvatlash va hamkorlikni rivojlantirish; - Barqaror va samarali ta'minot zanjirini shakllantirish; - Ishonchli kontragentlar bilan ishlash orqali operatsion xavflarni kamaytirish.	- Tovar va xizmatlarni yetkazib berish muddatlarining buzilishi xavfi; - Kontragentlar majburiyatlarini bajarmasligi oqibatida elektr energiyasi ta'minotida uzilishlar yuzaga kelishi mumkinligi; - Yeta'kazib beruvchilar va pudratchilar faoliyati bilan bog'liq reputatsion xavflar; - Kontragentlar tomonidan qonunchilik va korporativ standartlar talablariga rioya qilinmasligi xavfi.
Korporativ boshqaruv	- Kompaniya boshqaruvining shaffofligi va samaradorligini oshirish; - Strategik maqsad va vazifalar ijrosi ustidan nazoratni ta'minlash; - oshqaruv qarorlarining sifatini oshirish; - Davlat, hamkorlar va boshqa manfaatdor tomonlar ishonchini mustahkamlash.	- Ayrim boshqaruv jarayonlarining yetarli darajada samarali bo'lmisligi xavfi; - Korporativ boshqaruv tamoyillariga rioya qilinmaganda reputatsion xavflar; - Boshqaruv organlari faoliyati yetarli darajada muvofiqlashtirilmaganda qarorlar qabul qilish samaradorligining pasayishi.
Mas'uliyatli mehnat amaliyoti	- Xavfsiz va munosib mehnat sharoitlarini yaratish; - Xodimlarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish; - Xodimlarning jalb etilganligi va ularni saqlab qolish darajasini oshirish; - Ijtimoiy kafolatlar hamda kasbiy o'sish imkoniyatlarini taqdim etish; - Jozibador ish beruvchi brendini shakllantirish.	- Kadrlar almashinuvi va malakali mutaxassislarni yo'qotish; - Kadrlar resurslari yetishmasligi sababli mehnat unumdorligining pasayishi; - Mehnat sharoitlaridan qoniqmaslik bilan bog'liq reputatsion xavflar; - Xodimlarni tanlash, moslashtirish va o'qitish xarajatlarining oshishi.

Mehnatni muhofaza qilish va texnika xavfsizligi	• Xodimlarning hayoti va sog'lig'ini saqlash; • Ishlab chiqarishdagi jarohatlanishlar darajasini kamaytirish; • Mehnat xavfsizligi madaniyatini rivojlantirish; • Xodimlarni shaxsiy himoya vositalari va tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyati bilan ta'minlash.	• Ishlab chiqarishdagi jarohatlanishlar va kasb kasalliklari xavfi; • Kompaniya obyektlarida favqulodda vaziyatlar va hodisalar yuzaga kelishi mumkinligi; • Hodisalar bilan bog'liq ish vaqtining yo'qotilishi va qo'shimcha xarajatlar; • Mehnatni muhofaza qilish talablariga rioya qilinmaganda reputatsion oqibatlar.
Xavflarni boshqarish	• Kompaniya faoliyatining barqarorligini oshirish; • Ehtimoliy tahdidlarni o'z vaqtida aniqlash va minimallashtirish; • Boshqaruv qarorlari sifatini oshirish; • Asosiy biznes jarayonlarining uzluksizligini ta'minlash.	• Aniqlanmagan yoki yetarli darajada nazorat qilinmagan xavflarning yuzaga chiqishi; • Moliyaviy yo'qotishlar va faoliyat samaradorligining pasayishi; • Operatsion jarayonlar uzluksizligining buzilishi; • Reputatsion va tartibga soluvchi xavflar.
Ishbilarmonlik etikasi va korrupsiyaga qarshi kurashish	• Kompaniya faoliyati shaffofligini oshirish; • Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar va firibgarlikning oldini olish; • Halol xulq-atvor madaniyatini shakllantirish • Manfaatdor tomonlar ishonchini mustahkamlash; • Ichki nazorat tizimi samaradorligini oshirish.	• Qonunchilik va ichki me'yoriy hujjatlar talablarining buzilishi; • Davlat, hamkorlar va xodimlar ishonchining yo'qolishi; • Reputatsion xavflar va Kompaniyaning ishchanlik obro'sining pasayishi; • Korrupsiya bilan bog'liq huquqbuzarliklarning moliyaviy va huquqiy oqibatlari.

2-ilova. GRI ko'rsatkichlari jadvali

Qo'llash to'g'risidagi bayonot	"O'zenergosotish" AJ 2025-yil 1-yanvardan 2025-yil 31-dekabrgacha bo'lgan davr uchun hisobotni GRI Standards talablariga muvofiq taqdim etdi
Foydalanilgan GRI 1 standarti	GRI 1: Foundation 2021

GRI standarti va indikatori	Ko'rsatkich raqami va nomi	Hisobot bo'limi	Istisnolar		
			Istisno qilingan	Sababi	Izohlar
GRI 2. Umumiy oshkor etishlar 2021	1. Tashkilot va uning hisobot berish amaliyoti				
	2-1 Tashkilot haqida ma'lumot	Kompaniya profili			
	2-2 Barqaror rivojlanish hisobotiga kiritilgan tashkilotlar	1-ilova. Hisobot haqida			
	2-3 Hisobot davri, hisobot taqdim etish davriyligi va aloqa uchun mas'ul shaxs	1-ilova. Hisobot haqida; 4-ilova. Kontakt ma'lumotlari			
	2-4 Axborotni qayta ko'rib chiqish	-	Ha	Kompaniyaning birinchi nofinaviy hisoboti	
	2-5 Tashqi tasdiqlash	-	Ha	2024-yil Barqaror rivojlanish hisoboti mustaqil tashqi tasdiqlashdan o'tkazilmagan	
	2. Faoliyat va xodimlar				
	2-6 Faoliyat, qiymat yaratish zanjiri va boshqa ishbilarmonlik munosabatlari	Biznes modeli			
	2-7 Xodimlar	Xodimlarni boshqarish			
	2-8 Xodim hisoblanmaydigan ishchilar	Xodimlarni boshqarish			

3. Korporativ boshqaruv				
2-9 Boshqaruv tuzilmasi va tarkibi	Korporativ boshqaruv tuzilmasi			
2-10 Oliy boshqaruv organini tayinlash va tanlash	Korporativ boshqaruv tuzilmasi			
2-11 Oliy boshqaruv organi raisi	Korporativ boshqaruv tuzilmasi			
2-12 Oliy boshqaruv organining ta'sirlarni boshqarish ustidan nazoratdagi roli	Barqaror rivojlanishni boshqarish			
2-13 Ta'sirlarni boshqarish bo'yicha mas'uliyatni delegatsiya qilish	Xodimlarni boshqarish			
2-14 Oliy boshqaruv organining barqaror rivojlanish hisobotidagi roli	1-ilova. Hisobot haqida roli			
2-15 Manfaatlar to'qnashuvi	Kuzatuv kengashi			
2-16 Muhim masalalarni yetkazish	Ishbilarmonlik etikasi va korrupsiyaga qarshi kurashish			
2-17 Oliy boshqaruv organining jamoaviy bilimlari	-	Ha	Hisobot yilida Kuzatuv kengashi a'zolari barqaror rivojlanish bo'yicha o'qitilmagan	
2-18 Oliy boshqaruv organi faoliyati samaradorligini baholash	-	Ha	Hisobot yilida Kuzatuv kengashi a'zolari faoliyati baholanmagan	
2-19 Rag'batlantirish siyosati	Kuzatuv kengashi Boshqaruv			
2-20 Rag'batlantirishni belgilash jarayoni	Kuzatuv kengashi Boshqaruv			

	2-21 Yillik umumiy mukofotning nisbati	Xodimlarni boshqarish			
	4. Strategiya, siyosat va amaliyot				
	2-22 Barqaror rivojlanish strategiyasi to'g'risidagi bayonot	Boshqaruv raisining murojaati			
	2-23 Siyosiy majburiyatlar	Xilma-xillik va tenglik			
	2-24 Siyosiy majburiyatlarni joriy etish	Xilma-xillik va tenglik			
	2-25 Salbiy ta'sirlarni bartaraf etish jarayonlari	Ishbilarmonlik etikasi va korrupsiyaga qarshi kurashish			
	2-26 Maslahat olish va xavotirlarni bildirish mexanizmlari	Ishbilarmonlik etikasi va korrupsiyaga qarshi kurashish			
	2-27 Qonunchilik va normativ-huquqiy hujjatlarga rioya qilish	Ishbilarmonlik etikasi va korrupsiyaga qarshi kurashish Axborot xavfsizligi			
	2-28 Uyushmalarga a'zolik	-	Ha	GRI 2-28 mezonlariga mos uyushmalarga a'zolik mavjud emas	
	5. Manfaaddor tomonlar bilan o'zaro hamkorlik				
	2-29 Manfaaddor tomonlar bilan o'zaro hamkorlik yondashuvi	Manfaaddor tomonlar bilan o'zaro hamkorlik			
	2-30 Jamoa shartnomalari	Xodimlarni boshqarish			
GRI 3. Muhim mavzular 2021	3-1 Muhim mavzularni aniqlash jarayoni	1-ilova. Hisobot haqida			
	3-2 Muhim mavzular ro'yxati	1-ilova. Hisobot haqida			
Elektr energiyasini xarid qilish va sotishni boshqarish (kichik mavzu – Ta'minot zanjirini boshqarish)					

GRI 3. Muhim mavzular 2021	3-3 Muhim mavzularni boshqarish	Biznes modeli			
GRI 201: Iqtisodiy faoliyat 2016	201-1 Yaratilgan va taqsimlangan bevosita iqtisodiy qiymat	Faoliyat tavsifi			
	201-4 Davlatdan olingan moliyaviy yordam	Faoliyat tavsifi	Ha	Axborot maxfiyligi sababli moliyaviy yordam summasi oshkor etilmaydi	
Mas'uliyatli mehnat amaliyoti (kichik mavzu – Xodimlarni boshqarish)					
GRI 3. Muhim mavzular 2021	3-3 Muhim mavzularni boshqarish	Xodimlarni boshqarish			
GRI 401: Bandlik 2016	401-1 Yangi xodimlar va kadrlar almashinuvi	Xodimlarni boshqarish			
	401-2 Doimiy xodimlarga beriladigan, biroq vaqtinchalik yoki to'liq bo'lmagan bandlikdagi xodimlarga berilmaydigan imtiyozlar	Xodimlarni boshqarish			
	401-3 Bola parvarishi ta'tili	Xodimlarni boshqarish			
Mas'uliyatli mehnat amaliyoti (kichik mavzu – Xodimlarni o'qitish va rivojlantirish)					
GRI 3. Muhim mavzular 2021	3-3 Muhim mavzularni boshqarish	Ta'lim va rivojlanish			
GRI 404: Ta'lim va malaka oshirish 2016	404-1 Bir xodimga to'g'ri keladigan o'rtacha yillik o'qitish soatlari	Ta'lim va rivojlanish			
	404-2 Xodimlarning malakasini oshirish va kasbiy moslashuv dasturlariproфессиональной адаптации	Ta'lim va rivojlanish			

Mehnatni muhofaza qilish va texnika xavfsizligi					
GRI 3. Muhim mavzular 2021	3-3 Muhim mavzularni boshqarish	Mehnatni muhofaza qilish va texnika xavfsizligi			
GRI 403: Mehnatni muhofaza qilish va sanoat xavfsizligi 2018	403-1 Mehnatni muhofaza qilish va sanoat xavfsizligini boshqarish tizimi	Mehnatni muhofaza qilish va texnika xavfsizligi			
	403-2 Xavflarni aniqlash, xavflarni baholash va hodisalarni tekshirish	Mehnatni muhofaza qilish va texnika xavfsizligi			
	403-3 Mehnatni muhofaza qilish sohasidagi xizmatlar	Mehnatni muhofaza qilish va texnika xavfsizligi			
	403-4 Xodimlarning ishtiroki, maslahatlashuvlar va mehnatni muhofaza qilish bo'yicha kommunikatsiyalar	Mehnatni muhofaza qilish va texnika xavfsizligi			
	403-5 Mehnatni muhofaza qilish bo'yicha xodimlarni o'qitish	Mehnatni muhofaza qilish va texnika xavfsizligi			
	403-6 Xodimlar salomatligini mustahkamlash dasturlari	Mehnatni muhofaza qilish va texnika xavfsizligi			
	403-7 Ishbilarmonlik munosabatlari bilan bog'liq mehnatni muhofaza qilishga ta'sirlarni oldini olish va minimallashtirish	Mehnatni muhofaza qilish va texnika xavfsizligi			
	403-8 Mehnatni muhofaza qilish va sanoat xavfsizligini	Mehnatni muhofaza qilish va texnika xavfsizligi			

	boshqarish tizimi bilan qamrab olingan xodimlar труда и промышленной безопасностью				
	403-9 Ishlab chiqarishdagi jarohatlar	Mehnatni muhofaza qilish va texnika xavfsizligi			
	403-10 Kasb kasalliklari	Mehnatni muhofaza qilish va texnika xavfsizligi			
Korporativ boshqaruv					
GRI 3. Muhim mavzular 2021	3-3 Muhim mavzularni boshqarish	Korporativ boshqaruv			
Ishbilarmonlik etikasi va korrupsiyaga qarshi kurashish					
GRI 3. Muhim mavzular 2021	3-3 Muhim mavzularni boshqarish	Ishbilarmonlik etikasi va korrupsiyaga qarshi kurashish			
GRI 205: Korrupsiyaga qarshi kurashish 2016	205-1 Korrupsiya xavflari bo'yicha baholangan operatsiyalar	Ishbilarmonlik etikasi va korrupsiyaga qarshi kurashish			
	205-2 Korrupsiyaga qarshi siyosat va tartib-taomillar bo'yicha kommunikatsiya va o'qitish	Ishbilarmonlik etikasi va korrupsiyaga qarshi kurashish			
	205-3 Tasdiqlangan korrupsiya holatlari va ko'rilgan choralar	Ishbilarmonlik etikasi va korrupsiyaga qarshi kurashish			
Xavflarni boshqarish					
GRI 3. Muhim mavzular 2021	3-3 Muhim mavzularni boshqarish	Xavflarni boshqarish			

3-ilova. Glossariy

Active Directory	Microsoft'ning korporativ tarmoqda foydalanuvchi hisob yozuvlari, kirish huquqlari va resurslarni markazlashtirilgan tarzda boshqarish uchun mo'ljallangan kataloglar xizmati
CERT International	Menejment tizimlarini sertifikatlash bo'yicha mustaqil organ. 2026-yil yanvar oyida «O'zenergosotish» AJning IMT bo'yicha sertifikatlash auditining birinchi bosqichini o'tkazdi
CH ₄	Metan — GHG Protocol metodologiyasi bo'yicha issiqxona gazlari chiqindilarini hisoblashda inobatga olinadigan issiqxona gazi
CO ₂	Karbon dioksidi (uglerod dioksidi) — CO ₂ -ekvivalentini hisoblash uchun asosiy birlik sifatida qo'llaniladigan asosiy issiqxona gazi
EBITDA	Foizlar, soliqlar va amortizatsiya chegirilgunga qadar foyda
EnPI	<i>Energy Performance Indicator</i> — energetik samaradorlik ko'rsatkichi (maydon birligiga yoki bir nafar xodimga to'g'ri keladigan energiya sarfi)
ERP	<i>Enterprise Resource Planning</i> — moliyaviy, xarid va kadrlar jarayonlarini avtomatlashtirish uchun korporativ axborot tizimi
ESG	<i>Environmental, Social, Governance</i> — kompaniya faoliyatini moliyaviy bo'lmagan baholashda qo'llaniladigan ekologik, ijtimoiy omillar va korporativ boshqaruv
GHG Protocol	<i>Greenhouse Gas Protocol</i> — issiqxona gazlari chiqindilarini korporativ hisobga olish va hisobot berish bo'yicha xalqaro standart
GRI	<i>Global Reporting Initiative</i> — moliyaviy bo'lmagan hisobotning eng keng tarqalgan standartlarini (GRI Standards 2021) ishlab chiqqan Global hisobot tashabbusi
GWP	<i>Global Warming Potential</i> — global isish salohiyati; turli issiqxona gazlari chiqindilarini CO ₂ -ekvivalentiga o'tkazish koeffitsiyenti
IFRS S1	Barqaror rivojlanish bo'yicha axborotni oshkor qilish xalqaro standarti (ISSB)
IFRS S2	Iqlimga oid axborotni oshkor qilish xalqaro standarti (ISSB)
ISO	<i>International Organization for Standardization</i> — Xalqaro standartlashtirish tashkiloti
ISO/IEC 27001	Axborot xavfsizligi menejmenti tizimi
KPI	<i>Key Performance Indicators</i> — asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari
N ₂ O	Azot(I) oksidi — chiqindilarni hisoblashda inobatga olinadigan issiqxona gazi
PPA	<i>Power Purchase Agreement</i> — elektr energiyasini ishlab chiqaruvchi kompaniya va «O'zenergosotish» AJ o'rtasida elektr energiyasini xarid qilish bo'yicha uzoq muddatli kelishuv
Scope 1 (1-qamrov)	Kompaniyaning o'z manbalaridan (transport va uskunalarda yoqilg'ini yoqish) kelib chiqadigan to'g'ridan-to'g'ri issiqxona gazlari chiqindilari
Scope 2 (2-qamrov)	Xarid qilingan elektr yoki issiqlik energiyasi iste'moli bilan bog'liq bilvosita chiqindilar

TCO ₂ -ЭKB.	CO ₂ -ekvivalenti tonnasi — turli gazlarning (CH ₄ , N ₂ O va boshqalar) global isish salohiyati bo'yicha qayta hisoblangan umumiy issiqxona ta'sirini baholash birligi
AJ	Aksiyadorlik jamiyati
BHM	Bazaviy hisoblash miqdori — O'zbekiston Respublikasida bojxona yig'implari va boshqa davlat to'lovlarini hisoblash uchun shartli birlik
QTEM	Qayta tiklanuvchi energiya manbalari (quyosh, shamol, gidro va geotermal energiya)
ShES	Shamol elektr stansiyasi
GJ	Gigajoul — energiya miqdorini o'lchash birligi (1 GJ = 10 ⁹ J)
DXSh	Davlat-xususiy sheriklik — infratuzilma loyihalarini amalga oshirishda davlat va xususiy investorning uzoq muddatli hamkorlik shakli
GES	Gidroelektr stansiyasi
YAJ	Yopiq aksiyadorlik jamiyati
IMT	Integratsiyalashgan menejment tizimi — bir nechta ISO standartlari talablarini birlashtiruvchi yagona boshqaruv tizimi
kVt·soat	Kilovatt-soat – elektr energiyasini o'lchash birligi
Komplaens	Kompaniyaning faoliyati qonuniy talablar, standartlar va korporativ siyosatlariga muvofiqligi
FIK	Samaradorlik koeffitsienti
IPCC	Iqlim o'zgarishi bo'yicha hukumatlararo ekspertlar guruhi — issiqxona gazlari chiqindilarini hisoblash metodikalarini ishlab chiquvchi xalqaro ilmiy organ
MOBET	Markaziy Osiyo Birlashgan Energetika Tizimi — «O'zenergosotish» AJ import va eksport operatsiyalarini amalga oshiradigan davlatlararo energetika tizimi.
BMT	Birlashgan Millatlar Tashkiloti
Tarmoqqa uzatish	Ishlab chiqaruvchi elektr stansiyasi tomonidan elektr tarmog'iga amalda uzatilgan va tijorat hisobga olish asboblari ko'rsatkichlari bilan tasdiqlangan elektr energiyasi hajmi
IG	Issiqxona gazlari — atmosferada issiqlik nurlanishini ushlab qoluvchi gazlar (CO ₂ , CH ₄ , N ₂ O va boshqalar)
PQ	Prezident qarori
O'zR	O'zbekiston Respublikasi
IAX	Ichki audit xizmati
OAV	Ommaviy axborot vositalari
QES	Quyosh elektr stansiyasi
TVt·soat	Teravatt-soat — elektr energiyasini o'lchash birligi (1 TVt·soat = 10 ¹² Vt·soat)
IES	Issiqlik elektr stansiyasi
PF	Prezident farmoni

Ta'minot zanjiri	Elektr energiyasini ishlab chiqaruvchidan iste'molchiga qadar xarid qilish, tashish va sotishda ishtirok etuvchi tashkilotlar hamda jarayonlar majmui
BRM	Barqaror rivojlanish maqsadlari — 2030-yilgacha bo'lgan Kun tartibining 17 ta global maqsadi
«Yashil makon»	O'zbekiston Respublikasining yashil hududlarni kengaytirishga qaratilgan umummilliy loyihasi.

4-ilova. Kontakt ma'lumotlari

GRI 2-1

“O‘zenergosotish” aksiyadorlik jamiyati
O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Osiyo ko‘chasi, 42-uy
Tel.: +998 55-516-06-81
E-mail: public@ues-jsc.uz
Rasmiy veb-sayt: <https://www.ues-jsc.uz>

GRI 2-3

Hisobot bo‘yicha barcha savollar, izohlar va takliflar yuzasidan quyidagi xodimga murojaat qilishingiz mumkin:

Begis Ibadullayev

“O‘zenergosotish” AJ Iqtisodiyot va moliya boshqarmasining yetakchi mutaxassisi
E-mail: b.ibadullaev@ues-jsc.uz

Komplaens nazorati:

E-mail: anticor@ues-jsc.uz